

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani v/b
_____ f.f.n.Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2014-y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun

ISOQOVA PARIZODNING

“Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari”
(XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: prof. O.Jo‘rayev

Taqrizchi: dots.I. Ikromov

**BMI O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI
O‘QITISH USLUBIYATI kafedra**

yig‘ilishining(Qaror №10. 15.05.2014) qarori
bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: f.f.n.Y.Karimova.

Jizzax-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-9
I BOB. Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish hodisasi va XIX asr so‘nggi choragi–XX asrning boshlari jizzaxlik ijodkorlarning asarlari	
1.1. Adabiy-estetik ideal va transformatsiya hodisasi haqida.....	10-16
1.2 O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy-estetik ideal yaratishga oid tadqiqotlar.....	17-22
1.3. XIX asr so‘nggi –XX asr birinchi choragida Jizzaxlik ijodkorlarning adabiy-estetik idealida transformatsiyalashuv hodisasi.....	23-29
II BOB. XX asr Jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining xususiyatlari	
2.1. Hamid Olimjon asarlarida adabiy-estetik ideal kategoriyasi.....	30-37
2.2. Sharof Rashidovning publitsistik va nasriy asarlarida adabiy-estetik ideal.....	38-47
2.3. Sharof Rashidov dramaturgiyasi va she‘riyatida adabiy-estetik ideal talqinlari.....	48-55
III BOB. Istiqlol davri ijodkorlari asarlarida davr adabiy-estetik ideali. Akademik litseyda Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasida adabiy-estetik ideal mavzusini o‘rganish	
3.1. Sayyora To‘ychiyevaning Istiqlol davri she‘riyatida adabiy-estetik ideal.....	56-63
3.2. Istiqlol davri adabiy-estetik ideallarining Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalaridagi o‘ziga xosligi.....	64-72
3.3. Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganish.....	73-83
XULOSA.....	84-88
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	89-96

REJA

Kirish

I Bob. Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish hodisasi va XIX asr so‘nggi choragi–XX asrning boshlari jizzaxlik ijodkorlarning asarlari

1.1. Adabiy-estetik ideal va transformatsiya hodisasi haqida

1.2. O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy-estetik ideal yaratishga oid tadqiqotlar

1.3. XIX asr so‘nggi XX asr birinchi choragida Jizzaxlik ijodkorlarning adabiy-estetik idealida transformatsiyalashuv hodisasi

II Bob. XX asr jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining xususiyatlari

2.1. Hamid Olimjon asarlarida adabiy-estetik ideal kategoriyasi

2.2. Sharof Rashidovning publitsistik va nasriy asarlarida adabiy-estetik ideal

2.3. Sharof Rashidov dramaturgiyasi va she‘riyatida adabiy-estetik ideal talqinlari

III Bob. Istiqlol davri ijodkorlari asarlarida davr adabiy-estetik ideali. Akademik litseyda Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasida adabiy-estetik ideal mavzusini o‘rganish

3.1. Sayyora To‘ychiyevaning Istiqlol davri she‘riyatida adabiy-estetik ideal

3.2. Istiqlol davri adabiy-estetik ideallarining Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalaridagi o‘ziga xosligi

3.3. Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganish

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to Istiqlolgacha bo‘lgan davrda o‘zbek xalqi dastlab Chor Rossiyasi, so‘ngra sovet hukumatining mustamlakachilik va qatag‘onchilik siyosati bilan bog‘liq murakkab tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy jarayonlarni boshidan o‘tkazdi. Bu jarayonlarning birinchisi-XIX asrda rus hukumatining Turkiston yerlarini mustamlakaga aylantirish siyosatining jadallashishi, oxir-oqibat bosib olinishi bilan bog‘liq. Dastlab, Pyotr I davrida Turkiston yerlarini bosib olish rejasi bir qadar sekinlik bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, XIX asrga kelib tarixda “Katta o‘yin” deb nomlangan siyosatning faollashuvi hamda Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasida Turkiston bozorlarini egallash uchun raqobat, ayniqsa, Rossiya va Britaniyaning Buxoro davlati bilan o‘rnatgan diplomatik munosabatlari va bu munosabatlar bosqinchilik harakatlarining tezlashishiga turtki berdi. Xalqimizning mustamlakachilik siyosati qurboniga aylanishida uch xonlikni boshqarayotgan hukmdorlarning mazkur siyosatdan bexabarligi va rivojlanib borayotgan Yevropa madaniyati, ilm-fanidan orqada qolishi bo‘ldi.

Garchi XX asrning birinchi choragida xalqimiz Rossiya mustamlakasidan qutulish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, sovet tuzumi tomonidan qayta mahv etildi. Bu tuzum avvalgisidan ham battarroq asoratlarni qoldirdi. Siyosiy qatag‘onlar avj oldi. Xalqimizning erkin fikrini bildirish, o‘z orzu-istaklarini ochiq bayon qilish huquqlari chegaralandi. Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmidan Istiqlolgacha bo‘lgan davr nihoyatda og‘ir va qora kunlar bo‘ldi. Mazkur davrda mustamlakachi kuchlar, nafaqat xalqimizning tabiiy boyliklari, balki asrlar davomida shakllangan ma‘naviyati, adabiyoti va qo‘lyozma merosiga ham daxl qildilar. Ular o‘zbek xalqini milliy o‘zligidan uzoqlashtirish maqsadida ma‘naviyatimizga oid ko‘plab qo‘lyozma merosimizni yo‘q qilib yubordilar hamda tashib ketdilar. Asrlar davomida ma‘naviyatimizning o‘zagiga aylangan islom dini bilan bog‘liq manbalarni o‘z maqsadlarida talqin qildilar. Ajdodlarimizning asarlarini turli xil qisqartirishlar bilan nashr qildirdilar. O‘z navbatida, o‘z g‘oya va

maqsadlariga xizmat qiladigan adabiyotni shakllantirishga intildilar. Bunday murakkab va siyosiy maqsadlarga bo'ysundirishga qaratilgan adabiyot shakllantirilayotgan davrda ham xalqimizning fidoyi va peshqadam vakillari bo'lgan qalam ahli o'z Vatanlarining ozod, eng go'zal, unda yashovchi xalqning vatanparvar, uning yoshlari ilm-fanni o'rganishga ishtiyoqmand, ajdodlari merosiga vorislik hissi bilan to'lib-toshgan, har tomonlama komil, undagi jamiyat taraqqiy etgan bo'lishi kerak, degan eng oliy orzu – ideallarni tarannum etishdan voz kechmadilar. Mazkur davrlarda yaratilgan asarlar sirtdan qaraganda tuzum mafkurasiga xizmat qilayotgandek ko'rinsa ham, aslida ularda ijodkorlar qayd qilgan ideallari ba'zida oshkora, ba'zida esa ramziy timsollar orqali taqdim etildi. Adabiy-estetik ideal davr va siyosiy qatag'onlari bilan ba'zida murosaga kirishgandek fikr hosil qilib, turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan, o'zgarib turgan, transformatsiyalangan.

Istiqlol yurtimizning barcha ijodkorlariga yangicha imkoniyatlar, o'zlarining yuksak adabiy-estetik idellarini targ'ib qilishning yo'llarini ochib berdi. Badiiy adabiyotdagi bunday evrilishlar Vatanimizning barcha mintaqalaridagi ijodkorlar, jumladan, Jizzax voha ijodkorlari asarlarida ham o'z aksini topgan. Mazkur davr oralig'ida Jizzaxdan ko'plab shoir va adiblar yetishib chiqqan. Ularning asarlarida ham yuqorida qayd qilingan kabi adabiy-estetik ideallar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Hozirga qadar jizzaxlik ijodkorlarning asarlari alohida-alohida tarzda bir qator tadqiqotlarda tahlil va tadqiq etilgan. Ularning ba'zilar sovet davri nuqtayi nazaridan baholangan bo'lsa, ba'zilar ijodiy merosining ayrim qirralari yetarli darajada ilmiy o'rganilmagan.

Garchi o'zbek adabiyotida estetik ideal mavzusi ma'lum miqyosda o'rganilgan bo'lsa ham, jizzaxlik ijodkorlarning asarlaridagi adabiy-estetik ideal masalasi hozirga qadar yaxlit tadqiqot mavzusi bo'lgan emas. Qayd qilinganlarga ko'ra, XIX asrdan Istiqlolgacha bo'lgan davrdagi murakkab ijodiy muhitda o'zbek adabiyoti vakillari tomonidan yaratilgan asarlardagi adabiy-estetik ideal, ularning transformatsiyalanish jarayonlari, bu jarayonlarning boshlanishiga sabab bo'lgan

omillarni jizzaxlik ijodkorlar asarlari misolida ko'rsatish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiy-estetik ideal kategoriyasi xorij va o'zbek adabiyotshunoslari hamda adabiyotshunoslikka yondosh bo'lgan bir qator fan tarmoqlari vakillari tomonidan ularning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra turli darajada tadqiq etilgan¹.

Shuningdek, adabiyotshunoslikda transformatsiyalanish mavzusiga oid tadqiqotlar ham amalga oshirilgan². Lekin hozirga qadar yaxlit tarzda o'zbek adabiyoti yoki alohida biror mintaqa doirasida katta davrda ijod qilgan bir necha avlod ijodkorlari asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining o'zgarib turishi, transformatsiyalanish jarayonlari, buning sabablari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan.

¹ Лармин О. Эстетический идеал и современность. – М., 1964. – 155с.; Муриан В. Эстетический идеал. –М., 1966. –247 с.; Нигматуллина Ю. Национальное своеобразие идеала и искусство.-Казань, Татгосиздат. 1970. – 212 с.; Осичнюк Е. Идеал и деятельность. -Киев, 1981. –184 с.; Муродов О.М., Полякова Е.А. Трансформация мифологических и легендарных образов в таджикско-персидских хрониках XI-XV вв. – Душанбе: Дониш, 1986. – 220 сах.; Мухаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт. - Т.:Ўзбекистон, 1973. - 33 б.; Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. -Т.: Фан, 1975. -146 с.; Қосимов Б. Излай-излай топганим... -Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. -272 б.; Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – 96 б.; Камалова Д.М. Узбекская художественная культура. –Т.: Издательско-полиграфическое объединение, 1995. -150 с.; Жалолов А. XIX аср охири XX аср бошларида ўзбек адабиёти. -Т.: Фан, 1978. - 155 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.-Т.: O'zbekiston, 2008.-536 б.; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик.-Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. - 286 б.; Ганиев И. Фитрат. Ўтиқод. Ижод. - Т., 1994 – 152 б.; Яна Ганиев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати.-Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – 178 б.; Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (Насрий асарлари мисолида) ф.ф.док. дисс.-Т.:1998. – 284 б.; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд.– Т.:, 2004. – 104 б.; Жўракулов У. Фитратнинг таджикотчилик маҳорати. – Т.: Университет, 2003. – 124 б. ; Бағиров А. Бадиий идеал ва тарихий ҳақиқат // ЎТА, 1997, №2, 17–22-бетлар.; Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йўлида // ЎТА, 1994, № 3;Эстетик идеал ва ҳаётий ҳақиқат // Гулистон, 1997, № 1; Кумушбиби – эстетик идеал намунаси // ЎТА, 1994, 5–6-сонлар.

² Данина М. Трансформация образов. <http://www.proza.ru>; Бартенева Е. Трансформация мифологических мотивов, сюжетов и образов в европейской литературной сказке. <http://pryahi.indeep.ru>; Муравьева М. Е. Трансформация гуманистических идеалов свободы и социальной справедливости в истории философской мысли. Автореф. дисс. на соиск. учен. степени кандидата философских наук. Москва 2005. -25 с.; Франк С. Л. Крушение кумиров // Франк С. Л. Сочинения. Мн.: Харвест. М.: АСТ, 2000. С. 147-246.; Франк С.Л. Политика и идеи // Франк С. Л. Сочинения. - Мн.: Харвест. М.: АСТ, 2000. С. 81-96.; Тургенев И.С. Гамлет и Дон-Кихот // Сочинения в 12-ти т. Т. 5. М.: Наука, 1980. С. 330-350.; Фрейд З. Будущее одной иллюзии // Фрейд З. Избранное. книга 2. М.: Издательство «Московский рабочий» вместе с «Вся Москва», 1990. С. 99-147.; Трансформация идей и трансформация образов. <http://wunder.narod.ru>; Б.Кристенсен. Трансформация образа Голлума в “Хоббите”. <http://www.tolkien.spb.ru>; Баранова И. А. Литература и медицина: трансформация образа врача в русской литературе XIX века.// Вестник Самарской гуманитарной академии. Выпуск «Философия. Филология.» – 2010. – № 2 (8) стр.186-194; Лепёшкина М.Н. Трансформация образа женщины в рекламе. <http://www.mavriz.ru>; Федоров А.В. Трансформации образа России на западном экране: от эпохи идеологической конфронтации (1946–1991) до современного этапа (1992–2010). М.: Изд-во МОО «Информация для всех», 2010. 202 с.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish uslubiyati kafedrası rejasiga muvofiq amalga oshirilgan. Mavzu kafedraning –sonli yig‘ilishi va o‘zbek tili va adabiyoti fakultetining -sonli va Jizzax davlat pedagogika institutining -sonli (yil, oy, kun)dagi Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

Tadqiqot maqsadi: XIX-XX asrlar va Istiqlol davri jizzaxlik ijodkorlar asarlari misolida o‘zbek adabiyotida adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonini tadqiq etish.

Tadqiqot vazifalari. Ishda asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- adabiyotshunoslikda adabiy-estetik ideal va transformatsiya tushunchalariga aniqlik kiritish;
- o‘zbek adabiyotshunosligidagi adabiy-estetik ideal mavzusiga oid tadqiqotlarni tahlil qilish;
- XIX asr va XX asrlarning birinchi choragi jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog‘liq adabiy-estetik ideal kategoriyalarini talqin qilish;
- Sovetlar davrida jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog‘liq adabiy-estetik ideal kategoriyalarining transformatsiyalanish jarayonlari tadqiq qilish;
- Mustaqillik davrida ijod qilayotgan jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog‘liq adabiy-estetik ideal kategoriyalarini ko‘rsatish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. XIX-XX asrlar va Istiqlol davrida ijod qilgan jizzaxlik Alamkash, Muazzamxon, Hamid Olimjon, Sharof Rashidov, Sayyora To‘ychiyeva, Zulfiya Qurolboy qizi kabi ijodkorlarning asarlari tadqiqotning obyekti sanaladi. Tadqiqotning predmetini XIX-XX asrlar va Istiqlol davrida ijod qilgan jizzaxlik ijodkorlarning asarlarida ozodlik, istiqlool, taraqqiyot bilan bog‘liq adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyasi jarayonlarini ko‘rsatish tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Ishda ilmiy qarashlarni nazariy dalillashda o'zbek va jahon adabiyotshunosligida erishilgan yutuqlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun tarixiy-qiyosiy metod tahlil usuli sifatida tanlandi. Mavzu tadqiqida Prezident I.A.Karimov asarlaridagi milliy adabiyotga oid ko'rsatmalar, o'zbek va jahon adabiyotshunosligida erishilgan ilmiy-nazariy natijalar metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiy-estetik ideal va adabiy-estetik ideal transformatsiyasi borasida maxsus tadqiqotlar olib borgan M.Danina, E.Barteneva, M.E.Muraveva, S.L.Frank, E.Gromov, I.S.Turgenev, O.Larmin,, B.Kristensen, I.A.Baranova, M.N.Lepyoshkina, A.V.Fedorov, N.Yastrebova, Yu.Nigmatullina, E.Karimov, U.Normatov, B.Qosimov, N.Karimov, U.Dolimov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev, D.Quronov, Sh.Rizayev, B.Karimov singari xorijlik va o'zbek olimlarining nazariy xulosalari va tadqiqotlari natijalariga tayanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Adabiyotshunoslikdagi adabiy-estetik ideal va adabiy-estetik ideal transformatsiyasi yuzasidan xulosalar;
- Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideal kategoriyalarining jizzaxlik ijodkorlar asarlari misolida o'zbek adabiyotida XIX–XX asrlar va Istiqlol davrida turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lib turganligi tadqiqi;
- Jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallar o'zbek xalqi adabiy-estetik ideallar ifodasi ekanligining ko'rsatilganligi;
- Jizzaxlik ijodkorlarning asarlaridagi Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallar kategoriyalarining sarchashmalari ulug' ajodlarimizning Vatan ozodligi, uning taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fuqarolarning vatanparvarlik, yosh avlodning ilmiy, ma'rifatli, ajdodlar merosiga vorislik, unga sodiqlik, kelajakka ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan insonlar bo'lishi kerak, degan ideallariga chambarchasligi tahlili;
- Jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallar o'zbek xalqining dunyo xalqlaridan kam emas, ular bilan barcha sohalarda

tengma-teng, hatto ustun jihatlarga egaligini ko'rsatish orqali xalqning ruhiyatini ko'tarish, kelajakka ishonchini orttirishga qaratilganligi tadqiqi;

- Mustaqillik davri ijodkorlarining asarlarida Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallarining talqinlari.

- **Ishning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, eng avvalo, ilk bor bir mavzu doirasida jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyalarining transformatsiyalanish jarayonlarining tadqiq etilganligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- adabiy-estetik ideal kategoriyalarining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib turishi yuzasidan chiqarilgan xulosalarda;

- adabiy-estetik ideal kategoriyalarining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib turishi transformatsiyalanish hodisasi ekanligi yuzasidan bildirilgan nazariy umumlashmalarda;

- adabiy-estetik ideallarning transformatsiyalanishiga sabab bo'lgan omillarning tahlil etilganligida;

- adabiyotshunoslikdagi muammo tadqiqiga oid dastlabki nazariy qarashlar tahlilga tortilganida;

- jizzaxlik ijodkorlar asarlari misolida o'zbek adabiyotidagi Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideal kategoriyalarining ilmiy o'rganilib, nazariy umumlashtirilganida;

- jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallarning o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ideallari bilan uzviylikining tadqiq qilinganida.

Shuningdek, XIX-XX asr davri va Istiqlol davri ijodkorlari asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyalaridagi o'ziga xosliklar va ular asosda chiqarilgan ilmiy-nazariy umumlashmalar ham tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishdagi adabiy-estetik ideal va uning transformatsiyalanish jarayonlariga oid umumlashmalar o'zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi kunga qadar bo'lgan

jarayonlarda Istiqlol bilan bog‘liq adabiy-estetik ideal ketegoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari va bunday jarayonlarga turtki bergan omillar yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lishi mumkin. Dissertatsion ishdan XIX-XX asr va Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarda, adabiyot tarixi va adabiyotshunoslik fanlari bo‘yicha maxsus kurs va seminarlarda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalariga o‘zbek adabiyoti tarixining XIX asrdan Istiqlol davrigacha bo‘lgan davrini o‘qitish bo‘yicha ma’ruza hamda amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanilmoqda.

Ishning sinovdan o‘tishi. Ish Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish uslubiyati kafedrasining 2013- yil dekabr va 2014- yil aprel oylarida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarida muhokama qilib himoyaga tavsiya qilingan. Mavzu yuzasidan “Ayol - ma’naviyat gulshani” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida (Jizzax shahri, 2013-2014-yil), professor Hamid Sulaymon nomidagi Respublika yosh manbashunos va matnshunoslarining ilmiy anjumani (Toshkent shahri, 23- dekabr, 2013-yil), O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 70 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan Yosh olimlar anjumani (Toshkent shahri, 25-dekabr, 2013-yil) va Yosh sharqshunoslarining akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XI ilmiy-amaliy konferensiyasida (Toshkent shahri, 2-aprel, 2014- yil) ma’ruzalar qilingan.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va natijalari e’lon qilingan jami 8 ta maqola hamda tezisda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 9 faslni o‘z ichiga olgan uchta asosiy bob, xulosa, 122 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 96 betni tashkil etadi.

I BOB. ADABIY-ESTETIK IDEAL KATEGORIYASINING TRANSFORMATSIYALANISH HODISASI VA XIX ASRNING SO'NGGI CHORAGI–XX ASRNING BOSHLARIDA JIZZAXLIK IJODKORLARNING ASARLARI

1.1.ADABIY-ESTETIK IDEAL VA TRANSFORMATSIYA HODISASI HAQIDA

Ideal (lotinchada idealis, grekchada ιδέα-obraz, ideya): 1) ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'noga ko'ra: a) biror narsaning eng oliy darajasi, biror ko'rinishning takomiliga yetgan darajasi, b) biror bir narsaning sifatini belgilash uchun olingan alohida bir qolip, me'yor ma'nolarini anglatadi. 2) qat'iy olingan etik va estetik mazmun va nazariy mazmunda: a) axloqning yuksak ma'nodagi tushunchasi, b) kishilar yoki jamiyatning yuksakligi; v) yuksak axloqqa ega bo'lgan shaxs tushunchasini bildiradi¹.

Kantning fikricha, ideal insoniyatning eng yuqori va mukammal darajaga erishgan ko'rinishi bo'lib, individ va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning chegarasi sanaladi. Individning ichida, uning ongida bu holat umumiylik va alohidalik, butunlik va bir bo'lak va hokazolar o'rtasidagi chegara sifatida tasvirlanadi.

Kantga qadar bu qarashlar nazariy asoslanmagan bo'lib, u tomonidan idealning falsafiy ta'rifi berilgan. Lekin Kantning bergan ta'rifi darajasiga erishish mumkin bo'lmagan hol yoki bunga erishish abadiyatga daxldor degan qarashlar ham bo'lgan. Kantning fikricha, idealni surat ko'rinishida tasvirlash yoki ko'rsatib berish mumkin emas. Uni faqat xayol qilish mumkin². Kant va Fixte kabi faylasuflarning fikriga ko'ra, ideal (individ) "inson sha'ni"ning axloqiy takomiliga erishish yo'lidagi eng so'nggi manzil, yuqori nuqta sanaladi³.

¹ <http://caute.ru>

² <http://caute.ru>

³ <http://caute.ru>

Shu tariqa ideal sifatida, postula va imperativ sifatida o‘z davri huquqi, o‘z davri ideal jamiyati nazariyasi ishlab chiqilgan. Fixte bu idealning umumiy teng huquqlikning ko‘rinishi sifatida “Men”ni o‘ylab topgan.

Estetik ideal – estetik bahoning yuksak talabi darajasi bo‘lib, ongli yoki ongsiz tarzda u yoki bu narsaning estetik ideali bilan qiyosini bildiradi. Estetik ideal – estetik munosabatlarning shunday turi bo‘lib, u bir tomondan estetik did, ikkinchi tomondan estetik qarash orasidagi kategoriyadir.

Idealning umumiy tushuncha sifatidagi tadqiq etilishi ko‘proq falsafaga oid. Idealning san’atdagi muammosiga XIX asrda e’tibor qaratila boshlangan. V.Belinskiy va N.Chernishevskiyilar san’at va real hayot, ideal va turmush o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishgan. Belinskiy yozadi: “Ideallar reallikda yashiringan bo‘ladi; ular fantaziyaning dabdurustdan chiqargan o‘yinlari emas, to‘qima ham emas, xayol ham emas, ayni damda ideal haqiqatni inkor qilmaydigan, aql bilan hal qilingan va fantaziya bilan o‘ylab topilgan u yoki bu narsaning mumkinlik ko‘rinishidir”¹.

Adabiyot va san’atda ideallik masalasiga bo‘lgan qiziqish o‘tgan asrning 60-80- yillarida kuchaygan. Bu boradagi ilk va ko‘lamli tadqiqotlardan biri N.Geya va V.Piskunovalarga tegishli. Ular bir necha tadqiqotlari orqali mazkur masalaning mohiyatini ochishga harakat qilganlar. Jumladan, ular: “Ba’zilar ideal voqelik o‘zi tomondan yaratiladi deb hisoblaydilar. Boshqalar esa ideallarning yaratuvchilari rassomlardir, degan fikrlarga moyildirlar”. V.Kovarin esa “Estetik idealni jamiyatning tarixiy harakatlari natijasida yuksak ma’naviy va har tomonlama rivojlangan jamiyatning shaxs xususidagi tarixiy tushunchasi sifatida gavdalantiradi”. Estetik ideal borliqni tasvirlashning xarakteriga ta’sir o‘tkazadi va ijobiy qahramon obrazida izohini topadi.

Shunday qilib, ideal kategoriyasi, shubhasiz, adabiyotga, ham daxldor. Zero, adabiyot va estetika bir-biriga yondosh bo‘lgan soha hisoblanadi. Ijodkor o‘z

¹ Александрова С.В. Проблема идеала в русской литературе, критике, публицистике первой половине XX века. Автореф. дис. д-ра филол. наук. –Москва, 2005. –С. 41.

estetik idealini asarlari orqali yoritadi. Asarida bayon etmoqchi bo'lgan g'oyalarini mazkur ideal so'zlari, xatti-harakatlari orqali bildiradi. Shubhasiz, turli davr va turli ijodkor tomonidan yaratilgan asarda ijodkor ideali turlicha bo'ladi. Ayni chog'da ijodkorning hissiy kechinmalari va davr ehtiyojlari bilan bog'liq tarzda ham adabiy-estetik ideal turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib turadi. Shu bois har bir ijodkor o'z idealini asar yozishdan maqsad-muddaosi, dunyoqarashi va davr talabi nuqtayi-nazaridan kelib chiqib turlicha tasvirlashi mumkin. Xullas, badiiy adabiyotda ideal obrazning ko'rinishlari qanday bo'lishi kerak, uning qanday atributlari bor, degan masala ham birinchi o'rinda turgan. Jumladan, "Studiya korotkoy proz" saytida e'lon qilingan maqolada qiziq bir o'ringa duch kelamiz. Maqolada: "Asarning ideal qahramoni – bu birinchidan erkak kishi bo'lishi kerak, ikkinchidan, yosh (qariyalar – zerikarli, bu Pushkinga ham maq'ul kelmagan). Uchinchidan, uylanmagan bo'lishi kerak. To'rtinchidan, hayotdagi qarama-qarshiliklarga bardosh bera oladigan bo'lishi kerak" deb yozilgan¹. "Top-10 romanov, dve glavniy geroy–Idealniy mujchina" maqolasida sanab o'tilgan romanlarning ideal qahramoni erkak kishi ekanligiga ahamiyat qaratilgan². Vl.A.Lukovaning farazlariga ko'ra, ideal qahramon, eng birinchi navbatda, o'zining yurish-turishi bilan ibrat namunasi. Buning uchun ijodkorlar mantiqiy, beqiyos, ideal xatti-harakatlar tizimini ishlab chiqqanlar³. A.Akopova har bir estetik idealning o'ziga xos tabiati bor deb hisoblaydi. Yana uningcha, biror bir ijodkorning estetik idealini bilish uchun uning butun ijod olamiga nazar solish kerak bo'ladi. Tadqiqotchi davom ettirib yozishicha, alohida asar yuzasidan xulosa chiqarish osonroq. Lekin bir nechta asar miqyosida bu masalaga yondashilganda ish ancha mushkullikni yuzaga keltiradi⁴.

Ideal yuzasidan yuqorida zikr etilgan fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, ularning barchasi har bir davr, har bir muallif, har bir xalq, har bir siyosiy

¹ <http://shortstory.zhurnal.ru/node/1622>

² <http://goprom.ru>

³ Лукова Вл.А. "Идеальный герой во французской драме в контексте европейского литературного процесса". <http://www.litdefrance.ru>

⁴ Акопова А. Эстетический идеал и природа образа. –Ереван, Гитутюн, 1994. –С. 87.

qarashlar bilan bog‘liq ideallar bo‘lib, u boshqa biri uchun etalon bo‘la olmaydi. Lekin baribir ideal muammosi barcha davr adabiy asarlari uchun muhim masala sanaladi. Yana shuni aytish mumkinki, adabiy-estetik ideal hamma davrlar adabiyoti uchun muhim bo‘lganligi bois, o‘sha davrning o‘z ideallari yaratilgan. Bu ideallar o‘z tashqi ko‘rinishi, xarakteri, jinsi kabi bir nechta jihatlarini o‘zgartirib turgan. Adabiyotshunoslikda biror obraz tashqi ko‘rinishining u yoki bu tarzda ana shunday o‘zgartirib tasvirlanish holati transformatsiyalanish deb ataladi.

Transformatsiyalanish so‘zi lotincha, “transformatio”, so‘zidan olingan bo‘lib, bir narsaning boshqa bir narsaga aylanishi, o‘zgarishi degan ma’nolarda qo‘llanadi. Transformatsiyalanish tushunchasi bir necha sohalarga daxldor. Xususan, A.A.Vladimirova va M.A.Trivasalarning “Ot magov drevnosti do illyuzionistov nashix dney”, S.M.Makarovning “Estrada v Rossii. XX vek” asarida, “Sirkovnoe iskusstvo v Rossii” nomli ensiklopediyada transformatsiya terminini bir lahzada boshqa kiyimda paydo bo‘lish, yuzidagi niqobni bir lahzada almashtirish, bir lahzada o‘z ko‘rinishini o‘zgartirish priyomi deb izohlanadi. Bu priyom ko‘proq sirk artistlari, ko‘zboylog‘ichlarga xos termin sifatida qo‘llangan¹.

Bu bilan birga transformatsiyalanishga xos jihatlar adabiyotshunoslik va unga yondosh bo‘lgan sohalar tomonidan ham tadqiq etilgan. A.Akopovanning yozishicha, tarixiy o‘zgarib borayotgan obraz tabiati o‘sha asar yaratilgan davrning dunyoqarashi va madaniy taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. Zamonaviy obraz tabiati tasviridagi o‘ziga xoslik turli xil uslublarning bir-biriga sintez qilinishidir. Hozirgi zamon adabiyotida obrazlar tasvirida shartlilik, ramziylik, fantastika va mif kabilar keng qo‘llanilmoqda, jiddiy transformatsiyaga uchramoqda².

M.E.Muravevaning xulosalaricha, ijtimoiy adolat va ozodlik ideallari antik adabiyot vakillaridan Platon va Aristotellarning asarlarida utopik va realistik ko‘rinishlarda uchraydi. Yangi davr adabiyotlarida bu tushunchaga tabiiy va inson ega bo‘lishi shart bo‘lgan huquqlar hamda ko‘proq hukumat shartnomalarida duch

¹ <http://magicpedia.ru>

² Акопова А. Эстетический идеал и природа образа. –Ереван, Гитутюн, 1994. –С. 160-161.

kelamiz. Muallif ozodlik va ijtimoiy tenglik ideallarining bu tarzda o'zgarib turishini transformatsiyalanish sifatida baholagan¹.

A.V.Fedorov G'arb kinosida Rossiyaning davlat sifatidagi bo'y-bastini tomoshabinlarga taqdim qilishdagi munosabatlarning o'zgarib turishini tadqiq etgan. Bu o'rinda ham Rossiya davlatining qiyofasi tasviridagi o'zgarib turishlar transformatsiyalanish deb talqin qilingan².

O.M.Murodov va E.A.Polyakovalar XI-XV asrlarda yomonlik va yaxshilik timsollari bo'lgan obrazlarning tasviridagi o'zgarishlar, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ana shunday timsollar tasvirining mazkur davrlar adabiyotlarida qay darajada o'zgarib turganligi xususida so'z yuritgan. Obraz tasviridagi bunday o'zgarib turishlar transformatsiya jarayoni deb atalgan³.

I.A.Baranova rus adabiyotida vrach obrazi tasviridagi o'zgarishlar xususida so'z yuritadi. Muallifning XIX asrga oid mazkur asarida o'quvchi vrach–bemorni davolovchi timsolida ko'proq cherkov xodimlari yoki kishilarni davolashdan ko'ra ko'proq kasallikka duchor qiladigan chalasavod tabiblarni ko'z oldiga keltiradi. XIX asrga kelib, Rossiyada chet eldan kelgan vrachlarning paydo bo'lishi bilan vrach – bemorlarni davolovchilar borasidagi tasavvurlar boshqa tusga kirdi. Bu obraz orqali ilm, taraqqiyot, insonlar hayotini saqlab qolish kabi mavzular targ'ib qilingan⁴.

M.N.Lepyoshkina XIX asrdan boshlab chop etila boshlagan reklama bannerlaridagi ayol obrazidagi ko'rinishlarning o'zgarib borishining tadqiqi bo'yicha: “Dastlab ayol obrazi tasviridan foydalanishda etalonga asoslanganlar. XX asrga kelib ayol obrazi sifatida tasvirlangan reklama tasvirlarida ayol – go'zallik va latofat timsoliga aylangan. Maqolada mazkur davr oralig'ida nashr

¹Муравьева М.Е. Трансформация гуманистических идеалов свободы и социальной справедливости в истории философской мысли. Автореф.. дисс.. на соискание ученой степени кандидата философских наук. Москва, 2005. –С. 5.

² Федоров А.В. Трансформации образа России на Западном экране: от эпохи идеологической конфронтации (1946–1991) до современного этапа (1992–2010). М.: Изд-во МОО «Информация для всех», 2010. -202 с.

³ Муродов О.М., Полякова Е.А.. Трансформация мифологических и легендарных образов в таджикско-персидских хрониках XI-XV вв. –Душанбе, 1986. –С. 3-7.

⁴ Баранова И.А. Литература и медицина: трансформация образа врача в русской литературе XIX века. // Вестник Самарской гуманитарной академии. Выпуск «Философия. Филология». 2010. -№ 2 (8) стр. 186.

qilingan ayol obrazi tasviri uchraydigan bir qancha reklama bannerlari keltirilgan. Keltirilgan bannerlarda ayol obrazi orqali ilm-fan, mehnat sohasidagi ilgʻorlik, turli xil parfyumeriya, kiyim-kechak mahsulotlari targʻib qilingan”¹.

“Transformatsiya ideyi transformatsiya obrazov” nomli maqolada nemis yozuvchilari Z.Lens va K.Volflarning ijodiga nazar tashlangan. Maqolada yozilishicha, bir vaqtlar biror asarda “debyut” boʻlib yangragan ideal – gʻoya, obraz uzoq vaqt sahnada koʻrinmay qoladi. Keyinroq esa boshqa bir ijodkor asarida paydo boʻladi. Bunga misol tariqasida Z.Lens ijodida 194-yildan keyingi Germaniyaning boʻlinishi va nemis xalqi hayotidagi tushkunlik damlari koʻp bor eslangan. 90-yillarga kelib ikki nemis davlatining qayta birlashishi yuz bergach, uning ijodida yuqorida qayd qilingan mavzular oʻz-oʻzidan yoʻqolgan².

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. Ideal biror narsaning eng oliy darajasi, biror koʻrinishning takomiliga yetgan darajasi, biror bir narsaning sifatini belgilash uchun olingan alohida bir qolip, meʼyor maʼnolarini anglatadi.

2. Estetik ideal insoniyatning eng yuqori darajaga erishgan koʻrinishi boʻlib, individ va jamiyat oʻrtasidagi qarama-qarshiliklarning chegarasi sanaladi. Individning ichida, uning ongida bu holat umumiylik va alohidalik, butunlik va bir boʻlak va hokazolar oʻrtasidagi chegara sifatida tasvirlanadi.

3. Adabiy ideal estetik idealning adabiyotdagi tajassumidir. Estetik idealning badiiy adabiyotdagi ifodasini turlicha tasvirlash mumkin. Bu narsa ijodkorning mayllari bilan bogʻliq. Ideal maʼlum maʼnoda ijodkorning oʻz istagi yoki maʼlum bir jamiyatning istaklari ifodasi boʻlishi ham mumkin.

4. Adabiy-estetik idealni yaratish uchun ijodkor koʻproq ijobiy xislatlarga urgʻu bersa, buning aksi boʻlgan salbiy xislatlar orqali ham oʻz idealining qiyofasi aslida qanday boʻlishi kerak degan savolga javob berib oʻtadi.

¹Лепёшкина М.Н. Трансформация образа женщины в рекламе. www.mavriz.ru

² <http://wunder.narod.ru>

5. Biror bir davr ideali bo'lgan obraz ma'lum bir muddatdan keyin o'z vazifasini o'tab, uning o'rniga boshqa bir ideal adabiyot maydonida paydo bo'lishi mumkin.

6. Ijodkorlar asarlariga salafлари asarlarining adabiy-estetik ideali yangi davr o'quvchisining didi, saviyasiga mos tarzda boshqacha ko'rinishda kirib kelishi mumkin. Bu holatda salaf ijodkor asaridagi idealning xarakteri, tashqi ko'rinishi, nutqidagi o'ziga xosliklar salaf ijodkor asariga juz'iy o'zgarish yoki qo'shimchalar orqali namoyon bo'ladi. Ana shunday holat adabiy-estetik ideal transformatsiyasi deb ataladi.

1.2. O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY-ESTETIK IDEAL YARATISHGA OID TADQIQOTLAR

Adabiy idealning o‘ziga xos ko‘rinishlarini yaratish tajribasiga o‘zbek adabiyoti namunalarida ham duch kelishimiz mumkin. Masalan, Alpomish o‘zbek xalqining xalq birligi, uning yakdilligi uchun kurashgan inson timsoli sifatida ideal obraz bo‘lib gavdalanadi. Unga abadiy hayot berilgan. U hech qachon o‘lmaydi. Bir paytlar matbuot orqali “Alpomish o‘ladimi?” degan munozarali maqola ham e‘lon qilingan edi, o‘sha maqola muallifi aytganidek, Alpomish o‘ladigan bo‘lsa, u ideal obraz bo‘la olmaydi va o‘zbek xalqi orzu-istaklarining ifodachisiga aylanmaydi. Xalq dahosining buyukligi ana shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Alpomish obrazi orqali ideal obrazning muhim atributi o‘lmaslik bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Lekin hamma davrlarda ham Alpomish obrazi xalqning birligi, uning ilhomchisi–ideali bo‘la olmasligi mumkin. Dostonning yaratilganligiga ming yil bo‘lgan. Xalqimiz tarixi ming yildan uzoq. Bu davrlar orlig‘ida xalqimiz boshidan turli to‘fonlar o‘tgan. Qora kunlar kechgan. Ana shunday kunlarda ijodkorlar Alpomish singari xalqni birlashtira oladigan, o‘z oldiga qo‘ygan yangi marralar sari boshlay oladigan o‘lmas qahramonni ko‘rishni istaydi. Bu hol esa yuqorida ko‘rsatilgan atributlarga yana qo‘shilgan yangi idealning kashf etishini talab qilinishini bildiradi.

Afrosiyob haqidagi turkiy xalqlarning tarixiy va badiiy asarlarida u “Turkiy xalqlarga xos bahodirlik, mardlik, donolik, zukkolik, davlatni adolat bilan boshqarish, turkiy qavmlarni birlashtirish siyosati Alp Er To‘nga – Afrosiyob obrazi yaratilgan asarlar g‘oyasida mujassamligidadir”¹. Lekin Eron xalqlari tomonidan yaratilgan asarlarda u qonxo‘r, zolim va dahshatli qilib tasvirlanadi².

Xalq idealini yaratish, uning transformatsiyalanish jarayonini biz turkiy xalqlarning birligi, yakdilligi, ularning yo‘lboshchisi, g‘alabalar sari

¹ Qarang: Абдурахмонов А. Туркий халқлар адабиёти. -Самарқанд: СамДУ, 2007. -Б.56-57.

² Хамидов Х. Узбекские переводы “Шах-наме” Фирдоуси: Автореф. дисс. .канд. филол. наук.–Т.:,1967–С. 9.

ilhomlantiruvchi obraz sifatida O'g'uzxon obrazini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, O'g'uzxon haqidagi tarixiy rivoyatlar turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotida islomdan oldin ham mavjud bo'lgan. Islom dini xalqimiz hayotiga kirib kelgandan keyin ham O'g'uzxon yuqorida qayd qilingan ideallarning ifodachisiga aylanib qolavergan. Lekin endi u islom diniga e'tiqodli bo'lgan hukmdor sifatida gavdalana boshlaydi¹.

N.Komilovning "Gurdofarid–N.G.Chernishevskiy idealidagi qahramon" nomli maqolasida: Ulug' munaqqid "Shohnoma" qahramonlaridan biri Gurdofarid haqida zavq-u shavqqa to'lib, bunday yozadi: "...Gurdofarid - sohibjamol qiz. Suhrob uni ko'rgan zahoti oshiq bo'lib qoladi. N.G.Chernishevskiy Firdavsiy qahramonlarini Shekspir dramalaridagi ayol obrazlari bilan qiyoslaydi: Gurdofarid chiroy va nazokati bilan Dezdemonadan ham, Julettadan ham qolishmaydi. Ammo Shekspir qahramonlarida Gurdofaridda bo'lgan bardamlik, yashnagan jismoniy yetuklik yo'q. Ularning go'zalligi aristokratik did va tushunchalarga mos keladigan, yarim so'lg'in, ichki hayotiy gurkurashdan mahrum sovuq musaffolikdir. Dezdemon va Julettaga kurashchanlik yetishmaydi. "Shekspirning o'zida ham Gurdofariddek yorqin siymoni ko'rmaymiz"².

Estetik ideal mavzusi, estetik idealning adabiyotdagi tasviri borasida X.Lutfiddinova "Estetik ideal yo'lida" nomli maqolasida estetik ideal yaratish tajribalari xususida so'z yuritgan. Estetik ideal yaratish uchun ijodkor o'zi yaratayotgan obrazning ideal darajada bo'lishi uchun qaysi jihatlarga e'tibor qaratishini aytadi. Uningcha, ijodkor o'zi yaratayotgan obrazning ideal darajada bo'lishi uchun hayotdagi eng yaxshi xislatlarni olishi xususida so'z yuritib, o'zbek adabiyotidagi estetik ideal yaratish tajribalari qay yo'sinda bo'lganligini bildiradi. Shundan keyin Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini tahlilga tortib, asardagi Zebi obrazi bo'yicha quyidagicha xulosalar bildirgan: "Kecha va kunduz"

¹ Абдурахмонов А. Туркий халқлар адабиёти. -Самарқанд: СамДУ, 2007. – Б. 56-57, 68-77.

² Комилов Н. Тафакур карвонлари. –Т.: Маънавият, 1999. –Б. 228-231.

romanining bosh qahramoni Zebi (Zebinisa)ni ham estetik ideal yo'lida yaratilgan obraz desa bo'ladi, - deydi.

Asarda Zebi shaxsiyati haqida unchalik ko'p ma'lumot berilmagan. U "endigina o'n beshga qadam qo'ygan", "qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar" qatnoviga qarab, uning ancha ko'zga yaqin qiz ekanini bilib olamiz. Zebining qo'ng'iroqdek tiniq ovozi ham bor. U - xalq qo'shiqlarining mohir ijrochisi. Uning barcha ishlari o'ziga yarashib tushadi: u hovli supuradi, kashta tikadi, qo'shiq aytadi, sho'xlik qiladi.

Zebi tengi qizlar bilan liq to'la arava joyidan qo'zg'alganda, qorong'i tushib qolgan edi. Ular dala yo'lga chiqishi bilan havoning avzoyi keskin o'zgaradi. Bu o'zgarish qizlarning kayfiyatiga ham ta'sir etadi. Ularni sho'xlikka, ko'ngil xushlikka chorlaydi. Qizlar Zebidan ashula aytib berishni so'rashadi. Zebi esa iymenib, ashula aytishga rozi bo'lmaydi. Shunda, qizlar o'zaro kelishib olib, o'zlari yor-yorni boshlab yuborishadi. Ashulaga beixtiyor Zebi ham qo'shiladi. Zebining qo'ng'iroqdek tiniq ovozi boshqa qizlarnikidan ajralib chiqa boshlaydi. Buni sezgan qizlar birin-ketin ashula aytishdan to'xtay boshlashadi. Endi tun qo'ynida yolg'iz Zebining ovozi tarala boshlaydi. Ashula ashulaga ulanib ketaveradi. Buni Zebining o'zi sezmaydi. Endi Zebini tortinchoqlik emas, qo'shiq, san'atning sehrli jozibasi boshqarayotgan edi"¹.

Shundan so'ng maqola muallifi Zebi obrazining yaratilishiga prototip sifatida Halima Nosirovaning olinganligini aytadi. Bizga ma'lumki, "Kecha va kunduz"da Zebining tashqi qiyofasi, go'zalligi borasida ko'p gapirilmagan. Uning boshdan oyoq portretini biror o'rinda ko'rmaymiz. Tadqiqotchi yozuvchining o'z asaridagi idealning go'zalligini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirish uchun uning ovoz xususiyatlarini esga olish bilan o'z maqsadiga erishgan deydi.

Muallif tasvirida ham, personajlarning baholarida ham Zebining tashqi qiyofasi haqida ma'lumot yo'q. "Buncha ehtiyotkorlik nima uchun zarur bo'lib qoldi ekan?" - degan qonuniy savol tug'iladi. Gap shundaki, Zebi ham, uning

¹ Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йўлида.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1994. № 3.. –Б. 39-40.

prototipi ham bir davrda yashayapti, yoshlari ham teng, san'ati ham bir xil... Shu sababli Zebining tashqi qiyofasini Halima Nosirovaga o'xshatib tasvirlash ham, o'xshatmasdan tasvirlash ham badiiy niyatning amalini qiyinlashtirib qo'yadi.

Portretning badiiy vazifasini ham ovoz fenomeniga yuklab, juda to'g'ri ish qilgan"¹.

Shunday qilib, tadqiqotchining xulosalariga tayanadigan bo'lsak, Zebining portretidan voz kechish-asarning badiiy qimmatini pasaytirmaydi. Aksincha, bu tadbir badiiy obraz bilan prototip faoliyatining uyg'unlashib borishiga xizmat qilgan. Bu muallifning badiiy niyatiga ham aynan mos keladi. Bundan yana shunday xulosa qilish mumkinki, ideal obrazni tasvirlab berish uchun uning bo'y-bastini to'liq chizib ko'rsatish ham shart emas. Tasvirlanayotgan obrazning birgina ijobiy xislatini qayd etib o'tish bilan ham uning tom ma'nodagi botiniy va zohiriy go'zalligini to'la namoyon qila olishi mumkin.

X.Lutfiddinova "Kumushbibi–estetik ideal namunasi" nomli maqolasida Abdulla Qodiriyning estetik ideal yaratish borasidagi tajribalarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. X.Lutfiddinova Qodiriyning Cho'lpondan farqli o'laroq o'z idealini yaratishda har bir detalga e'tibor berganligini ta'kidlaydi. "Asarning eng so'nggi sahifalarida siz sehrigar malakning hayot bilan mardona vidolashuvini kuzatab lol qotasiz. "- Ona... dada...- so'ngra, - begim, deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansimon ko'zini yumdi". Ko'rib turibsizki, malak deb atalmish bir fidoyi jonning taslim bo'lishi ham go'zaldan go'zal... Kumushbibining so'nggi shirin so'zi "begim" bilan muxtasarlandi. Kumush go'yo ko'kka uchdi... Minglab kitobxonlar mehrini qozongan bu oy yuksak-yuksaklardan turib go'zallik nurini tarataversin².

X.Lutfiddinovaning "Estetik ideal va hayotiy haqiqat" nomli maqolasida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi Ra'no obrazi tahlil qilingan. Munaqqidning e'tirof qilganidek, adib bu asardagi o'z idealining butun

¹ Ko'rsatilgan maqola. –B. 41.

² Лутфиддинова Х. Кумушбиби – эстетик идеал намунаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. -1994. -№ 4-5-6. –Б. 45.

bo'y-bastini nihoyatda o'zgacha qilib tasvirlaydi, uning bunday ko'rinishi boshqalar uchun namuna bo'lishini istaydi. Ra'no adibning Kumushidan ham latofatli. Eng muhim Kumush obrazida bo'lmagan jasurlik unda bor¹.

“XIX asr oxiri – XX asr boshlari musulmon sharqida ham shu kabi vaziyat yuzaga keldi. Bunda tarixiy sharoitni ham nazardan soqit qilmaslik kerak, albatta. Demak, tom ma'nodagi erkinlik, mukammallik, go'zallik borasidagi ijodiy tasavvur shu yo'nalishdagi estetik idealning yaralishiga turtki berdi. Binobarin, bu davrga kelib tarixiy sharoit o'zgargan, millat ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va madaniy inqirozni boshdan kechirayotgan edi. Taraqqiyotga erishmoq uchun millat hayotining barcha jabhalarini isloh etish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Jamiyat hayotidagi bu o'zgarishlar adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotini ijtimoiy voqelikdan ayri o'rganib bo'lmasligi sababi ham shunda”, deydi A.Davlatova².

Yana tadqiqotchining qayd qilishicha, yangi davr yangi ideallarni talab qildi. Yangi davrda millat fidoyilari bo'lgan ijodkorlar xalqni uyg'otish, oldinga boshlash uchun yangi ideallarni adabiyot maydoniga olib kirganlar. Bunga sabab: “XX asr boshlarida yangi adabiyot va yangicha adabiy qarashlar zahirida jadid adabiyotshunosligi maydonga keldi. Millat istiqboliga o'zini mas'ul sanagan har bir ijodkor avvalo, ijtimoiy foydali mavzuni tasvirlash tarafdori edi. Shu bois an'anaviy obrazlar tanqid qilindi. Ular Vatan (Avloniy, So'fizoda), maktab (Avloniy), millat (Tavallo, Ajziy) singari obrazlar bilan almasha bordi. Ijodkordan shu mavzularda yozish talab etildi. Lekin yangilik o'z-o'zidan bo'lgan emas. Mumtoz adabiyotni puxta bilgan jadidlar estetik qarashlari shakllanishida aynan, qadim Sharq va G'arb tafakkurining ta'siri beqiyos edi. Adabiyotshunos U.Jo'raqulov buni ta'kidlab, “yangi estetikaning shakllanishi tom ma'noda dialektik qonuniyat asosida bo'ldi”, deb yozadi³.

¹ Лутфиддинова Х. Эстетик идеал ва ҳаётий ҳақиқат // Ўзбек тили ва адабиёти. -1997. -№ 1. –Б. 21-24.

² Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол... фан. номз. автореф. –Т., -Б.8

³ Ko'rsatilgan manba, ko'rsatilgan maqola bet.

“Badiiy ijodda estetik ideal tasvirining bir necha shakllari mavjud. Ulardan eng asosiysi, idealning ma’lum bir aniq qiyofasini o’zida mujassam etgan ijobiy qahramon obrazini yaratish bilan bog’liq bo’lsa, yana biri esa, shu qahramonning tamoman aksi bo’lgan, muallif idealining antipodi tasviri orqali idealning muayyan qiyofasini ochishga qaratilgan shakldir. Bu o’rinda go’zallik, donolik, jismoniy mukammallik, ma’naviy butunlik, xunuklik, nodonlik kabi estetik kategoriyalar ham tasvirlanayotgan estetik idealning qirralarini kashf etishda yordam beradi”, deb yozadi A.R.Davlatova¹.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. O’zbek adabiyotida estetik idealning adabiyotdagi aksi namunalari qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va xalq og’zaki ijodi sarchashmalariga borib taqaladi. Turkiy xalqlarning birligi, kuch-qudratining timsolini ifodalovchi adabiy-estetik ideal – O’g’uzxon obrazi islomgacha bo’lgan davr manbalarda ham bo’lib, turkiy xalqlar orasida islom dinining yoyilishi bilan mazkur obrazning yangi diniy e’tiqodga mos tarzdagi tasvirlari ko’zga tashlanadi.

2. Qadimgi turkiy xalqlar yozma yodgorliklaridagi xalq ideali bo’lgan obrazlar keyingi davrlarda xarakteri, e’tiqodidagi biroz o’zgarishlar bilan tasvirlanishi adabiyotimiz tarixidagi adabiy-estetik idealning transformatsiyalanish jarayonlari uzoq tarixga egaligini ko’rsatadi.

3. Adabiy-estetik ideal yaratishda hamisha ham ideal obrazni boshdan oyoq farqli, o’ziga xos qilib tasvirlash shart emas. Ideal obrazning birgina jihatiga urg’u berishning o’zi ham uning idealligini belgilay olishi mumkin.

4. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi millatparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi g’oyalarning ta’sirida mumtoz adabiyotdagi ideallarning o’rniga mazkur g’oyalarni tarannum etuvchi yangi idealning olib chiqilish zaruratini namoyon qildi.

¹ Кўрсатилган манба, кўрсатилган бет.

1.3. XIX ASR SO‘NGGI - XX ASR BIRINCHI CHORAGI O‘ZBEK ADABIYOTI VA JIZZAX ADABIY MUHITI

XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi davr Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayotda alohida o‘rin tutadi. Bu davrda Turkiston Rossiya tomonidan harbiy kuch bilan bosib olindi¹. Natijada, birin-ketin sodir bo‘layotgan voqealar va ularning oqibatlari Turkistonning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va adabiy hayotiga ham katta ta’sir qila boshlaydi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari musulmon sharqida ham shu kabi vaziyat yuzaga keldi. Bunday tarixiy sharoitni nazardan soqit qilmaslik kerak, albatta. Demak, tom ma’nodagi erkinlik, mukammallik, go‘zallik borasidagi ijodiy tasavvur shu yo‘nalishdagi estetik idealning yaralishiga turtki berdi. Binobarin, bu davrga kelib tarixiy sharoit o‘zgargan, millat ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy va madaniy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Taraqqiyotga erishmoq uchun millat hayotining barcha jabhalarini isloh etish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Jamiyat hayotidagi bu o‘zgarishlar adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotini ijtimoiy voqlikdan ayri o‘rganib bo‘lmaslik sababi ham shunda. Xususan, Dilshod o‘z elining hayotini yaqindan kuzatar ekan, O‘ratepa xalqining Rossiyaga qo‘shib olingandan keyingi davr oldingidan ham battar yomonlashganligini aytadi. Istilo natijasida, xalq ikki tomonlama ezilishga mahkum etiladi. Shoiraning bunday holatlarga nisbatan munosabati “Umedi xalq bud az u ki dodxoh bud” deb boshlanadigan tojik tilidagi g‘azalida o‘z aksini topgan. G‘azaldan shoira rus qo‘shinlarining kelishini dastlab ijobiy qabul qilgan ko‘rinadi. Lekin ular olib borayotgan siyosat, talon-tarojlar buning aksini ko‘rsatgan. Bulardan Dilshod xalqning boshiga qora kunlar kelganini anglagan².

¹ Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. –Т.: Нур, 1992. –Б. 12.

² Жалолов А. XIX аср охири XX аср бoshларидаги ўзбек адабиёти. –Т.:Фан, 1991. –Б.13.

Dilshodning bunday fikrlari Anbar otinning she'riyatida ham aks-sado beradi. Jumladan, shoira "Qo'shulub mulki Farg'ona o'rusga bu saro bo'ldi"¹ misrasi bilan boshlanadigan she'rida ruslarning kelishi ijobiy baholanadi. Go'yo ularning kelishiga xalqqa yangiliklar, ilg'or fikrlarni olib kelgan idealdek qaraydi.

Shoira "Singiljon, hamsoya bo'lding, sirni pinhon etmagil" misrasi bilan boshlanadigan she'rida rus ayollaridan ko'p narsalarni o'rganish kerak, ular taraqqiy etgan millat degan fikrlarni ham ilgari suradi. O'zini rus xalqiga yaqin olishga intiladi. Uningcha, rus ayoli ma'rifat, taraqqiyot idealining ifodachisidir².

Bular bilan birga Furqat, Nozimaxonim kabi ijodkorlarning asarlarida ham shu kabi fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu degani o'sha davr adabiyoti tushunchasi rus madaniyatini targ'ib qilishga qaratilmagan. Bosqinchilarning olib borayotgan qonxo'rlarcha siyosatiga nisbatan xalq harakatlari bo'lib turgan. Lekin keltirilgan singari misralar Dilshod ijodini butunlay qamrab olgan deb bo'lmaydi. Jumladan, mustamlakachilarning zulmidan norozilik kayfiyatlari ham uning asarlarida ko'zga tashlanib turadi.

Ma'lumki, "Chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari juda ko'p bo'lgan. 1887-1898-yillarda Farg'ona, Samarqand, Hazarbo'yi, Sirdaryo, Yettisuv viloyatlarida jami 4922 marta katta-kichik g'alayonlar bo'lib o'tgan.

1873-1876-yillarda Po'latxon rahbarligidagi qo'zg'alonni tarixchilar E.Pugachev boshchiligidagi qo'zg'alonga qiyoslaydilar. Po'latxon Marg'ilon tumanidagi Uxiya qishlog'ida qirg'iz oilasida tug'ilgan.

Po'latxon Isoq Mulla Hasan o'g'li bosh bo'lgan qo'zg'alon butun Farg'ona vodiysini qamrab oldi. Qo'zg'alonda o'zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, qirg'izlar va qozoqlar ishtirok qildilar"³.

¹ Анбар отин. Шеърлар. –Т.:, 1970. –Б.. 23.

² Ko'rsatilgan nashr. –Б. 54.

³ Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. –Т.: Нур, 1992. –Б. 23.

Ayniqsa, Birinchi jahon urushi arafasida Turkistonda Chor hukumati zulmiga qarshi harakat yanada kuchayib ketgan. O'sha davrda yuz bergan harakatlar sirasiga Samarqand viloyatida bo'lib o'tgan Namoz Pirimqulov boshchiligidagi harakatni esga olish o'rinli. Namoz Pirimqulov boshchiligidagi harakatning aks-sadolari boshqa shaharlarda ham ko'ringan.

Ana shunday ijtimoiy holat jamiyatning yetakchi vakillari bo'lgan ijodkorlarning asarlarida aks ta'sirini bildirib turgan. Ularning asarlarida Vatan ozodligi, uning bosqinchilar oyog'i ostida toptalayotganligi bilan bog'liq adabiy-estetik ideallar namoyon bo'ladi. Bunday aks ta'sirlarni Dilshod "Ba mulki xishtan ahli zamon begona monandonad" misrasi bilan boshlanuvchi she'rida ham ko'ramiz¹.

Rus bosqinchilarining qonli fojialari Jizzaxda ham o'z izini qoldirgan. "Chor hukumati sharqiy chekka o'lkalardagi yerli aholidan 250 ming kishini, shu jumladan, Samarqand viloyatidan 38 ming kishini mardikorlikka olish kerakligi haqidagi farmoni va mansabdorlar va ruhoniylar amaldorlarning bu chaqiriqdan ozod qilinishi, boylarga o'z o'rinlariga boshqa odamlarni yollab yuborish imkoni berilganligi mehnatkash xalqning ularga bo'lgan nafratini nihoyatda kuchaytirdi", deb yozgan bu to'g'rida Sharof Rashidov².

I.Suvonqulov, shuningdek, "Jizzax muzofotining Yom, Yangiqo'rg'on, Rovot, Qoratosh, Sovruk, Bog'don, O'smat, Hatchamuquri, Sangzor singari joylarida 1916-yilda yuz bergan sotsial zulmga qarshi xalq harakati O'rta Osiyoning shu davrlarida hamma joylarida ko'tarilgan qo'zg'alonlar bilan hamnafas bo'ldi", deydi³. Yana shu muallifning bildirishicha, qo'zg'alonda ishtirok etib, osib o'ldirilgan Muhammad Hamro o'g'liga bag'ishlab xalq tomonidan to'qilgan marsiyada jizzaxliklarning Vatan ozodligi, ozodlik uchun kurashchilarning xarakteri, intilishlari qanday bo'lishi kerak, degan adabiy-estetik ideallarining turli qirralari zohir bo'ladi:

¹ Дилшод. Танларган асарлар. Тошкент, 1972. –Б. 208.

² Qarang: Сувонкулов И. Сангзор садолари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б.21.

³ Сувонкулов И. Сангзор садолари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б.21.

Eshitmagan bormikan,
Jizzaxliklar qahrini.
Amardorlarni urgan...
Muhammaddir oti,
Hamrodir oti zoti.
Qismatida bor ekan,
Afsus, yori dor ekan¹.

Penzadan maktub yozgan Mulla Azim:

Vatandoshlar firoqida hamisha g'am bila qayg'u,
Yiroq qolgan qarindosh aqrabodin bag'ri biryonmiz.
Bari mulki diyoridin judo bo'lgan musofirdur,
Vatan vayron bo'lgan kecha-kunduz jigar qonimiz².

deb yozadi va Vatanda yuz berayotgan bedodliklardan yurak-bag'ri qon bo'layotganligini aytadi. Bunday bedodliklarga chek qo'yish kerak. Buning uchun kurashmoq kerak, degan ozodlik bilan bog'liq estetik ideallarini izhor qiladi.

O'sha davr voqeliklari bilan bog'liq tarzda shakllangan bu singari adabiy-estetik idealga oid chizgilarni Alamkash, Muazzamxon kabi ijodkorlar asarlarida ham o'qishimiz mumkin. Masalan, Alamkash:

Bu falakni dastidan hargiz qarorim bo'lmadi,
Voh qarorim qayda bo'lgan, baxtiyorim bo'lmadi.

deb oh uradi³.

Albatta, mamlakatdagi bunday holatlarning yuzaga kelishida jamiyatning barcha vakillari mas'uldirlar. Alamkash o'z davri kishilarini ogohlikka chorlaydi. Atrofda bo'layotgan voqealardan xabardor qilishga intiladi. Jamiyatni ma'naviy soflikka, kamolotga chaqiradi. Tubanlik botqog'iga botgan, nafs quliga aylanib qolayotgan kishilarni qoralaydi. Uning bu singari qarashlari "Ey yoronlar, quloq soling bul so'zima" deb boshlanuvchi murabbasida aks etgan. Shoir mazkur she'rda xalqni aldab mol-u davlat orttirayotgan, ularning ishonchidan foydalanayotgan eshonlarga nisbatan malomat qiladi. Bu orqali kishilarni ana shunday fe'l-u atvordan xalos bo'lish, jamiyatni shu singari kishilardan poklashga chorlaydi:

¹ Ko'rsatilgan maqola. –B. 22.

² Yana shu manba. –B. 23.

³ Yana shu manba. –B. 24.

Ey yoronlar, quloq soling bul so‘zima,
 Ne sababdin eshonimdan kechdim mano?
 Ko‘kragida nafs shayton chorzarb urar,
 Ul sababdin eshonimdin kechdim mano...
 ...Eshonimni dastorlari yuz uch quloq,
 Nafsi shayton andin topar har dam rivoj,
 Muridiga har dam boqar misli Hujjoj,
 Ul sababdin eshonimdan kechdim mano...¹

Alamkash boshqa she‘rlarida ham o‘z adabiy-estetik ideali borasidagi qarashlarini bayon qilgan. Xususan, shoir ideal shaxs qanday bo‘lishi kerak degan savolga bir necha o‘rinda javob berishga harakat qiladi. Masalan, quyidagi qit‘ada:

Yor uldurki, yorning aybin,
 Misli oyina ro‘baro‘ desa,
 Naki orqasidan misoli tarog‘,
 Do‘st-u dushmanga mo‘-bamo‘ desa².

misralari orqali o‘z orzu qilgan ideal do‘stning portretini chizadi. Uningcha, haqiqiy do‘st, do‘stining aybini oyna singari ko‘z oldiga olib kela olishi, taroq singari do‘stining fe‘lidagi “chiginlar”ni yoza olishi kerak. Boshqa bir qit‘asida:

Olim uldurki, bilsunu qilsun,
 Neniki qilmay, jahon-jahon bilsun.
 Bu ikkida amal erur maqsud,
 Odam ulkim, amal bilan o‘lsun,
 Yaxshi ulkim, amal bilan bo‘lsun³.

deb yozadi. Shoirning bu qit‘asidan ideal jamiyat, undagi kishilar borasidagi adabiy-estetik qarashlarini kuzatishimiz mumkin.

Aytib o‘tganimizdek, 1916-yilda mardikorchilikka qarshi xalq noroziligi Jizzaxda ham yuz beradi. Natijada, ko‘plab shahar aholisi qilichdan o‘tkazilishi bilan birga, aholining bir qismi Uchtepa cho‘llariga surgun qilingan. Shoir Muazzamxon ham ana shu qonli kunlarda xalq bilan birga bo‘lgan. O‘sha qonli voqealar, xalq noroziligi, isyonlari, ozodlik uchun kurashlar, bu yo‘lda qurbon bo‘lganlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Ana shunday kunlarni boshidan o‘tkazgan

¹ Сувонкулов И. Сангзор садолари. –Т.: Адабийт ва санъат, 1979. –Б. 145.

² Yana shu asar. –Б. 148.

³ Yana shu asar. 149.

shoiraning iztiroblari “arz” radifli g‘azalida o‘z aksini topgan, deydi I.Suvonqulov¹.

Shoira ijodini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, uning asarlarida ko‘proq komil inson shaxsiyati tarbiyasi bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallari tarannum etilgan misralar ko‘proq ekanligi bilinadi. Jumladan, uning fikricha, inson kamolotga erishishi uchun o‘z nafsini boshqara olishi, unga bo‘ysunmasligi, qanoatda bo‘lishi kerak. Buning uchun komil insonlar – “yaxshilar” suhbatida bo‘lish, yomonlar – “ado‘lar”dan qochmoq kerak:

Ado‘lardan qochib uzlat uyin tutmasam bo‘lmaz,
O‘zimni yaxshilarning suhbatiga qoqmasam bo‘lmaz.
Bu nafsi sarkashning doim g‘alat yo‘llariga boshlaydur,
Qanoatdin yugon solib, jilovini tutmasam bo‘lmaz².

Shoiraning bunday adabiy-estetik g‘oyalarini “Qoch” radifli g‘azalida ham ko‘rishimiz mumkin:

Kel, ey ko‘nglim, o‘zingga maslahat qil, mosivodin qoch,
Sani ko‘lingni bog‘lar jahd etib hirsu havodin qoch³.

Uning ideal shaxs-komil inson borasidagi qarashlari boshqa o‘rinlarda ham davom ettirilgan. Jumladan, quyidagi g‘azalda shoira lirik qahramon “ko‘ngil”ga murojaat qilib, bu dunyoning o‘tkinchi ekanligi, undan ko‘plab “yaxshilar”-komil insonlar o‘tganligini aytadi. Ko‘ngilni ham “yaxshilar”dan o‘rnak olishga chorlaydi. Ular kabi komil inson odob doirasidan chiqmaslikka da’vat etadi. Nafsi havoyining istaklariga berilib ketmaslik zarurligini uqdiradi. Buning aksicha, o‘zini tarbiyalash, nafsiga “sayqal” berish kerakligini aytadi:

Ey ko‘ngil, g‘aflatda qolding, qichqirib o‘tti jars,
Keynidin elib yugurkim, qolmagil sen bir nafas.
Yukin bog‘lab yaxshilar ketti jahon ayvonidin,
Oxiri sen ham ketarsan dunyoni qilma havas.
Halqai parvonadek doiraga boshingni qo‘y,
Halqadin tashqari chiqmas o‘zni bilgan yaxshi kas⁴.

¹ Шоира Муаззамхон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 17.

² Шодиев Э. Шоираҳои тоинқилоби Хужанд. –Душанбе: Ирфон, 1986. –Б. 16.

³ Қодирова М. Шоира Муаззамхон. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 51.

⁴ Yana shu manba. –Б. 50.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

1. XIX asr so‘nggi choragi – XX asr birinchi choragi o‘zbek adabiyotida rus mustamlakachilarining kirib kelishi bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallar shakllangan.

2. XIX asr so‘nggi choragi – XX asr birinchi choragi o‘zbek adabiyotida rus madaniyati, rus xalqi madaniyati va taraqqiyotining ideali degan qarashlar ham paydo bo‘lgan. Shu bilan birga ularning bosqinchilik faoliyatini qoralovchi, ularga qarshi kurashga chorlovchi ozodlik ideallarining adabiy ideal darajasiga ko‘tarilganligini ko‘ramiz.

3. Mazkur davrda o‘zbek adabiyoti vakillari ijodida bo‘lgani kabi jizzaxlik ijodkorlar asarlarida ham ozodlik, istiqlol bilan bog‘liq estetik ideallar adabiyotga ko‘chgan.

4. XIX asr so‘nggi choragi – XX asr birinchi choragi jizzaxlik ijodkorlar asarlarida ozodlik, istiqlol bilan bog‘lik estetik ideallar bilan birgalikda komil inson ideali ham tarannum etilgan.

5. XIX asr so‘nggi choragi – XX asr birinchi choragi jizzaxlik ijodkorlarning komil inson bilan bog‘liq estetik ideallari mumtoz o‘zbek adabiyoti vakillari ideallari bilan mushtaraklikka ega. Ularda nafs tarbiyasiga bel bog‘lagan, o‘tkinchi dunyo tashvishlariga berilmagan, komillik darajasiga erishgan kishilar suhbatiga intiladigan, yomon xulq egasi bo‘lgan insonlar jamiyatidan qochadigan kabi sifatlarga ega lirik qahramon adabiy-estetik idealning belgilari sanalgan.

II BOB. XX ASR JIZZAXLIK IJODKORLAR ASARLARIDAGI ADABIY-ESTETIK IDEAL KATEGORIYASINING XUSUSIYATLARI

2.1. HAMID OLIMJON ASARLARIDA ADABIY-ESTETIK IDEAL KATEGORIYASI

Hamid Olimjon ijodiyoti hozirgi zamon o'zbek she'riyatining shakllanishi, yangicha tasvirlar, ohanglar va obrazlar tizimi bilan boyishida alohida ahamiyat kasb etadi. Hamid Olimjon o'zbek xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyoti, qardosh xalqlar adabiyoti, zamonaviy Sharq va G'arb she'riyatidan oziqlangan, ularni yaxshi bilgan. Uning she'riyati, shuningdek, o'z davri, yashayotgan muhit adabiyotidan ham ta'sirlangan. Shoir asarlarida qayd qilingan she'riyat izlarini turli shaklda ko'rishimiz mumkin. Ularda oshkora va yashirin fikrlar ko'p uchraydi. Shu bois Hamid Olimjon asarlarida adabiy-estetik ideal deganda ana shu jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda ijodkor asarlarida adabiy-estetik ideal kategoriyasi transformatsiyalanish hodisasining o'ziga xos ko'rinishlarini idrok etamiz.

Hamid Olimjon ijodi XX asrning birinchi yarmida - o'zbek adabiyotining eng murakkab tarixiy jarayonlarini boshidan kechirayotgan bir davrda o'sib ulg'aydi va kamoliga yetdi. Shu bois qayd qilganimizdek, uning maqola va badiiy asarlarida ana shu davr chizgilarni uchratishimiz mumkin. Shoir yashagan davr sho'rolar hukumatining ayni siyosiy qatag'onlarni avj oldirgan davri edi. Sho'ro hukumati yangi adabiyotni yaratish, bu boradagi qarashlarini tezroq joriy qilishga intilgan. Ijodkorlarga o'z siyosiy talablarini ham qo'ya boshlagan. N.Karimov Hamid Olimjon bilan bir davrda yashab ijod qilgan Usmon Nosir ijodi xususida so'z yuritib, uning davr talablari bilan yozilgan "Paxtakor" nomli adabiy montajining yaratilish sababini quyidagicha izohlaydi: O'tmish manzaralari tasviridan keyin o'qilgan bu monolog yosh tinglovchilarga ayniqsa manzur bo'lgan. Navqiron shoirning paxta uchun kurash mavzusida yozgan bu asari maorif rahbarlari tomonidan ham yaxshi qarshi olingan. Usmonjonning zamonaviy

mavzularda davrning siyosiy talablari bilan yozilgan bunday asarlari uning iste'dodiga bo'lgan rasmiy ishonch va umidni oshiradi"¹.

Usmon Nosir ijodiga xos bo'lgan jihatlar bevosita Hamid Olimjon asarlariga ham daxldor deb aytishimiz mumkin. Hamid Olimjon ijodida ham bu singari davrning siyosiy talablari bilan yuzaga kelgan she'r va maqolalar uchraydi. Xususan, shoir Mayakovskiy bilan bo'lgan uchrashuvidan keyin ijodida uning asarlari ta'siri sezila boshlagan. "1930-yilda Ped-akademiyaning Abramov bulvaridagi binosi bitmagan, shu vajdan akademiyaning yig'ilishlari bilim yurtining zalida o'tkazilar va bu zalda mafkuraviy kurashga bag'ishlangan yig'ilishlar tez-tez bo'lib turar edi. 1930-yilda bo'lib o'tgan shunday yig'ilishlarning birida partiya va hukumat rahbarlari ham qatnashdilar. Asosiy ma'ruzadan so'ng bir necha notiqlar chiqqach, yig'ilish yanada qizg'in tus oldi. Daf'atan yig'ilish raisi Hamid Olimjonga so'z berdi. G'ala-g'ovur tinib, minbardan otashqalb shoirning yoniq chehrasi ko'rindi. U zalni bafurja kuzatib, shoshmay-netmay, tabassum bilan so'zga og'iz juftladi. U odatda rasmiy yig'inlarda ham nutq so'zlamay, she'r o'qir edi. Bu safar ham shunday bo'ldi. U ana shu yig'in munosabati bilan yozilgan "Mudofaa kunlarida" she'rini o'qidi.

...Bu – Mayakovskiyning "So'l marsh"i ta'sirida yozilgan she'r", deb e'tirof etadi N.Karimov².

Uning ijodida davr siyosiy qarashlarining ta'sirini bir qator maqolalarida ham ko'ramiz. Masalan, "Millatchilik va aksilinqilobchilik bilan kurash va o'zbek proletar adabiyoti", "Fitratning adabiy ijodi haqida", O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasida so'zlangan nutq kabilarda to'g'ridan to'g'ri davr siyosiy talablarining ruhi sezilib turadi.

"Navoiy – o'zbek tilining yaratuvchisi" nomli maqolasida Firdavsiy, Shekspir, Balzak, Lev Tolstoy, Pushkin kabi ijodkorlarning asarlari jahon adabiyoti tarixida qay darajada o'rin tutsa, Alisher Navoiy asarlari ham ularnikidan

¹ Каримов Н. Усмон Носир. –Т.:Шарқ, 1993. –Б. 70.

² Каримов Н. Ҳамид Олимжон. –Т.: Ёш гвардим, 1979. –Б. 52.

kam emasligini bildiradi. O‘z navbatida Navoiy asarlarida ko‘tarilgan g‘oya maqsad-mohiyati, shaxs tarbiyasidagi umuminsoniy ahamiyatini belgilovchi bir nechta jihatlarini sanab o‘tadi¹.

“Navoiy va zamonamiz” maqolasida buyuk alloma kuylagan ideallar barcha zamonlar uchun o‘lmas ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan, “Adolat temasi umr bo‘yi buyuk mutafakkirning hamrohi bo‘lgan edi. Zo‘r dono kishining fikriga ko‘ra, xalq tinch va osoyishta yashamog‘i uchun, mamlakatni buzg‘unchilikdan, vayronlikdan qutqarmog‘i hamda har xil bema’ni urush va janjallardan xalos bo‘lmog‘i uchun dunyoda adolat hukmronligi yuzaga kelmog‘i lozim edi...”

Navoiyning fikriga ko‘ra, mamlakatni ilmdan, hikmatdan xabardor bo‘lgan, aqlli, dono bo‘lgan yo‘lboshchi, podsho idora qilmog‘i va uning shiori adolatparastlik bo‘lmog‘i kerak edi. Uning ko‘p asarlari – “Farhod va Shirin”, “Mahbub ul-qulub” va ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida bu problema asosiy o‘rinni oladi” deydi. Hamid Olimjon adolat borasidagi idealining ifodachisi “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi orqadi ideal hukmdor sifatida ko‘radi va aytganlarini shoirning dostonida tarannum etgan estetik ideal mag‘zini ifodalovchi:

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulni obod etar.

misralari orqali dalillaydi². Bu bilan Hamid Olimjonning Navoiy ijodi misolida o‘zbek adabiyotining asrlar davomida kuylangan ideallarini ko‘rsatib bergan; Navoiy adabiy-estetik ideallarini tahlil qilish orqali o‘z adabiy-estetik idellarining ham ularga hamohang ekanligini inkor qilmagan. Uning adabiy-estetik ideallari ko‘p asrlik turkiy xalqlar og‘zaki ijodi sarchashmalariga borib ulanishi, uzviyligini “Mardlik, muhabbat va do‘stlik dostoni” nomli maqolasidan bilishimiz mumkin. Maqolada “Alpomish” dostonining o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman kabi turkiy xalqlarning birligi va hamjihatlik borasidagi ideali ifodachisi ekanligini

¹ Ҳамид Олимжон. Асарлар мажмуаси. Бешинчи том. –Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972. –Б. 157.

² Ko‘rsatilgan asar.-B.227-236.

ta'kidlaydi. Bu bilan birga "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar ham ana shunday xarakterga ega ekanligini aytib o'tadi. Xususan, "Xalq doimo yaratadi. Xalq o'z boshidan eng qora kunlarni kechirib turgan vaqtda ham yaratadi – ijod qiladi...Xalq qahramonlar haqida, bahodirlar to'g'risida, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchilar haqida kuylar edi. Bu qo'shiqlardan esa haqiqiy epos maydonga kelar edi. Bu dostonlarda xalqning chin turmushi va kurashi o'nlarcha rasmiy tarixiy kitoblarga qaraganda real – rost ko'rsatadi", deb yozadi¹.

Shoirning ajdodlari asrlar davomida kuylagan sevgi-muhabbat borasidagi ideallarini "Zaynab va Omon" poemasi misolida ko'ramiz. "Zaynab va Omon" poemasi yangi sovet davrining "Farhod va Shirin"i edi", deb e'tirof etadi N.Karimov². Asar uchun o'sha davrda dongdor paxtakor sifatida tanilgan Zaynab Omonovanning taqdiri asos qilib olingan. Hamid Olimjon poema orqali sevgi borasidagi ideallarining zamonaviy talqinini taqdim qilgan:

Bu sevgida yo'l boshlar vafo,
Ham vafoni yemirmas jafo;
Bunda aslo qaro kun yo'qdir,
Bunda motamsaro kun yo'qdir.

Shoir bu misralar Zaynab va Omon sevgisi misolida sevgining eng yuksak ko'rinishi qanday bo'lmog'i kerak degan savollarga o'z ideallarini taqdim etish orqali javob bergan. Albatta, sevgining bu singari zavol bilmas bo'lishini barcha zamon qalam ahli ham, o'quvchilari ham istaydilar. Sevgining ideal ko'rinishda bo'lishi, bu boradagi ijodkorlarning qarashlari o'quvchi idrokiga tezroq ta'sir qilishi uchun adabiy qahramonning hayotdagi prototipi bo'lishi tajribasi adabiyotimiz tarixida ko'plab uchraydi. Sharq xalqlari adabiyotida mashhur "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayxo" qissasi bunga misol bo'la oladi.

"Layli va Majnun" ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning ildizlari VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Unga ko'ra Majnun tarixiy shaxs bo'lgan. Asl

¹ Ko'rsatilgan asar–B. 166-167.

² Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. –Тошкент: Фан, 1964. –Б. 91

nomi Qaysdir. Manbalarda zikr qilinishicha, Qaysning Layli degan qizga bo'lgan sevgisi arab qabilalari orasida mashhur bo'lgan¹.

“Yusuf va Zulayxo” qissalari “Qur’oni karim”dagi “Yusuf” surasiga asoslangan. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf alayhissalom qissasi ham zikr etilgan. Mazkur qissaning Sharq adabiyotiga ta’siri haqida qissa ibtidosida bunday yozilgan: ”Yusuf (a.s.) qissasi andin mashhurroqdurkim, ehtiyoj aning tafsilina bo’lg’ay, nevchunki g’arobati va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubturlar va bayonida sehrlar ko’rguzubturlar”². Mazkur ikki sevgi qissalari turli davr ijodkorlari tomonidan o’zlariga xos talqinlarini topgan.

Hamid Olimjonning “Zaynab va Omon” poemasini ham ana shunday qissalar sirasiga kiritish mumkin. Uning salaflari asaridan farqli jihati shundaki, ijodkor o’z zamondoshi hayot yo’lini poemasining asosi qilib olgan. Shu bilan birga unga zamon ruhi ham seziladi:

Dovonlarni oshdi amallar,
Yashashdagi churuk tamallar.
Asosidan bir-bir buzuldi,
Vodiy bo’ylab kolxoz tuzuldi,
Anor xola oilasi ham,
Kolxoz sari qo’ydilar qadam.

Garchi ijodkor poemada zamon ruhini aks ettirishga intilgan bo’lsa ham, uning markazida inson omili, uning ruhiyati, muallifning sevgi-muhabbat borasidagi ideallari o’z aksini topgan. Uning “Bolalik” she’ri davrning ideal kishisi qanday bo’lishi kerakligi borasidagi savollarga javob axtarishga harakat qiladi:

...Bola edik,
Tunlar – olov,
Qalb –qaynoq,
Ko’zlar – o’tkir,
Dillar – sof,

¹ Крачковский. И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейле в арабской литературе // Алишер Навои. Сб.статей. АН СССР, – М- Л.: 1946. – С. 31-67.

² Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. 10 томлик. 8-жилд. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2011. – Б. 553.

Erkin-erkin o‘ynardik...
 Hayot bilan
 Qaynar edi
 Kuy, qishloq.
 Bir yonda tog‘,
 Bir yonda bog‘...
 Suv sochardi...
 Gul ochardi...
 Keng ko‘chalar...
 Uzun yo‘llar...
 Porlar edi
 Sham-chiroq...¹

Yuqoridagi misralar orqali hayotning boshlanishi qanchalar sokin bo‘lsa, keyinchalik u o‘zgarib boradi deydi. Keyingi misralar hayotning jo‘shqinlashib borayotganligi, hayot yangi manzillarga boshlayotganligini yozadi. Bu, albatta, shunchaki lirik qahramonning ichki kechinmalari ifodasi emas. Unda ideal insonning, zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak bo‘lgan shaxsning bo‘yi-basti tasvirlangan. Shoir she‘rning so‘ngida ideal shaxs bo‘lish uchun har qanday holatni ham xursandchilik bilan yenga bilish kerak degan tezisni o‘rtaga tashlaydi:

Bir nafas jim qolaman,
 Lekin, yana
 Shovqinlarga
 Quloch yozib boraman.
 To‘lqinlarda
 O‘ynab, qaynab,
 Chappar urib
 Kulaman².

“Siyob” va “Baxtlar vodiysi” she‘rlarida ham shoir ijodiga bosilgan davrning tamg‘alari seziladi. Garchi Hamid Olimjon yurtining obod bo‘layotgani, bundan ham obod bo‘lishini orzu qilsa ham, bu istak-ideallarni tuzum g‘oyalariga yo‘g‘irib berishga majbur edi. “Siyob” she‘rining bir bandida:

Biz shod, quvnoq
 Siyob sari oqamiz,
 Har tomonga

¹ Ҳамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. -Б. 18.

² Ҳамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. -Б. 20.

Sevinch bilan boqamiz
 Bir yonda:
 Yoyilgan
 Qo‘ylar qo‘zilar,
 Kezadi,
 desa, boshqa o‘rnida:
 Dov balandda,
 Ulug‘ go‘rda
 Bir payg‘ambar cho‘zilgan,
 Yangi nasl
 Uni ortiq
 Nafrat bilan ko‘radi...¹

“Baxtlar vodiysi” she’rida atrofning ko‘m-ko‘k ekanligi, gullab yashnayotganligi tarannum etiladi. She’r nihoyasida bu ko‘klikda yashayotgan xalqqa “Ey, baxtli vodiyning bolsheviklari!” deya xitob qiladi.

Baxt bilan bog‘liq ideali, eng oliy darajadagi baxtli insonning belgisi qandayligi uning “Baxt to‘g‘risida” she’rida o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi:

Har kim bir “noni nasiba”-
 Parrandalar o‘z haqqin tilar,
 Ko‘pni ko‘rgan qari dunyoda
 Baxt axtarib ko‘plar o‘tdilar.
 deydi Hamid Olimjon. Yana davom ettirib aytishicha:
 Baxt topilmas hech bir zamonda,
 El qul bo‘lsa, bo‘lsa yalang‘och,
 Jannatlarni yaratgan odam
 Natijada o‘zi qolsa och².

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. Shoirning sovetlar tuzumi ideallari targ‘ibiga bag‘ishlangan bir qator maqolalari davr siyosiy talablari bilan yuzaga kelgan. Bunday she’rlarga yuzaki qarashlar asosida baho berish mumkin emas.

2. Hamid Olimjon she’riyatida ham davr siyosiy talablari bilan yaratilgan o‘rinlar uchraydi. Bir qator maqolalarida mumtoz adabiyot an‘analari, tarixiy

¹ Хамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. -Б. 22-24.

² Ko‘rsatilgan asar–Б. 88.

mavzularda asarlar yozuvchi ijodkorlarni tanqid qilsa-da, Navoiy asarlari, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining tahlillari asosida o‘z adabiy-estetik ideallarining ular bilan uzviyligini e‘tirof etgan.

3. Hamid Olimjon maqola va she‘rlari tahlili u o‘zbek xalqining yuksak orzulari, ideallaridan chekinmaganligi, ularni yangi ko‘rinishlarda taqdim etganligini ko‘rsatadi.

4. Hamid Olimjonning Vatan, ozodlik, adolat, baxt tushunchalari bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallarining sarchashmalari o‘zbek xalq og‘zaki va yozma adabiyoti sarchashmalariga borib ulanadi.

2.2. SHAROF RASHIDOVNING PUBLITSISTIK VA NASRIY ASARLARIDA ADABIY-ESTETIK IDEAL

XX asrning ikkinchi yarmidan asr soʻngigacha boʻlgan vaqt oraligʻi sovetlar hukumati siyosatining kuchaygan va dunyoda hukmronlik mavqeiga ega boʻlgan davri hisoblanadi. Bu davrda mazkur hukumat oʻz mavqeini mustahkamlash va taʼsirini oshirish uchun mamlakat ichkarisida xalqni qoʻrquv va sarosimada saqlab turish uchun koʻp bor siyosiy qatagʻonlar olib borgan. Turli ayblovlar bilan xalqning ziyoli vakillarini mahv qilish siyosatini qoʻllagan. Oʻz-oʻzidan bunday siyosat targʻiboti va siyosiy tizim ideallarini xalq ongiga singdirish maqsadida adabiyot sohasi ham isloh qilishga harakat qilingan. Yangi siyosiy tuzum targʻibotchilari oʻz tuzumlari targʻiboti uchun koʻp ming yillik adabiy anʼanalarga ega xalqlar adabiyoti, ularning ezgu ideallarini “eskilik sarqiti”, ana shunday adabiyot asarlariga murojaat qiluvchilarni “aksilinqilobchi unsurlar” sifatida qatagʻon qildilar. Mumtoz adabiyotimiz namunalari turli xil qisqartirish va notoʻgʻri talqinlar bilan kitobxonlarga taqdim qilindi. Tarixiy mavzularga murojaat qilish, oʻtmish meros borasida soʻz yuritish taʼqiqlandi. Ajdodlarimiz qoldirgan asarlardan faqat yangi tuzum siyosatiga mos keladigan oʻrinlar qidirildi. Zoʻrma-zoʻraki tarzda ana shunday oʻrinlar borligini ilmiy isbotlashga oid tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Bunday siyosat XX asrning 30-yillari va Ikkinchi jahon urushidan keyingi 50-yillarda ham bir necha bor oʻtkazilganligi hozirgi kunda koʻpchilikka yaxshi maʼlum. XX asr oʻzbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Sharof Rashidov ham ana shu davrda yashab ijod qilgan. Sharof Rashidov asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlarini kuzatish, uning oʻzbek xalqining oddiy vakili, ham ijodkor, ham uzoq vaqt respublikaning birinchi rahbari sifatidagi qarashlari yuzasidan xulosalar chiqarishda muhim. Zotan, uning publitsist, nosir va shoir sifatida yaratgan asarlarining koʻpi yuz berayotgan jarayonlarga munosabat va ular zamiridagi orzu-istaklarining ifodasi sifatida bunyod boʻlgan.

Sharof Rashidov ijodining kattagina qismini adabiy-publitsistik maqolalar tashkil qiladi. Oldingi bobda ham qayd qilib o'tganimizdek, sovetlar davrida yashab ijod qilgan qalam ahli asarlari orasida davrning siyosiy talablariga ko'ra yaratilganlarini ham uchratamiz. Bunday jihatlarni Sharof Rashidov ijodida ham ko'rishimiz mumkin. O'ral Nosirov Sharof Rashidov publitsistikasi xususida so'z yuritib, ularda davr ruhining aks etganligini e'tirof etib: "Avvalo, u davr farzandi edi. Davr uning dunyoqarashini shakllantirib, kamol toptirdi. Partiyaviy intizom, siyosiy mas'ullik publitsistikasining mag'iz-mag'iziga singib ketmasligi mumkin emasdi", degan fikrni bildiradi. Munaqqid yana fikrini davom ettirib: "Ayni paytda har bir maqolada xalqni yangi zafarlarga chorlash, ilhomlantirish, ezgulikka undash, ehtirosli partiyaviylik va baynalmilallik, nazariy-amaliy talqin, badiiy ta'sirchanlik xususiyatlari ravshan sezilib turadi. Yana bir holatni qayd etishga to'g'ri keladiki, Sharof Rashidov qaysi mavzuga murojaat etmasin, albatta, uning o'tmishi bilan bugunini qiyoslaydi, kelajagiga optimistik ruh bilan yondashadi. Va yana har bir voqea, ya'nikim muammo xususida fikr yuritganda o'z qarashini nazariy asoslashga intiladi, fanning tajribalariga tayanadi" kabi xulosalarini yozadi¹. O'.Nosirov to'g'ri qayd qilgani kabi, bu jihatlarni Sharof Rashidov publitsistikasidan ko'plab topish mumkin. Xususan, uning bir qator maqolalarida davr siyosiy maslaklariga mos mulohazalar bayon qilingan. "Inqilobning otashin kuychisi" nomli maqolasida Hamza ijodiyotini sovet siyosiy ideallarining tolmas targ'ibotchisi sifatida ta'riflaydi: "Hamzaning nomi bugungi kunda bizning chinakam iftixorimizdir. Uning ilhombaxsh ijodi ko'p millatli sovet adabiyotining ma'naviy xazinalaridan munosib va sharaflı o'rin olganidir... Hamzaning ilk she'rlari matbuot sahifalarida 1905-yilda, Rossiyada inqilobiy harakat keskin sur'atda ko'tarilgan bir paytda paydo bo'lganligini ehtimol ajab bir tasodifga yo'yish ham mumkindir. Lekin uning o'z jonajon xalqi manfaatlari, demokratiya, ozodlik va gumanizm, sotsial adolat va milliy taraqqiyot manfaatlari yo'lidan

¹ Носиров Ў. Шароф Рашидов – давр фарзанди. –Т.: Фан, 1992. -Б. 107-109.

borib, revolyutsiyaga, Leninga, kommunistlar partiyasiga kelgani va qat'iy shu yo'lni tanlagani aslo tasodifiy emasdir. Xalqning taqdiri, uning erkin va baxt-saodati haqida o'ylagan va shu yo'lda harakat qilgan kishi uchun bu tabiiy va qonuniy edi.

Mana shunday olijanob ideallar Hamzaning ulug' rus xalqi, uning ilg'or revolyutsion madaniyatiga munosabatini belgilab beradi va undagi teran internatsionalizmni shakllantiradi"¹.

Istiqloldan keyingi tadqiqotlarda Hamza ijodi to'raligicha sovetlar siyosatiga bag'ishlanmaganligi, uning asarlaridagi ko'pgina o'rinlar keyinchalik siyosiy maqsadlarga moslashtirish uchun tahrir qilinganligi yuzasidan dalillar keltirilgan². Shubhasiz, Hamza ijodiyoti xususida so'z yuritayotgan tadqiqotchi uning shaxsiyati va asarlarini yaxshi bilmay, ular yuzasidan sirtidan turib baho berishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Albatta, Sharof Rashidov Hamzaning hozirgi kunda ko'pchilikka ma'lum bo'lgan taqdiri, e'tiqodi va asarlarining asl manbalari bilan tanish bo'lgan holda o'z fikrlarini bayon qilgan. O'z navbatida bildirayotgan fikrlari yuzasidan mas'uliyatni his qilgan holda Hamza singari ijodkorlarni ana shunday yo'l bilan himoya qilgan. Davrning qiyin to'siqlaridan ijodkorlarning asrab-avaylab olib o'tish, ularni saqlab qolishga qaratilgan bunday sa'yi-harakatlarni to'g'ri tushunmagan ba'zi bir uzoqni ko'ra olmaydigan "tanqidchilar" tomonidan malomat toshlari bilan ko'mib tashlandi³.

"Sotsialistik realizmning qudratli manbalari" nomli maqolasida esa "Sotsialistik realizm bizning kunlarimizda adabiyot va san'atning ilg'or metodi sifatida shuhrat qozonmoqda va barcha qit'alarda yangidan-yangi ijodkorlarni o'ziga jalb etmoqda. Hozirgi zamon sharoitida u oliyjanob insonparvarlik g'oyalarining chinakam bayroqdori bo'lib qoldi. Sotsialistik realizm san'atkorlari milliy madaniyatlarning eng yaxshi, ilg'or kuchlarini tashkil etadilar va o'z

¹ Шароф Рашидов. Асарлар. Тўртинчи жилд. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1982. –Б. 272-272.

² Bu to'g'rida qarang: Амонов Ш.Н. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи. Филол. фан. номз. Дисс. –Т., 2010. 132-б.

³ Bu to'g'rida qarang: Рашидов А. Акам ҳақида. –Т.: Фан, 1992. –36 б.

ijodlarida haqiqiy internatsionalist, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlik tarafdorlari kabi ko'rinadilar. Sotsializm mamlakatlarida ular xalqlarning vijdoni, uning mehnati va kurashi sahifalarini belgilovchi solnomachilari kabi harakat qiladilar", deb¹ yozgan bo'lsa, "Unutilmas siymo" maqolasida Hamid Olimjon chin ma'nodagi vatanparvar shoirligi qayd qilingan: "Uning she'riy asarlari go'zal Vatanimizga cheksiz muhabbat hislari bilan to'lib toshgandir. Gullab yashnayotgan O'zbekiston voqeligi, ishchilar, dehqonlar, ziyolilarning yaratuvchi mehnati – shoir ijodiyotining asosiysi shulardir" deydi². Bu orqali boshqa ijodkorlarni ham Hamid Olimjon singari O'zbekistonni kuylashga chorlagan.

"Badiiy publitsistika" maqolasida sovet davrida badiiy pubitsistikaning naqadar ahamiyatga ega ekanligi aytilib: Publitsistik janrlar, publitsistik pafos revolyutsiyaning birinchi yillaridanoq barcha ko'zga ko'ringan o'zbek adiblarining ijodida kuchli badiiy mavqega ega bo'ldi. Ularning she'riyat, nasr, dramaturgiya sohasida yaratgan asarlarida yorqin ifodalangan publitsistik tendensiyalarni kuzatishimiz mumkin. Bu asarlarga ichki publitsistik pafos xos bo'lganligini ko'ramiz. Bu jihatdan, ayniqsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda singari adiblarning asarlari ajralib turadi", deydi. Ayni chog'da maqolada ijodkorlarning tahlilga tortilgan asarlarida ko'proq vatanparvarlik g'oyalari yetakchilik qilganligi ham e'tiborli. Sharof Rashidov yuqorida nomlari zikr qilingan ijodkorlarning izidan "Shu ma'noda Turob To'la, Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Pirimqul Qodirov singari ijodkorlarning asarlari, adabiyotda faollik bilan ishlayotgan bir guruh yosh adabiyotchilarning, shu jumladan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Raim Farhodiy, Halima Xudoyberdiyeva, Gulchehra Jo'rayeva, E'tibor Oxunova... kabi yosh adabiyotchilarning she'r va dostonlari yuksak bahoga sazovor"ligini e'tirof etadi³.

Sharof Rashidovning milliy adabiy-estetik ideallarga munosabati, ularni saqlab, sayqallashga doir qarashlari "Drujba narodov" jurnali muxbiri savollariga

¹ Шароф Рашидов. Асарлар. Тўртинчи жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. -Б. 171.

² Ko'rsatilgan asar.- B. 36.

³ Yana yuqorida ko'rsatilgan asar.-B. 34-35.

bergan javoblarida diqqatga sazovor tarzda ifodalangan. Chunonchi, muxbir, “Sharof Rashidovich, siz o‘z javoblaringizda internatsionalizm mazmunini ko‘tarishning eng muhim sharti adabiyotda milliy xarakterlar yaratishdir, deb aytdingiz. San’atda milliylik bilan internatsionalizmning munosabati haqida nimalar deysiz?”, degan savoliga: “-Biz ba’zan “milliylik” va “internatsionalizm” deganda xuddi bu narsalarni bir-biriga qarshi qo‘yayotgandek bo‘lamiz. Aslini olganda, ularni bir-biridan aslo ajratib bo‘lmaydi. Ajratib qarashning ma’nosi yo‘q hisob. Agarda millatlar bo‘lmaganda edi, internatsional birlikka intilish vujudga kelmasdi, qardosh xalqlar adabiyotida milliy o‘ziga xosliklar ham tug‘ilmas va shu bilan barobar o‘zaro ta’sirlar haqidagi gaplar ham paydo bo‘lmasdi”,- degan javobni bergan¹.

Agar berilgan javobning zamiriga nazar tashlanadigan bo‘lsa, unda milliy xarakter yaratish asosida milliy ideallarning ifoda etilishiga e’tibor berilganligi bilinadi. Bu orqali Sharof Rashidov o‘z xalqi ideallariga sodiqligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan birga har bir ijodkor o‘zi mansub bo‘lgan xalq ideallarining ifodachisi ekanligini qator misollar bilan dalillaydi.

Sharof Rashidovning prozaik asarlarining asosiy qismi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda bunyodga kelgan. Bu davr qonli urushlardan chiqib qaytadan tinch hayotga qaytayotgan va bunyodkorlik ishlariga kirishayotgan xalqning ruhiyatini tasvirlash, uni ko‘tarishga qaratilgan bir qator asarlar yaratilgan. Adibning prozada yaratgan asarlari uning bu sohadagi ijodiy qudratini namoyish qilish bilan birga ularda kuylangan adabiy-estetik ideallarning mazmun-mohiyati, asl o‘zligini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Urushdan keyingi davrda bir qator o‘zbek adiblari tomonidan yakuniga yetkazilgan asarlari o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Bular jumlasiga Abdulla Qahhorning “Oltin yulduz” povesti, “Qo‘shchinor chiroqlari, “O‘qituvchi” romanlari, Oybekning “Oltin vodiya shabadalar”, Ibrohim Rahimning “Hayot buloqlari” va “Ixlos” romanlari, Said Ahmadning “Ufq” romani, Hamid G‘ulomning “Olmos qiz”

¹ Yana shu asar. –B. 340.

povesti, Asqad Muxtorning “Daryolar tutashgan joyda” povesti, “Qanot juft bo‘ladi” hikoyasi, Saida Zunnovaning “Rashk” singari hikoyalarini kiritish mumkin.

Urushdan keyingi tinch qurilish davrida proza o‘zbek adabiyotining yetakchi janrlaridan biriga aylandi. O‘zbek yozuvchilarining nasriy asarlarida xalq hayotining davr bilan bog‘liq kechinmalari yoritildi. Ularda o‘zbek xalqining bunyodkorlik ishlari bilan birga, sevgi-muhabbat, turmushda yuz beradigan turli xil past-u balandliklarning inson ruhiyatiga ta’siri kabi rang-barang mavzular ko‘tarildi.

Bu davrda bunyodga kelgan asarlari sirasiga Sharof Rashidovning “G‘oliblar” romanini kiritish mumkin. Roman adib ijodida o‘zbek xalqining yaratuvchanlik, bunyodkorlik, qiyinchiliklarga bo‘yin egmaslik bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallarining takomillashib borish jarayonlarini kuzatishda e’tiborli. Asarning yaratilishi, roman holiga kelish tarixi ham diqqatga molik. Xususan, muallif “1947-yilda O‘zbekiston KP Samarqand oblast Komitetining sekretari bo‘lib ishlab yurgan kezarimda, Oliy Sovet deputatligiga kandidat qilib ko‘rsatilishim munosabati bilan saylovchilar bilan uchrashganimda ayrim kolxozlarda buloqlarning ko‘zini ochib, tog‘ etaklaridagi qaqroq yerlarni shu buloq suvlari bilan sug‘orayotganliklari haqida menga so‘zlab berishgan edi. Ularning bu haqidagi hikoyalari meni hayajonga soldi va men o‘zimning ilk qissamni shu mavzuda yozishga ahd qildim”¹.

“G‘oliblar” dastlab povest shaklida 1953-yilda chop qilingan. Naim Karimov “Sharof Rashidovning “G‘oliblar” povesti (1953) o‘zining hayotiy materiallari bilan - u ham urushdan so‘nggi qishloq kishilari hayotidan olingan – “Oltin vodiya shabadalar” romaniga yaqin. “G‘oliblar” povestining markaziy qahramoni – yosh agronom, qishloq sovetining raisi Oyqiz obrazi esa ma’lum darajada Oybek qalamiga mansub bo‘lgan Komila obrazining rivoji sifatida

¹ Qarang: Носиров Ў. Шароф Рашидов – давр фарзанди. –Т.: Фан, 1992. -Б. 26..

namoyon bo‘ladi”, deb yozadi¹. Naim Karimov yana davom etib yozishicha, “Oyqiz ma’lum ma’noda “Oltin vodiya shabadalar” romanidagi Komila obrazining davomi bo‘lganidek, Olimjon ham, O‘ktam singari Ulug‘ Vatan urushining qonli jangohlarida sinovdan o‘tgan, partiya va xalq manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yuvchi, partiyaning har bir chaqirig‘iga birinchilardan bo‘lib chiquvchi kommunist, faol inson. U o‘z brigadasi bilan qattiq qiyinchiliklarni yengib, Ko‘kbuloq ko‘zini ochadi, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, paxta dalalarini kengaytirish ishida mislsiz jonbozlik ko‘rsatadi.

Yozuvchi Oyqiz va Olimjonni faqat ijtimoiy planda ko‘rsatibgina qolmay, balki ularning ruhiy olamini ochishga ham katta e’tibor bergan. Bu ikki yor faqat mehnatsevarligi, fidoyiligi bilan emas, bir-biriga samimiy hurmati, muhabbati bilan ham maftun etadi”².

Lekin asarning ayrim kamchiliklari, rivojlantirilishi, takomiliga yetkazilishi lozim bo‘lgan o‘rinlari ham bo‘lgan. Shu bois muallif uning qayta ishlashga qaror qilgan. Shu bois “G‘oliblar” nomli povestimda ham qoloq va uzoqni ko‘ra olmaydigan kolxoz raisi Qodirov bilan ilg‘or kishilar – Oyqiz va Olimjon o‘rtasidagi konflikt povestning oxirida xiralangan, fikrlar kurashi juda bo‘shashtirib yuborilgan”ligini e’tirof qilgan³.

Adib 1965-1969-yillarda asar ustida ishlab, uni 1972-yilda o‘quvchilarga taqdim qildi. Yigirma yetti bobdan iborat povest varianti qirq bir bobga yetkazilgan. Unda voqealar qamrovi oldingisidan oshgan. Konflikt, qahramonlar ruhiy holatlarining tasviri, ko‘tarilgan masalalar ko‘lami ham kengaygan. Eng asosiysi, asarda muallifning o‘zbek xalqi taraqqiyotga dadillik bilan intilishi, eski fikrlar bilan qotib qolish dunyo xalqlaridan orqada qolishi demakdir, degan idellarini yorqinroq ifodalash imkonini bergan. Uning bunday ideallari zaminida XX asr boshlaridagi jadidchi, ma’rifatparvarlarning adabiy-estetik ideallari bilan

¹ Каримов Н. Урушдан кейинги давр ўзбек адабиёти. –Тошкент: Фан, 1982. –Б. 36.

² Ko‘rsatilgan asar. –Б. 40.

³ Qarang: ko‘rsatilgan asar, ko‘rsatilgan bet.

uzviyligi ko‘rinadi. Shuningdek, qaqragan yerlarga suv chiqarib obod qilish bilan bog‘liq ideallar Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni g‘oyalarining davomi sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

“Kashmir qo‘shig‘i” qissasi adibning badiiy tafakkuri qudrati, o‘ylari, ideallarining o‘ziga xos tarzda ifodalay olish mahoratini ko‘rsatuvchi asardir. Unda muallif o‘zi kuylamoqchi bo‘lgan ezgulik ideallarini Kashmir xalqlari orasida mashhur bo‘lgan doston asosida taqdim etadi. Uning ezgulik timsollari bo‘lgan qahramonlari gullar malikasi Nargiz va asalarilar shohi Bamburdir. O‘z navbatida bularga qarshi turgan qora kuchlar Bo‘ron va Xorud asarning mohiyatini ochuvchi personajlar hisoblanadi. Asarning ayrim xususiyatlari borasida: “Asarda ishtirok etuvchi bosh qahramon – asalarilar shohi Bambur, gullar malikasi Nargiz. Yemiruvchi kuch Bo‘ron bilan ziroat zararkunandasi Xorud. Har ikkala guruh – Bambur bilan Nargiz, Bo‘ron bilan Xorud o‘zlaricha yolg‘iz emas. Ularning atrofida o‘z muhiti, madadkorlari, gumashtalari bor: Bambur bilan Nargiz tarafida – qushlar, gullar, dov-daraxtlar, muattar hidlar, dil rishtalari, nur, maysalar... Bo‘ron bilan Xorudning izmida – shamol, vabo, izg‘irin, chaqmoq va boshqalar. Bamisoli tabiat bilan jamiyat bir-biriga muqoyasa qilinganday: tabiiy hodisalarda ham zuhur ko‘rgizganday bir sirli taassurot paydo bo‘ladi.

Muallif yuksak xayolot parvozida qalam surgan. Tabiatning jonlanishi, tilga kirishi, yashash uchun kurashdan iborat tabiiy harakatga hayotbaxsh faoliyatining singdirilishi hayratga sazovor”, -deb yozadi G‘aybulloh as-Salom¹.

Asarning yana bir xususiyati Sharq xalqlari she‘riy san‘atlariga xos jihatlarning joriy qilinganligidir. Unda masal janriga taalluqli bo‘lgan qushlar, hayvonlar va o‘t-o‘lanlarning jonlantirilgan. Ma’lumki, masal janrida turli xil ramzlar zahirida ijodkor o‘zi aytmoqchi bo‘lganlarini bayon qiladi. “Kashmir qo‘shig‘i”da ham ana shunday jihatlarning mujassam. Unda ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, bosqinchilar va ozodlik kurashchilari o‘rtasidagi kurashlar tasvirlanadi. Asardagi bunday tasvirlar ma’lum ma’noda ijodkorning o‘z

¹Рашидов Ш. Кашмир қўшиғи. Икки дил достони. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 5.

ideallari bilan ham bog‘liq tarzda tarannum etilgan. Jumladan, Nargiz, Lola va Atirgullar o‘zaro suhbatlashib, Bo‘ron va Xorudlarning bedodliklariga qarshi kurashish, o‘z bog‘larini asrab qolish kerakligini aytadilar:

Gullarjon, bog‘imizdan
Ofatlarni quvaylik.
Nozik yaprog‘imizdan,
G‘uborlarni yuvaylik.
Bo‘ron – kuchli, Xorud ham,
Bo‘rondan qolishmaydi.
Ular bilan bu olam –
Qorong‘u yorishmaydi.
Ammo birlashsak, do‘stlar,
Har qanday yov qochadi,
Axir kichik yulduzlar
Birlashib nur sochadi.

Desa, ularga qo‘shilgan Bambur:
Agar birlashsak, do‘stlar,
Har qanday yov qochadi...¹

Asar sevgi dostoni bo‘lishi bilan birga unda yuqorida keltirilgandek oshkora va yashirin ishoralar, muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrlari yashirin. “Kashmir qo‘shig‘i” aslida ham kashmirliklarning sevgi va ozodlik dostonidir. Sharof Rashidov asar xotimasida bu xususida: “Turmush maktabida chiniqmagan hali g‘o‘r yoshlar uchun u atigi bahor va sevgi qo‘shig‘i edi, xolos.

Hayotiy tajriba ko‘lami keng fozil kishilar uchun u – tabiatga taqalgan aqidalar in‘ikosi, ayni chog‘da shu kungi voqelik – mavsumlar almashinishi, tug‘ilish va o‘lish jarayoni, ezgu va yovuz kuchlar kurashi kabilarning nafis musiqiy ifodasi edi.

Uchinchi toifa kishilar esa o‘ylanib, Bo‘ron bilan Xorud mustamlakachilik asorati bosqichi unsurlar ramzi sifatida juda qo‘l kelishini ta’kidlaydilar.

Biz bu talqinlarning birortasiga qo‘shilish yoki ularni umumlashtirish fikridan yiroqmiz. Zero, bular qo‘shiq sohiblarining izm-ixtiyoridagi gaplar deb bilamiz. Ammo daryo bo‘ylarida aytilayotgan xushohang qo‘shiqlarni

¹ Рашидов Ш. Кашмир қўшиғи. Икки дил достони. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 45.

tinglaganimizda Kashmir va Jammu xalqlarining boy o'tmish tarixini, ularning o'z Vatanining ozodligi va mustaqilligi yo'lida qahramonona kurashlarini esladik, azamat o'g'lonlari va mohiro'y qizlari siymosida esa Bambur va Nargiz timsolini ko'rdik",- deydi¹.

Bulardan adibning asarni yaratishdan maqsadi faqatgina sevgi dostonini kuylash emasligi, undagi ramzlar "Hayotiy tajriba ko'lami keng fozil kishilar uchun" ekanligi ayon bo'ladi. Uning bunday istaklari "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli", "Dil izhori" singari boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Sharof Rashidovning publitsistik asarlarida garchi siyosiy talablar bilan bog'liq tarzda davr adabiy ideallarini yaratish, adabiy idealning ko'rinishi qanday bo'lishi kerak kabi masalalar yuzasidan fikrlar bayon qilingan bo'lsa ham, ular to'laligicha o'sha tizimga xizmat qilishga qaratilmagan.

2. Sharof Rashidov Hamza va u singari jadidchilik va ma'rifatparvarlik adabiyoti vakillari asarlarida kuylangan adabiy-estetik ideallardan yaxshi xabardor bo'lgan. Ularning dunyoqarashi va faoliyatini chuqur o'rgangan. Ayni chog'da, publitsistik maqolalarida ularning asarlarini saqlab qolish uchun davr nuqtayi nazaridan baho berish yo'lini tutgan.

3. Sharof Rashidov o'z asarlarida o'zbek xalqining asrlar davomida kuylab kelingan taraqqiyot, yuksalish, dunyoning peshqadam millatlari bilan bir safda turish bilan bog'liq ideallarini yangicha talqinlarda taqdim etgan. Buni biz uning "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli", "Dil izhori" singari asarlarida ko'rishimiz mumkin.

4. Vatan mustaqilligi bilan bog'liq ideallar hamisha Sharof Rashidov ijodining markazida turganligini "Kashmir qo'shig'i" qissasi va unga yozilgan "Xotima" orqali ko'rish mumkin.

¹ Ko'rsatilgan nashr. -B. 51.

2.3. SHAROF RASHIDOV DRAMATURGIYASI VA SHE'RIYATIDA ADABIY-ESTETIK IDEAL TALQINLARI

Sharof Rashidovning dramaturgiya sohasidagi faoliyati deyarli tadqiq etilmagan. Hozirgi kunda uning I.Akram bilan hamkorlikda “Ravshan” nomli dramatik asar yozganligi ma’lum¹. Drama 1946- yilda yozib tugatilgan. Ma’lumki, fashist bosqinchilari SSSRga bostirib kirgan ilk kunlarda hukumat tomonidan Vatan himoyachilarining jangovar ruhini ko’tarish uchun ijodkorlarga qahramonlikka undovchi, mashhur sarkardalar va xalq qahramonlari to’g’risida asarlar yaratish talabi qo’yilgan. Bu talabga ko’ra Hamid Olimjon o’zbek yozuvchilari orasida birinchi bo’lib, arab istilochilariga qarshi qo’zg’alon ko’targan Muqanna to’g’risida asar yozmoqchi bo’lgan. U 1941-yil boshlarida yoza boshlagan asarini 1942-yil 31-may kuni yakunlagan. Shu yilning avgustida esa mazkur tragediya hozirgi O’zbekiston Milliy teatrida sahna yuzini ko’rdi. Hamid Olimjon asari asosida yaratilgan “Muqanna” spektakli tomoshabinlar o’rtasida katta muvaffaqiyat qozongan va ko’plab ijobiy taqrizlar bildirilgan.

Keyinchalik Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi” dramasini 1943-yilda yoza boshlab, 1944-yilda yakuniga yetkazgan. Bu orada kichik bir parcha “Qizil O’zbekiston” gazetasining 1943-yil 7-noyabr sonida bosilgan. Asarning o’zi esa 1945-yilning yanvar oyida sahna yuzini ko’rgan.

Bular bilan birga Oybekning mo’g’ul bosqinchilariga qarshi xalq qo’zg’alonlariga boshchilik qilgan Mahmud Torobiyning qahramonliklariga bag’ishlangan “Mahmud Torobiy” asari ham dunyoga kelgan. Garchi bu asarlar o’z davrida vatan himoyachilarining fashizmga qarshi kurashida jangovarlik ruhini ko’tarishga xizmat qilgan bo’lsa ham, Sobiq kommunistlar partiyasi Markazqo‘mining 1946-1948- yillarda adabiyot va teatr bo’yicha chiqargan

¹ Qarang: Носиров Ў. Шароф Рашидов – давр фарзанди. –Т.: Фан, 1992. -Б. 19-22.

mash'um qarorlariga ko'ra taqiqlab qo'yilgan. Ular o'tmishni ulug'lovchi, sovet g'oyalariga zid asarlar sifatida baholangan.

Sharof Rashidov va I.Akram tomonidan yaratilgan "Ravshan" nomli dramatik asari ham hukumatning yuqorida qayd qilingan talabi asosida yaratilgan. Asar 1916-yilda Jizzaxda chor hukumatining mardikorchilikka olish to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lib ko'tarilgan xalq qo'zg'aloniga bag'ishlangan. Qo'zg'alon xalqning faqatgina mardikorchilikka qarshi noroziliklari ifodasi emas edi. Unda qatnashgan, harakatlarning rahnamolari bo'lgan kishilar, mardikorchilikka olish to'g'risidagi qarorning bekor qilinishi xalq hayotini yaxshilaydi, qarorni bekor qilsak bo'ldi, degan fikrda bo'lmaganlar. Ular bunday bedodliklarni tag-tomiri bilan quritish, eng avvalo, xalq boshiga zulmlarni yog'dirayotgan zolimlar, bosqinchilarni Vatandan haydab chiqarish kerak, Vatan ozodligiga erishgandagina xalqning hayoti yaxshilanishi mumkin, degan ozodlik ideallari bilan sug'orilgan edilar. Sharof Rashidov ziyoli va o'z xalqini sevuvchi, uning taqdiriga befarq bo'lmagan shaxs sifatida Jizzaxdagi xalq qo'zg'alonlari, ularning tub ildizlari, qamrovi, uning natija va oqibatlaridan juda yaxshi xabardor bo'lgan. Bizningcha, adib ana shu tarixiy voqelarni yoritishga bag'ishlangan asar yozish g'oyasini uzoq vaqt o'ylab yurgan. Buni biz uning birinchi bobida keltirilgan 1916-yilda Turkistonning ko'plab mintaqalarida mardikorchilikka qarshi ko'tarilgan qo'zg'alonlarga bag'ishlangan maqolasida ham ko'rishimiz mumkin.

O'.Nosirovning asar yaratilishi, uning g'oyasi borasidagi xulosalari e'tiborli. Uningcha: "Ravshan" dramasida esa Rusiya podshohi siyosatiga qarshi yuz bergan Jizzax qo'zg'aloni tasvir mavzusi qilib olingan edi. Shunday qaraganda, asarda mardikor olishga qarshi afgor ommaning g'alayoni qalamga olingan. Basharti asar mazmuniga chuqurroq e'tibor qilinsa, xalq Rusiya podshohi zulmidan bezigan, norozilik kuchaygan bir paytda podshohning mahalliy aholidan mardikor olish farmoni sabr kosasi to'lgan xalqni junbushga keltirdi". Olim yana davom ettirib: "Drama qahramonlaridan biri Jamol otaning "Biz janobi oliyning zo'ravonligini yaxshi bilamiz. U kishining farmonlaridan bosh tovlaganlar Sibir qilinadi. Mol-

mulki talanadi, bola-chaqalari sarson-sargardon bo‘ladi. Fuqaro bunday jazolarni umr bo‘yi ko‘rib kelmoqda...Bo‘ldi, ko‘p jaf o ko‘ra-ko‘ra ko‘zimiz pishdi”, -degan so‘zlari zamirida qo‘zg‘alonning sabablari mardikor olishgina emasligi sezilib turibdi. Bil‘aks, Jizzax qo‘zg‘aloni ozodlik va erk kurashi edi. Mehnatkash omma chorizm zo‘ravonligi va mahalliy boylar zulmidan qutulishning chorasi sifatida qo‘zg‘alonga otlanishdi” kabi xulosalarni bildirgan¹. O‘.Nosirovning bu xulosalari asarga berilgan to‘g‘ri bahodir. Ma‘lumki, Turkistonda ko‘tarilgan ozodlik harakatlari, jumladan, Jizzax qo‘zg‘aloni ham shafqatsizlik bilan bostirilgan. Xalq qattiq jazolangan. Qo‘zg‘alon ishtirokchilarining ko‘pi qatl qildirilgan, ko‘pi Sibirga surgun qilingan. Dramada qo‘zg‘alonning ana shu jihatlari ham o‘z aksini topgan. Lekin asarning bosh qahramoni Ravshan tilidan muallif garchi bu qo‘zg‘alon bostirilsa ham, ozodlik uchun kurashlar shu bilan yakuniga yetmaydi, u davom etadi, degan xulosani bildiradi. Bu borada O‘.Nosirov quyidagilarni yozadi: “Biz,- deydi Ravshan,- o‘z salaflarimizni mustahkamlashimiz kerak. Biz shunday zo‘r va yengilmas kuchga aylanaylikki, boylar, amaldorlar ham, biz tomon yopirilib kelayotgan jazo otryadi ham qatorimizni buzolmasin. Biz birgalashib kurashamiz. Biz tanlagan yo‘l qon-qardosh xalqlarning, rus xalqi yo‘qsullarining tanlagan kurash yo‘lidir. Bu yo‘ldan qaytish yo‘q”, “Bir umr qullikda yashash”dan ko‘ra o‘limni afzal bilgan Ravshan endigina tug‘ilgan farzandini qo‘lga olib, “Men boshlagan kurashni mening o‘g‘lim, avlodim davom ettiradi”, - deya jon beradi².

Olim to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Ravshan” dramasi tarixiy voqeani to‘g‘ri yoritganligi, dastlab Jizzaxda yuz bergan bu qonli voqea aslida ozodlik va erk qo‘zg‘aloni, zulmga, zo‘ravonlikka, Rusiya podshosining mustamlaka siyosatiga qarshi ijtimoiy-tarixiy zarba bo‘lganligi haqqoniy tasvirlanganligi jihatdan muhim ahamiyatga ega”³. Bular bilan birgalikda, dramaga rus xalqining “insonparvar vakillari” sifatida kiritilgan Ivan Shulga, Sergey Batov kabi personajlarning milliy

¹ Носиров Ў. Шароф Рашидов – давр фарзанди. –Т.: Фан, 1992. -Б. 20.

² Ko‘rsatilgan nashr. –Б. 21-22.

ozodlik uchun kurashchilar safida bo'lishi, Ravshan singari ozodlik fidoyilarining kurashda "rus xalqi yo'qsullari tanlagan kurash yo'li"dan borishga ahd qilishi"ni asarga nisbatan davrning siyosiy zarbalarini yumshatish uchun qo'llangan choralar sifatida baholash mumkin. Hozirda Birinchi jahon urushi davri va 1917-yilda Rossiyada ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar proletariatning xohishi sifatida yuz berganligi to'qib chiqarilganligi barchaga yaxshi ma'lum. Istiqlolgacha bu siyosiy o'zgarishlarning aks-sadosi Turkistonda ham jaranglagan, natijada, xalq qo'zg'olonlari yuz berib, hokimiyat ishchi va dehqonlar qo'lidga o'tgan, bu o'zgarishlarda rus proletariatining ilg'or g'oyalarining ta'siri bo'lgan, degan fikrlar barcha yozma adabiyotlarda qayd qilib kelingan edi. Bu bilan sho'rolar o'zlarining siyosati Chor hukumatining davomi ekanligini yashirishga harakat qilganlar. Aslida esa, Birinchi jahon urushi bilan bog'liq tarzda Turkistonda yuzaga kelgan qo'zg'olonlar milliy ozodlik xarakteriga ega bo'lgan.

Shunday qilib, Sh.Rashidovning I.Akram bilan hamkorlikda yozgan "Ravshan" dramasi o'zbek xalqining istiqloлга erishish borasidagi ideallarining davr siyosiy talablarini inobatga olgan holda taqdim etilgan talqini – transformatsiyasi sifatida baholash mumkin. Adib asarlariga bu singari jihatlarning ko'zga tashlanishi borasida G'aybullo as-Salom Sh.Rashidovning "Erk istar ko'ngil" deb nomlangan asarlar to'plami nashrida bildirgan fikrlari diqqatga molik: "Sho'ro adabiyotining hukmron nazariy negizi bo'lmish sotsialistik realizm nima ekanini oddiy kitobxon yoki tomoshabin bilmaydi. Va xuddi shu bilmaganligi bilan baxtli. Chunki sho'rolar hukmronligi davrida mushtumzo'rlik (diktatura), zo'ravonlik, harbiy kommunizm siyosati shunga olib keldiki, badiiy adabiyot va san'at bus-butun hukmfarmonlik quroliga aylandi. Yozuvchining nima qilishi kerakligi oldindan belgilab qo'yilgan bo'lardi. Chunonchi, har bir asarda ishchi, firqa, ulug' og'a, Lenin yoki Stalin obrazi yoxud ularning "nuqtayi nazari", biryoqlama mavhum baynalmilallik va soxta inqilobiy g'oya mavjud bo'lishi kerak edi. Ahvol shu darajaga borib yetgan ediki, hatto yozuvchilar va qalamkashlar

(matbuotchilar) o‘zlari partiyaning dastyori (“yugurdagi” deb o‘qilsin) ekani bilan faxrlanishardi.

Qisqasi, adabiyot – siyosatning davomiga aylandi. Imtiyozli (shohona) (nomenklatur) adabiyot qaror topdi. Yozuvchi firqaning va Markazning irodasini amalga oshiruvchi ijrochi bo‘lib qoldi. Bunday “temir qonunga” itoat etmagan, o‘z fikriga ega bo‘lgan har qanday iste’dodli adib “yot unsur”, “mafkuraviy qo‘poruvchi”, “millatchi”, “xalq dushmani”ga aylanardi: quvg‘in qilinardi, ijod qilish huquqidan mahrum etilardi, ta‘qib ostiga olinardi, qamalardi, otilardi. Shuning uchun bejiz emaski, ko‘pgina hushyor yozuvchilar xalq rivoyatlari, afsonalari, asotirlarini yozma adabiyotga olib kirishga harakat qildi yoki tarixiy mavzularga murojaat etdi, o‘zgalarning (ko‘pincha o‘ris yozuvchilar yoki xorijiy mualliflarning) asarlarini o‘zbekchaga o‘girishga moyillik, qildi, masal yozdi va hokazo. Basharti, asliy (original) asar yaratganda ham, majoziy bir tilda, “lison-ul g‘ayb” yo‘sinida, turli imo-ishoralar bilan, “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida qalam tebratdi”¹.

Albatta, bu singari adabiy-estetik ideallarning transformatsiyalanish jarayonlarini oldingi faslda ko‘rsatganimizdek, “G‘oliblar”, “Bo‘rondan kuchli”, “Dil izhori”, “Kashmir qo‘shig‘i” bilan birgalikda “Ikki dil dostoni” kinossenariysida yaqqol ko‘rinadi. Kinossenariy buyuk o‘zbek xalqi farzandi Abdulqodir Bedilning “Komde va Mudan” masnaviysiga asoslangan.

Adibning ijodida G‘aybullo as-Salom qayd qilgan kabi “Lison-ul g‘ayb” yo‘ldan borganligini nazmiy asarlarida ham ko‘ramiz. Xususan, uning “Navoiyga” nomli she‘rida buyuk shoir ruhiga murojaat qiladi. Uning asarlari yaratilgan davrning naqadar buyuk bo‘lganligini esga oladi:

Pahlavon asrning umri tugamas,
Bu umr olamning avvali boshi.
Yanchilib ketar va hatto sovrilar,
Yalang‘och qoyalar qop-qora toshi.

¹ Faybullo as-Salom. Изхори дил.//Шароф Рашидов. Эрк истар кўнгил.-Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. -Б. 123-124.

Keyingi bandda esa Navoiy yaratgan ideallarning adib yashayotgan davrda ham o‘lmas ekanligi, abadiyatga daxldorligi, xalq doimo u yaratgan ideallarni kuylashi e’tirof etiladi:

O‘z qadri-qimmatin topdi o‘lkamdan,
Yanchilmas, sovrilmas durdonalaring.
Otash qalbdan chiqqan oltin satrlar,
Bezadi she’riyat koshonalarin.

Navbatdagi bandlarda shoir Navoiy o‘z ideallarida sotqinlikni qoralashi, qadr-qimmatli vafoni kuyladi, uning adabiy ideallari – Farhod va Shirinlarning o‘z sevgisi, orzusiga erishishda jonlaridan ham kecha oladigan darajada yuksak ekanligini aytadi:

...Farhodiga vafo qildi mard Shirin,
Nomard Xusrav yuragini chok etdi.
Bosh egmadi ham qo‘rqmadi o‘limdan,
O‘z orzusi, sevgisini top etdi¹.

Adibning bu she’ri nafaqat Navoiyga, balki ajdodlar ruhiga murojaatdek taassurot qoldiradi. Muallif bular bilan Navoiy asarlari qahramonlariga xos xiyonatni yomon ko‘rish, vafo va sadoqatni qadrlash, o‘z orzu-istaklariga erishish uchun jonidan ham kechishga tayyor turish o‘zbek xalqiga xos fazilat deydi. Shuningdek, Navoiy timsolida o‘zbek xalqini ulug‘laydi, sharaflaydi, xalqiga xos bo‘lgan xarakterni ochib beradi.

Sh.Rashidovning “Erk istar ko‘ngil” nomli she’ri ham adabiy-estetik ideallarining o‘ziga xos tarzda ifodasi sifatida e’tiborli. She’r rus adibi N.G.Chernishevskiyga bag‘ishlangan. N.G.Chernishevskiy rus publitsisti, adabiy tanqidchi va jamoat arbobi sifatida ma’lum. Uning chor hukumatiga qarshi g‘oyalari, dehqonlar inqilobi yordami bilan Rossiyani yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, yangi, taraqqiy etgan va demokratik me’yorlar ustuvorlik qilgan jamiyatni barpo etish mumkin, deb hisoblagan utopik sotsializm ta’limotlari

¹ Рашидов Ш. Эрк истар кўнгил.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. -Б. 105.

sho‘rolar tuzumi tomonidan ma’qullangan. Adib N.G.Chernishevskiy timsolida o‘z adabiy idealining Rus istibdodi, uning davomchisi bo‘lgan sho‘rolar tuzumiga nisbatan noroziligini bildirgan. N.G.Chernishevskiyga murojaat etish orqali Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan erkparvar ajdodlari ruhiga yuzlanadi. Bu siyosat natijasida daryolar qonga to‘layotganligini aytadi:

Rusiya tunidek qorong‘u qafas,
Unda payhon umr, bo‘lmas hur nafas.
Qafasda yotardi erk istar ko‘ngil,
Ming alam o‘tida yonar edi dil.
Qon to‘lib, to‘lg‘anib oqadi Neva,
Dard bilan cho‘lg‘anib boqadi Neva:
To‘lqini alamli xuddi shu dilday,
Ingraydi, qaqshagan g‘arib bir elday...¹

Umuman, she’rda istibdod tufayli rus yerlarida dard chekayotgan xalqlarning oh-u faryodi, ularning erk va ozodlik istashi, N.G.Chernishevskiy esa ularning istaklari ifodachisi deyiladi. E’tibor berilsa, she’rdagi ko‘pgina voqealar tasviri hali ham davom etayotgandek, ziyrak o‘quvchining fikrini uyg‘ota oladigan darajada yozilgan. She’r 1939-yilning sentabr oyida yozilgan. Uning yozilgan sanasi ham e’tiborga molik. Ma’lumki, sho‘rolar 1937-1939 yillarda ommaviy qatag‘onlar o‘tkazgan. Buning natijasida N.G.Chernishevskiy singari o‘zbek xalqining ilg‘or ziyolilari qatag‘on qilingan. Ularning qoni to‘kilgan.

Shoirning erkinlik, Vatanining gullab-yashnashi, xalqining ozod yashashi bilan bog‘liq ideallarini “Fontan yonida” she’rida ham o‘qiymiz:

Havo tiniq, ko‘nglimday oppoq,
Bulutlardan asar ko‘rinmas,
Shabnam bilan cho‘milgan yaproq,
Gulshanlarga ko‘zlari to‘ymas.
Yengil shamol Samson yonida,
Gullar bilan o‘ynashar edi.
Fin to‘lqini ba’zan g‘uvullab,
Qirg‘oq bilan so‘ylashar edi.
Bu yer bo‘ldi bizning sayrgoh,

¹ Yuqorida ko‘rsatilgan nashr –B. 106.

Fontan sochar munchoq donalar.
Sehrlanib qoladi nigoh,
Orom berar sho‘x sbiabodalar...¹

She’rda ozodlik, erkinlikni sevuvchi poetik obraz sifatida yengil shamol tasvirlanadi. Shamolni to’sib qoladigan, uni to’xtatib qoladigan hech qanday kuch yo‘q. Gulshanning gullari shabnamli bo‘lganini ko‘rib, ulardan zavqlanish, o‘z yurtining ana shu gulshanga o‘xshashini istashning ifodasidir.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Sh.Rashidov dramaturgiya sohasida ham ijod qilgan. Uning hozirda I.Akram bilan hamkorlikda yozilgan “Ravshan” nomli asari ma’lum. Asar 1946 yilda yakunlangan. Dramada 1916-yilda Jizzaxda chor hukumatining mardikorlikka olish siyosati sabab yuzaga chiqqan xalqning milliy ozodlik kurashlari tasvirlangan.

2. “Ravshan” dramasi sovet hukumatining Ikkinchi jahon urushi davrida ijodkorlarga xalq qahramonlari hayotidan olingan asarlar yaratish talabiga asosan yozilgan bo‘lsa ham, unda adibning mustaqillik, ozodlik bilan bog‘liq ideallari o‘z aksini topgan.

3. Sh.Rashidovning nazmiy asarlarida ham ozodlik va mustaqillik bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallari o‘z ifodasini topgan. Buning uchun ijodkor turli xil tarixiy mavzular, ramziy timsollarga murojaat qilgan. Sh.Rashidov “Navoiyga”, “Erk istar ko‘ngil” kabi she’rlarida tarixiy shaxslar timsoliga murojaat qilish zahirida ajdodlar ruhiga, o‘zbek xalqiga murojaat qiladi.

4. “Fontan” she’ri ramziy obrazlar tizimiga asoslangan ozodlik, erkinlik borasidagi ideallar ifodasining Sh.Rashidov ijodidagi o‘ziga xos namunasi.

¹ Yuqorida ko‘rsatilgan nashr. –B. 103.

III BOB. ISTIQLOL DAVRI IJODKORLARI ASARLARIDA DAVR ADABIY-ESTETIK IDEALI. AKADEMIK LITSEYDA ADABIY-ESTETIK IDEAL MAVZUSINI O'RGANISH

3.1. SAYYORA TO'YCHIYEVANING ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYHTIDA ADABIY-ESTETIK IDEAL

“Adabiyot hamisha ideal izlaydi. Romantik yo‘l bilanmi, realistik tarzdam, qat’i nazar, ibrat bo‘ladigan qahramon timsolini yaratishga intilaveradi. Turli badiiy, ya’ni tasviriy-ifodaviy yo‘llar, vositalar, usullar, umuman, so‘zning ko‘pqirrali imkoniyatlaridan foydalanib, oshkorami-zimdanmi, bevosita, bilvosita, go‘zallik va ezgulikni targ‘ib-u tashviq etaveradi.

Murakkab va mushkul tarafi shundaki, umuman olganda, go‘zallik va ezgulik har qancha badiiy tushunchalar bo‘lmasin, zamon o‘zgarishi bilan bu mavhumlarning mezonlari ham tag‘yir topadi. Yoki aksincha – qarashlarning yangilanishi zamonning o‘zgarganligini bildiradi.

Xalqimizning bu ko‘hna tarix jarayonlarida ko‘p-ko‘p va turli-turli o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Lekin Istiqlol – mamlakat hayotidagi o‘ta muhim, hayotimizda tub burilish yasagan nihoyatda ulkan dunyoqarashimizni butunlay o‘zgartirib tashlash, ongimizni tamoman boshqa o‘zanga burib yuborish, hayotga, davlatga, xalqqa, shaxsga munosabatdagi yetmish to‘rt yil mobaynida zo‘r berib shakllantirilgan sun’iy devorlarni buzib yuborishga qodir kuch”,- deb yozadi Sultonmurod Olim¹. S.Olim so‘zini davom ettirib, istiqlol tufayli bir qancha sohalarda qarashlarimiz o‘zgarganligini qayd qiladi. Jumladan, mafkuraviy sohadagi o‘zgarishlar xususida: “Shu tariqa mafkuraviy qarashlarimiz ham o‘zgardi...

Bugun “zamonamiz qahramoni” haqida gapiramiz, har birimiz uni o‘zimizcha izlaymiz. Mashhur bir adib XIX asrda buyuk asarini aynan shu nom bilan ataganini ham yaxshi bilamiz. Mayli, bu atama kimgadir eski, muayyan

¹ Султонмурод Олим. Истиқлол – бахтим, саодатим...-Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б. 92-93.

qolipdagi tushuncha bo'lib tuyuladi, ham deylik. Xo'sh, uni soddaroq qilib, "orzudagi shaxs" (ideal shaxs – P.I.) deyishga haqqimiz bor!¹

O'z navbatida jamiyatda shaxs tarbiyasi, ularda yuz berayotgan o'zgarishlarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantirish, istiqlolni mustahkamlash, uning qadriga yetishi borasidagi qarashlarini rivojlantirishda qaysi asoslarga tayanshimiz kerak, bu kabi fazilatlarni jamiyat a'zolarida shakllantirish uchun kimlarni ideal qilib olish zarur, yangi davr adabiy-estetik ideallari qanday bo'lmog'i talab etiladi degan savollar Istiqlol davri adabiyotining kun tartibiga qo'yilgan muhim masalalardan biri bo'ldi. Jumladan, N.Jo'rayev va T.Fayzullayevlar "Istiqlol va tarixiy jarayon" nomli risolasida bu boradagi qator savollarga javob axtaradilar. Ular mustaqillik g'oyasi, uning genezisi va rivoji borasida so'z yuritib, mustaqillik davri uchun ideal bo'lishga loyiq bo'lgan bobolarimizdan biri sifatida Amir Temur shaxsiyatini ko'rsatganlar. O'z navbatida bu borada Prezident I.A.Karimovning "O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyatga ega",-degan fikrlariga e'tiborni qaratganlar².

Shunday qilib, Istiqlol davri o'zbek adabiyotida ijodkorlarning turli mavzularda erkin ijod qilish imkoniyatlari yuzaga keldi. Qalam ahli o'z asarlarida sho'rolar tuzumi davridagi kabi butun e'tiborini partiya g'oyalarini ko'r-ko'rona bajaradigan shaxslar tarbiyasiga xizmat qiladigan asarlar yaratishga emas, balki inson ruhiyatini, uning tarbiyasiga yo'naltirilgan asarlar yozishga kirishdilar. Bu borada ular asrlar davomida shakllangan milliy adabiy an'analarimiz va jahon adabiyoti an'alariga suyandilar. O'z navbatida ijodkorlar yuqorida qayd qilinganidek, Vatanni sevish, Istiqlolni mustahkamlash, uning qadriga yetish borasidagi adabiy-estetik ideallarini ham o'z asarlarida tasvirlagan. O'zbek

¹ Yuqorida ko'rsatilgan kitob. –B. 95.

² Жўраев Н., Файзуллаев Т. Истиқлол ва тарихий жараён. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –Б. 30.

adabiyotidagi bunday jarayonlar nazm va nasrda o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi. Ulardagi adabiy-estetik ideallar borasidagi tasavvurlar bir-birini to'ldiradi. Nazmning imkoniyati yetmagan o'rinlarda nasriy asarlarning qudratidan foydalanildi. Chunonchi, bu borada: "Istiqlol davri o'zbek she'riyati mazmun mohiyati bilan milliy adabiyotimiz an'alariga, jahon she'riyati yutuqlariga tayanib, ularni ijobiy o'zlashtirib, shakl va mazmun takomilida yangi bosqichga ko'tarmoqda. Shoiralarimizning badiiy-estetik izlanishlari obrazlar tizimi, uslubiy o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. Bu izlanishlar she'riyatimizning mazmun-mundarijasidagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liq",-deb yozadi G.Sh.Saidg'aniyeva¹.

Darhaqiqat, Istiqlol davri o'zbek she'riyatida ijodkorga o'z g'oyasi, adabiy-estetik ideallarini tarannum etish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Xususan, Vatan ozodligi bilan bog'liq adabiy-estetik ideallarning yangi qirralari ko'zga tashlana boshladi. Nazm ahli o'quvchilarga asrlar davomida orzu qilingan Istiqlolning qadriga yetish, uni mustahkamlash, buning uchun xalqimiz timsolida ko'rishni istagan ideallarni taqdim qildilar. Jizzaxlik shoira Sayyora To'ychiyeva ijodida bunday adabiy-estetik ideallarning o'ziga xos, xalq ruhiyatiga yaqin, zamon bilan hamnafasligini ko'rishimiz mumkin. Uning ikkinchi to'plami "Men seni qizg'onaman"ga kirgan she'rlarning mavzu ko'lami xususida N.Hotamov quyidagicha so'z yuritgan: "... Sayyora olima-falsafa fanlari nomzodi, viloyatda davlat va jamoat ishlarining faol mas'ul xodimasi bo'lgani uchun uning she'rlarida inson taqdiri, el-yurt g'ami, vatan mehri, farzandlar kamoloti g'oyalari ko'tarinki ruhda tasvirlanadi, teran falsafiy va hayotiy xulosalar tasdiqlanib, yaramas illatlar qoralanadi va inkor etiladi. Bu she'rlarda istiqlool ruhi, mustaqil mamlakatimiz farzandlarini el-yurt, vatan uchun sodiq va halol xizmat qilishga, diyonatli va jasur bo'lishga chorlash ruhi shoira tabiatiga mos jo'shqin kayfiyatda

¹ Сайдганиева Г.Ш. Истиқлол даври лирикасида строфика ва ритмнинг поэтик образ яратишдаги ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.:, 1997. -Б. 3.

kuylanadi. Chunonchi, istiqlol mavzusida yaratilgan “O‘zimning elim” she’rida shoir:

Seni yetti iqlim tan olgani rost,
 Madhing qo‘shiq bo‘lib taralgani rost,
 Voz kechgan xeshlaring talpingani rost,
 Shavkatingdan aylanay, o‘zimning elim...
 Sharqning darvozasin egasi – o‘zbek,
 Musulmon dunyosin erkasi – o‘zbek,
 Eng to‘kin dasturxonning bekasi – o‘zbek,
 Ne’matingdan aylanay, o‘zimning elim,

deb mustaqil mamlakatimiz bo‘y-bastini, shon-u shavkatini g‘oyat to‘g‘ri ifodalasa, “O‘zbekim” she’rida o‘zbek xalqi, jonajon yurtimiz va ota-bobolarimiz xotirasi haqida teran fikrlar bildirib, bir-birimizni avaylab asrashga, Turkiston xalqlarini bir yoqadan bosh chiqarib, istiqolni himoya qilishga, tinch-totuvlikka da’vat etadi:

Elimizdan yaxshi chiqsa, bolam deylik,
 Yomon chiqsa, insofga kel sen ham deylik,
 Birgalashib Turkistonning g‘amin yeylik,
 Bir-biringni asra endi, jon o‘zbekim¹.

Umuman, she’r yetti banddan iborat. Munaqqid keltirgan bandlardan tashqari bandlarning har biri yuqoridagi kabi da’vat bilan tugaydi. Ungacha shoir xalqimizga xos halollik, tantilik, shaxdamlik kabi xislatlarni esga oladi. Ulug‘bek, Bobur kabi bobolarimiz borligi, Qodiriy va Cho‘lponlarning bevaqt kelganligi, Temuriylar davlatining shonli kunlarini yodga soladi. Yurtimizning vallomatlar yurti ekanligini aytadi. Albatta, bular shunchaki statistik hisobotlar emas. Shoir bular orqali xalqimizning ruhiyatida yana o‘sha shijoat, tantilik, jasurlikning qayta tiklanishi, Bobur va Ulug‘bek singari farzandlar yetishib chiqishini istashini bildirgan. Yurtimizning shon-u shavkati yana temuriylar davridagidek bo‘lishi

¹ Тўйчиева С. Мен сени қизғонаман. –Тошкент: Фан, 1996. –Б. 6-7.

bilan bog'lik ideallarini bayon qiladi. Shoiri o'zbek xalqi bir-birini asrashi kerak degan fikrining mag'ziga nurafshon kunlarga qanchalar mashaqqatlar, yo'qotishlar bilan yetib kelganimizdan keyin, endi Bobur-u Ulug'beklarga qilingan xiyonatlar bo'lmasin, Qodiri-yu Cho'lpon singari allomalarimizni asraylik degan g'oyani ham ilgari suradi. Xalqimizning barcha jarayonlarning farqiga boradigan, yuksak tafakkurga ega bo'lib birlashishi – ideal bo'lishini xohlaydi.

Sayyora To'ychiyeva o'zbek xalqining nihoyatda vatanparvar bo'lishini istaydi. Vatanning har bir zarrasi, tuprog'ini qadrlashini xohlaydi. Buning uchun shoiri O'zbekistonning buyukligi, unday vatan hech qayerda topilmasligini turli rakurslardan turib o'quvchilar shuuriga yetkazishga intiladi. Jumladan, uning "Xorijlik o'zbeklar qo'shig'i" she'rida:

O'zbek yurtim, ona yurtim, ozod yurtim,
Sendan ayru yurib, aytgin ne ham ko'rdim,
Qayda bo'lmay mehr degan ilinj terdim,
Yuragimning tegrasida qolgan Vatan¹,

deydi. She'rda taqdir taqozosi bilan O'zbekistondan chiqib ketishga majbur bo'lib, keyin qaytib kela olmagan vatandoshlarimizning butun ichki dardlari, ruhiy kechinmalari, Vatanni ko'rish orzusi, Vatanning har bir go'shasi, rayhoni-yu qaldirg'ochlari tushlariga kirib chiqayotganligi tasvirlangan. Bu tasvirlar haqiqiy ma'noda Vatan sog'inchi bilan yashayotgan o'zbekning dil izhorlari. Uni o'qigan o'quvchi bir lahzaga bo'lsa ham tafakkurga borishi, o'ylab ko'rishi, o'zi uchun oddiy ko'ringan rayhon hidi-yu qaldirg'ochlarning ini, ko'klamning tarovati aslida nihoyatda bebaho ekanligini aql tarozisidan o'tkazishi aniq.

Istiqlol xalqimizga barcha tomondan erkinlik berdi. Lekin Istiqlolning ilk yillarida qo'lga kiritilgan mustaqillikning qimmatini ayrim kaltabin shaxslar tomonidan qadrlanmadi. Hali hamon eski tuzumni qo'msovchilar uchrab turardi. Ana shunday kunlarda ularning ko'zini ochish, kelajakka teran aql bilan qarash, Istiqlolning mazmun-mohiyatini anglatish zarurati dolzarb masala sifatida ko'rini

¹ Тўйчиева С. Санамгина. –Тошкент: Фан, 2008. –Б. 22.

boshladi. Mamlakatimizning qisqa vaqt ichida ham iqtisod, ham ma'naviyat sohasida erishgan yutuqlarini butun dunyo tan olib tursa-da, ana shunday ko'ra olmaslarning ko'zini ochish shart bo'ldi. Sayyora To'ychiyevaning shu kabilarga qarata aytgan istaklari "Hayrat" nomli she'rida o'z ifodasini topgan. Shoira she'rdan oldin "Respublika mustaqilligining yilligiga bag'ishlab Sangzor bo'yida ajoyib inshoot qurildi. Tungi chiroqlarning og'ushida porlayotgan bu manzarani ko'rib, xayolga shu satrlar keldi",- deb yozadi¹. She'ning yozilgan sanasi 25-avgust 1999- yil deb ko'rsatilgan. Ma'lumki, bu vaqtda O'zbekiston nomi butun dunyoga ma'lum bo'lib ulgurgan edi. She'rdagi tasvirlangan Sangzor daryosi bo'yidagi go'zal manzara yurtimizda bunyoda kelgan minglab inshootlarning biri. Dengizdan bir tomchidek gap.

Yuqoridagi kabi adabiy-estetik ideallar, yurtimizning jahon miqyosida bo'y-bastining yuksalib borayotganligi, Mustaqillikning qadr-qimmatini ko'rsatishga qaratilgan "Madhiya" she'rida ham tarannum etiladi:

Nyu-Yorkdan ko'rinsa bo'ylaring sening,
O'zbekcha taralsa kuylaring sening,
Imondan bichilgan ko'ylaging sening,
Iffatingdan aylanay, o'zimning elim².

Istiqlol tufayli ko'plab sohalarga erkinlik berildi. Lekin bu erkinliklardan yurtimizning g'animlari foydalanishga intildilar. Hali g'o'r, bilimsiz, hayotiy tajriba ega bo'lmagan yoshlarni yot g'oyalar bilan yo'ldan urdilar. Ularni manqurt, o'z yurtiga dushman bolalar qilib tarbiyalashga harakat qildilar. Oqibatda, ko'plab yoshlar buzg'unchi kuchlarning va'dalari, ko'rsatmalariga ergashdilar. Ko'r-ko'rona ularning manfaatiga xizmat qildilar. Chet davlatlarga ketib, g'animlarning qo'lida qo'g'irchoq bo'ldilar. Shoira ana shunday yoshlarning taqdirini ko'rib ich-ichidan kuyadi. Ularga ona sifatida murojaat qiladi. "Qaytgin, bolam" she'ri ana

¹ Тўйчиева С. Санамгина. –Тошкент.: Фан, 2008. –Б. 14.

² Yuqorida ko'rsatilgan nashr. –Б. 15

shunday yo‘lidan adashgan yoshlarga qarata aytilgan pand-nasihat mazmuniga ega. Jumladan,

Vatansizlar Vatan qadrin qaydan bilsin,
Padarkushlar ota qadrin qaydan bilsin,
Yarim ko‘nglim, bolam, sensiz qaydan to‘lsin,
Qaytgin, bolam, quchog‘imga qaytgin, bolam,

deb hayqiradi muallif. Ushbu she‘rning boshqa bir bandida esa:

El yuziga oyoq tirab shayx bo‘lmassan,
Sargardonu sarson yurtida baxt ko‘rmassan,
Kech bo‘ladi, keyin sira ulgurmassan,
Qaytgin, bolam, quchog‘imga qaytgin, bolam!

misralar beriladi¹.

“Biz kechirimli xalqimiz” she‘ri ham yuqoridagi kabi yo‘lidan adashgan yoshlarga qaratilgan. She‘rda o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, kechirimliligi aytiladi. Tarixda o‘tgan Vatan xoinlari, padarkushlarning taqdiri haqida so‘z yuritiladi. Vatanga xiyonat qilganlarning taqdiri hech qachon yaxshilik bilan yakun topmasligi ta’kidlanadi. Buning aksicha, shoira yurtimiz yoshlarining vatanparvar bo‘lishi, Vatanning buguni va ertasini qadrlash, o‘tgan kunini yoddan chiqarmaydigan shaxs bo‘lib voyaga yetishini xohlaydi.

Sayyora To‘ychiyevaning bular bilan birga “O‘zbekistonim”, “O‘zingga buyursin, elim!”, “O‘zbekiston polvonlari”, “Aziz elga”, “Nido”, “Pok noma bitdim”, “Temur faryodi”, “Ayolini alqagan eli”, “Vatan”, “Xush kelibsan, Navro‘zim”, “O‘z elimga sig‘indim” kabi she‘rlarida Vatan taraqqiyoti, uning mustaqilligi mustahkamlanishi, dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida har bir fuqaro mas’ul ekanligi aytiladi. Shuningdek, mazkur she‘rlarda xalqimizning asrlar davomidagi tajribalari mahsuli sifatida yuzaga kelgan “Kuch

¹ Yana o‘sha ko‘rsatilgan nashr. –B. 19.

birlikda”, “Bo‘linganni bo‘ri yer” degan maqollarning mazmuni ham o‘z aksini topgan. Shu bilan birga shoiraning Istiqlol, Vatan ozodligi, Istiqlolni mustahkamlash bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy kabi millatparvar, vatanparvar, ma’rifatparvar ijodkorlarimizning ideallari bilan hamohanglik kasb etadi. Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

1. Sayyora To‘ychiyeva Vatan ozodligi, Istiqlol va uni mustahkamlash bilan bog‘lik adabiy-estetik ideallarida, yurtimiz aholisi Istiqloldan keyin yuz berayotgan taraqqiyot, yuksalishlar, qurilish, bunyodkorliklar, taqdim etilgan imkoniyatlarni qarlaydigan, qadriga yetadigan kishilar bo‘lishini orzu qiladi.

2. Sayyora To‘ychiyevaning o‘z adabiy-estetik ideallari orqali yoshlarni adashmaslikka, ajdodlari ruhidan madad olishga, ularning ishini davom ettirishga, davlatimiz dovrug‘ini temuriylar davridagidek darajaga ko‘tarishga hissa qo‘shishga chorlaydi.

3. Sayyora To‘ychiyeva vatan taraqqiyoti, uning tinchligini himoya qilish, mustahkamlash uchun bir-birimizni qo‘llashimiz, bir-birimizni qadrlashimiz muhim deb hisoblaydi. Uning idealicha, bir-birini qo‘llamagan jamiyat taraqqiy etmaydi, tanazzulga uchraydi. Jamiyat taraqqiyoti uchun hamjihatlik, o‘zaro birlik muhim jihatdir.

4. Sayyora To‘ychiyevaning Vatan ozodligi, Istiqlol, millatning birdamligi, yakdilligi bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy singari ijodkorlarning ideallari bilan chambarchasdir. Shoira asarlarida ham mazkur ijodkorlar asarlarida uchraydigan adabiy-estetik ideallarning qirralarini, oziqlangan o‘rinlarini ko‘ramiz.

5. Sayyora To‘ychiyeva Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiylar asarlaridagi Vatan ozodligi, Istiqlol, millatning birdamligi, yakdilligi bilan bog‘liq ideallarning yangi qirralari davr, zamon va tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq tarzda yangicha jihatlarini tarannum etadi.

3.2. ISTIQLOL DAVRI ADABIY-ESTETIK IDEALLARINING ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDAGI TALQINLARI

Istiqlol adabiyotimizga tom ma'noda erkinlik berdi. Natijada, adabiyotda juda katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jadallik bilan o'sib borayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tafakkurlar ta'sirida adabiy-badiiy tafakkur ham shakllanib, ulg'ayish yo'liga kirdi. Istiqlolning ilk yillarida ko'zga tashlangan iqtisodiy bo'hronlar jamiyatning bir qancha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Shubhasiz, bunday ta'sirlar natijasida inson ongi, uning dunyoqarashi o'zgarishini, ijtimoiy borliqqa munosabati, kelajakka ishonish yoki ishonmaslik kabi muallaq turgan va salbiy omillarni yuzaga chiqarishi mumkinligi, o'z navbatida bu omillar jamiyatning og'riqli masalasiga aylanishi mumkinligi dolzarblik kasb eta boshladi.

Shubhasiz, bu davrda o'zbek nasrining oldiga ana shunday muammolarni aks ettira olish, ularni teran mushohada qilish, o'quvchilarda jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan daxldorlik, o'z kelajagi, millat kelajagiga befarq bo'lmaslik ruhini uyg'otish, bunday ruhiy kechinmalarni yorqin va ta'sirli tarzda yetkazib berish masalasi ham turardi.

Qayd qilish kerakki, Istiqlol davri nasrida qayd qilingan masalalar o'z yechimini topdi. Bu davr bunday o'zbek nasrining tahlili Istiqlol bilan bog'liq adabiy-estetik ideallariga xos jihatlar sifatida tasvirlanayotgan ideal sog'lom fikrli, ma'naviy dunyoqarashi yetuk, xalqi va Vatani oldidagi mas'uliyati, ajdodlar merosiga munosib voris, ularning ishini davom ettirishni o'zlariga sharaf deb biladigan, o'zbek nomini dunyoga tanitish uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qilishga tayyor kishilar sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.

N. Karimov Istiqlol davri adabiyoti haqida: "Bu adabiyot (Istiqlol davri nazarda tutilmoqda-P.I.) chin ma'noda milliy va xalqchil bo'lishi, o'zbek xalqining hayotini, sajiyasini, qalbini, ruhiy boyligi va ma'naviy kamolotini aks ettirishi zarur. Bu adabiyot ilg'or jahon adabiyoti, birinchi navbatda, Sharq xalqlari adabiyotida yuz berayotgan yangi badiiy izlanishlardan ko'z yummagan holda

milliy-adabiy an'analarga, jumladan, XX asr o'zbek adabiyotining eng yaxshi badiiy yutuqlariga tayanishi kerak"¹, - deb yozadi.

Istiqlol davrida N.Karimov tomonidan qayd qilingan kabi adabiy an'analar va Istiqlol davri adabiy-estetik ideallarini o'z asarlarida tarannum etayotgan sermahsul nasrnavis ijodkorlardan biri jizzaxlik nosir Zulfiya Qurolboy qizidir.

P.Kenjayeveva hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatining tasvirida ijodkorlar mahoratini tahlilga tortib, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari badiiy tadqiq natijasida dunyoga kelgan asarlar ekanligini qayd qiladi².

M.Qo'chqorova "Hozirgi o'zbek nasrida ramz va metafora" nomli maqolasida Zulfiya Qurolboy qizini zamonaviy o'zbek yozuvchilari ustoz o'zbek hikoyanavislarining, shuningdek, jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan G'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanishib, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik yangilanishlar yasayotgan ijodkorlar qatorida sanab o'tgan³.

Qozoqboy Yo'ldoshning "Roman va bugungi o'zbek romanchiligi" nomli maqolasida Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romani tobora shakllanib borayotgan millat vakillarining ichki olamidagi turli ziddiyatlarni ko'rsatishga bag'ishlangani bilan ajralib turishini qayd qiladi⁴.

Y.Solijonov Istiqlol davri nasrnavis ijodkorlari asarlaridagi umumiy jihatlar xususida quyidagicha yozadi: "Shu jihatdan Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Tilavoldi Jo'rayev, Abduqayum Yo'ldosh, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi singari iste'dodli adiblar tomonidan yaratilgan bozor va inson taqdiriga bag'ishlangan badiiy jihatdan yuksak, g'oyaviy tomondan yetuk qissa va romanlardagi personajlar xarakterlidir. Bunday qahramonlar timsolida bozor munosabatlari sharoitida to'g'ri yo'l topolmay

¹ Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол. фан. доктори дисс ...авто.реф. –Т.:, 1993. - Б 39.

² Кенжаева П. У. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятининг тасвири. (Эркин Аъзам, Хуршид Дўстмуҳаммад, Саломат Вафо ҳикоялари мисолида–XXI аср бошлари):Филол. фанлари номзоди ...дисс –Т.:, 1997. -Б. 51-52.

³ Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида рамз ва метафора. <http://ijod.uz/?p=6864>

⁴ Қозоқбой Йўлдош. Роман ва бугунги ўзбек ромanchилиги. <http://ijod.uz/?p=7430>

adashgan, milliy o'zligidan judo bo'lgan, ba'zan o'z ixtiyori bilan yoki majburan axloqiy buzuvchilik yo'lga kirgan shaxslarning fojiali qismati o'quvchiga ibrat qilib ko'rsatildi"¹.

“Zulfiya Qurolboy qizi, - deydi Y.Solijonov,- davr manzarasini, bozor iqtisodiyoti kun tartibiga qo'yayotgan muammolarni kengroq qamrab olishga urinadi. Ayrim firibgarlarning lotoreya o'yini orqali boyib ketayotgani, kun sayin ko'payib borayotgan xususiy gazetalarning saviyasi, ularning sahifalarida e'lon qilinayotgan yengil-yelpi, oldi-qochdi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi maqolalar odamlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazayotgani (Zuhra obrazi misolida), Hulkarning afsus-nadomatli o'ylari orqali o'z ifodasini topgan...

...Avvalo, yozuvchining estetik ideali musaffoligi bilan e'tiborni tortadi. U hamma narsadan poklik, ezgulik unsurlarini qidiradi. Masalan, “Armon asirasi” romanidagi Nasiba eri Donishning o'limidan so'ng jinsiy ehtiyojni xayoliga mutlaqo keltirmagan holda qo'pol va bezori kimsa Talgatga ayollik mehrini bag'ishlab, uni ham jismoniy xastalikdan, ham miyasiga o'rnashib qolgan yovuzlik niyatidan xalos etadi. Eri tashlab ketib beva qolgan Hulkar Armon ham hayotda, ham ijodda pokiza axloqini namoyon qiladi. Bu borada, o'zi namuna ko'rsatibgina qolmaydi, balki “yomon” yo'lga kirib ketgan Nasiba va Zuhrani izlab topib, tanbeh beradi. Yoki “Mashaqqatlar girdobi”ga tushib qolgan Gulruh o'zining tashqi go'zalligi bilangina emas, balki axloqiy pokizaligi, muomalasining shirinligi bilan nafaqat mardikorlarning, ayni chog'da, butun vujudidan “allaqanday yovuzlik hidi keladi”gan Po'lat Damirovichni ham, qo'lini qayoqqa uzatsa yetadigan boshliq Hakim Nazarovichni ham tiz cho'ktiradi. Bu ayollar o'zlarining axloqiy go'zalligi bilan o'zgalar axloqining o'zgarishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadilar”².

Yuqoridagi tahlillardan shu ma'lum bo'ladiki, Zulfiya Qurolboy qizining Istiqlol davrida yaratgan asarlarida iqtisodiy bo'hronlar davrida ham inson inson ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Ma'naviy poklik har qanday sharoitlarda

¹ Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари. <http://ijod.uz/?p=7437>

² Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари. <http://ijod.uz/?p=7437>

ham adabiy-estetik ideal turishi kerak bo'lgan eng yuksak cho'qqi ekanligi ta'kidlanadi. Ijodkor yangi davr ideali sifatida o'z asarlari personajlarida, eng avvalo, ma'naviy barkamollikni ko'rishni istaydi. Bular bilan bir qatorda adiba asarlarida milliy g'urur, millat g'ururining so'nmasligi bilan bog'liq ideallari o'z aksini topgan. Bu borada uning "Tafakkur" nomli hikoyasi o'ziga xos o'rin tutadi. Hikoyada uch avlod: Dovul tegirmonchi, Tangriberdi va Yo'ldoshboylarning taqdiri, hayot yo'li, xarakteri, xohish-istaklari, dunyoqarashi ochib berilgan. Hikoya nihoyatda serqatlam. Unda ko'plab ramzlar uchraydi. Buni biz asarning nomlanishi, Tangriberdining qiziqqan o'yini sifatida shaxmatning tanlanishi, qishloqning eng chekka joyda, tog'larning orasidaligi, personajlarning nomlari va boshqa ko'plab o'rinlarda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, hikoya Zulfiya Qurolboy qizining boshqa hikoyalaridan kompozitsion tuzilishi, bayon uslubi, ibtido va intihosi bilan ham keskin farq qiladi.

Hikoyaning "Tafakkur" deb nomlanishidagi ramziylik uning boshidan oxirigacha insonning tafakkur qilishga, fikrlashga intilganligi Tangriberdining taqdiri bilan bog'liq holda tanlangan. Asar personajlari uchun tanlangan nomlar ham e'tiborga molik. Masalan, Dovul o'z kasbi-tegirmonchiligiga mos keladi. Dovul tegirmonning dovuli ma'nosini bildirish bilan birga, bebosh shamol, vayronkor kuch ekanligiga ham ishora. Darhaqiqat, Dovul tegirmonchi ko'p o'ylab o'tiradigan odam emas. U faqat o'zining aytgani-aytgan, degani-degan bo'lishini istaydigan shaxs. Bunga qarshi chiqqan kishini o'ylab-netib o'tirmay jazolaydigan shaxs.

Bibizilol ham o'z nomiga mos keladi. Bibizilol nihoyatda sof va zilol. Erining aytganiga qarshi chiqmaydi. Eri o'g'lini urib, hushidan ketkazib, yerto'laga uch kun qamab qo'ysa ham unga e'tiroz bildirsa olmaydi. Faqat Dovul tegirmonchi Tangriberdini qarg'amoqchi bo'lganda to'sqinlik qiladi. O'zbeklarda odatda uzoq vaqt kutilgan farzandiga Tagriberdi deb ot qo'yadilar. Lekin Tangriberdi uzoq kutilgan farzand ekanligiga hech qanday ishora uchramaydi. U aslida, Dovul tegirmonchidek qornidan boshqani o'ylamaydigan kishiga berilgan

Tangrining tuhfası edi. Yo‘ldoshboy nomida ham ana shunday ramziylikni ko‘ramiz. Tangriberdi shaxmat bo‘yicha mohir usta bo‘lsa ham, otasining to‘sqinliklari tufayli tushkunlikka berilib falokatga uchraydi. Yo‘ldoshboy ana shunday vaziyatda Tangriberdi oilasida dunyoga keladi. Shuning uchun unga otasiga yo‘ldosh bo‘lsin, esh bo‘lsin degan ma’noda uni Yo‘ldoshboy deb atashgan. Bu nomlar o‘ziga xos tarzda muallifning hikoyadan aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini ochib berishga xizmat qilgan.

Asarning biror o‘rnida voqea qaysi zamon va qaysi makonda bo‘lib o‘tayotganligi ochiq aytilmaydi. Uning boshida Dovul tegirmonchilarning qishlog‘i qorli tog‘lar orasida ekanligi, yozning qisqaligi, odamlari “Sof jo‘qchi” ekanligi, endi-endi bir-ikkita “sapsim”, “ne to‘lka” degan so‘zlar uchray boshlaganligi aytilgan. Qishloqda faqat Eshboyevning uyida televizor bor. Bu bir qaraganda oddiy qishloq tasviriday tasavvur uyg‘otadi. Chuqurroq mulohaza qilinsa, bu tasvirlar voqealar SSSR deb nomlangan dunyodan uzilib qolgan, unda yuz berayotgan yangiliklardan bu yerdagilar bexabar. Xabardor bo‘lishi uchun axborot vositasining o‘zi yo‘q. U ham birgina rais Eshboyevda. Voqeaning SSSR da yuz berayotganligi o‘sha davrlarda raislargagina nasib qiladigan “Vilis” avtomashinasining nomiga har zamonda duch kelib qolishimiz bilan ham bilishimiz mumkin. Asar qahramonlarining hayoti qaysi davrda kechayotganligi ham ochiq aytilmaydi. Buni biz kolxoz yerlariga bug‘doy o‘rniga tok ekila boshlaganligi, Tangriberdining televizoridan shaxmat bo‘yicha jahon chempionati musobaqalarining ko‘rsatila boshlagan voqealar tasviridan bilib boramiz. Ana shunday voqealar tasviri tizimida uch avlod tafakkuridagi o‘zgarishlar – sho‘rolar hukmronligi ostidagi uch avlodning Istiqlolgacha bo‘lgan davri tasvirlana boradi.

Dovul tegirmonchi sho‘rolar tuzumining ocharchilik zamonlarini boshidan o‘tkazgan. O‘qib-o‘rganishga imkoniyati ham bo‘lmagan. Rais tegirmonchi bo‘lsin degan va u tegirmonchi bo‘lgan. O‘zining mustaqil fikri, o‘qib-o‘rganishga intilishi bo‘lmagan. Uning fikri-xayoli ocharchilik boshlanib qolsa, och qolmaslik.

Buning uchun omborni ikki-uch yilga yetadigan bug'doy va moyga to'ldirgan. Undan foydalanishga hech kimning haqqi yo'q.

Bolalarining ham bilim olishi, dunyoni ko'rishi uni qiziqdirmaydi. Tangriberdi tezroq o'qishni bitirib, tegirmonni egallashi uning fikr-u xayolini band qilgan. O'g'li shaxmat musobaqasiga boraman desa, "Shohmot senga osh-non beraymidi?!", deydi. Unga g'urur, faxr degan tushunchalar begona. Har bir narsani pul bilan o'ldiraydi. "Qishloqni dunyo tanidi nima, tanimadi nima? Birov kelib qurbaqa bosgan qudug'imga toza suv quyib beraymidi? Yo ulimni musobaqaga yuborganim uchun davlat menga bir so'm beraymidi? Shohmotning ketidan kim boyib ketdi o'zi, a kim?.. Qani. Ayt, kim boyidi? Bizni andi deb o'ylayotgan bo'lsang adashasan!" deydi.

O'g'lining musobaqaga borishiga ruxsat so'rab kelgan Shovqi muallim uzoq tushuntirishlardan keyin "Mabodo Tangri musobaqada g'olib bo'lib, hammadan zo'r chiqsa... pul berishlari ham mumkin!" degan so'zlarini eshitib birdan fikri o'zgaradi. Bu fikrlar manqurtlashib, faqat qornining g'amini yeydigan kishiga tegishli. U o'g'lining dunyoni ko'rishga intilishi, fikrining o'zgarishiga qarshilik qiladi. Ana shu xohishlarining natijasi sifatida Tangriberdi tushkunlikka tushib qoladi, ichkilikka beriladi. U bunday holatda yurganida ikkita barzangi hujum qilib, qattiq jarohatlaydi. Tangriberdi uzoq vaqt shifoxonada hushsiz yotadi. O'ziga kelgandan keyin ovqatdan boshqa narsani o'ylamaydigan hissiz odamga aylanib qoladi. Shifoxonadan chiqqandan keyin uyida ham faqat ovqat g'ami bilan yashaydigan, tafakkuridan ayrilgan, o'zligidan judo kimsa bo'lib qoladi. O'g'li bilan ham ishi bo'lmaydi. Uning bunday holatini ko'rgan xotini ham ketib qoladi. Boshqa turmush qiladi. Dovul tegirmonchi o'lguncha o'g'lining bunday holga tushib qolganiga o'zini aybdor deb biladi.

Bibizilol Tangriberdining tuzalganini ko'ra olmay olamdan o'tadi. Ota-onasining vafotidan keyin ukasining qo'lida qolgan Tangriberdi kasallikdan tanasiga qurtlar tushib, yiringlab ketadi. Buni Shovqi muallim bilib qoladi. Shunday kunlarning birida Tangriberdining tafakkuri asliga qaytadi. Televizorda

shaxmat bo'yicha jahon chempionati bo'layotgan edi. Tangriberdi chempionning noto'g'ri yurish qilayotganligini ko'rib hayqirib yuboradi. Asar ana shunday kulminatsiyada yakuniga yetadi. Bunday tasvirlar zahirida biz bir millat taqdirini ko'ramiz. Dovul singari qorin g'amidan boshqa narsani o'ylamaydigan kishilarimiz borligidan achinamiz.

Hikoyada Tangriberdining qancha vaqt tafakkuridan ayrilganligi aytilmaydi. Faqat uning shifoxonaga tushganida o'g'li Yo'ldoshboyning tug'ilganligini bilamiz. Uning o'z asliga qaytganida Yo'ldoshboy katta bola bo'lib qolgan edi. Bu ham bir millatimizning tarixda o'z o'tmishidan ajralib karaxt holatda yashaganligiga o'ziga xos tarzda ishora.

Tangriberdi tanasining qurtlab ketishi millatimizga yetkazilgan ozorlar, zarbalarning tasviri. Umuman, Tangriberdi o'zbek xalqining timsoli sifatida gavdalanadi. Hikoya so'ngida Tangriberdining tongga yaqin tafakkuri tiklanishi, yonida o'ziga o'xshagan bola – o'g'li yotganligini ko'rishi, o'g'lining hali uyquda ekanligi tasvirlangan (tong otayotganligi sababli u albatta uyg'onadi). Tongga yaqin tafakkurning tiklanishida ham alohida ma'no bor. Bu bilan muallif Istiqlol onlarining yaqinlashayotganligini bildiradi.

Tangriberdining orzularini atrofida qilardan faqat Shovqi muallimgina tushunadi. U ziyoli va ziyarak kishi. Tangriberdining intilishlarini qo'llaydi, muvaffaqiyatga erishishini chin dildan istaydi. Shovqi muallimgina Tangriberdining tanasi qurtlab ketganligini bilib qoladi.

Tangriberdi rais Eshboyevdan pul so'rab borganida u bermaydi. Tangriberdi rais pul bermaganligi uchun qilgan qing'ir ishlarini oshkor qilaman, deb tahdid qiladi. Shundan keyin mast bo'lishi, ikki barzangining uni kaltaklashi, behush bo'lib uzoq vaqt shifoxonada yotishi va tafakkuridan ajralishi yuz beradi. Shu o'rinda biror marta Tangriberdini kaltaklaganlar kim edi, degan savolga ochiqchasiga javob topmaymiz. Bu ishni rais qilgan bo'lishi mumkin deya olmaymiz. Chunki o'sha kuni rais Tangriberdining dag'dag'alariga hech qanday javob qaytarmagan, idoradan chiqmagan ham edi. Lekin shifokor vrachning

Eshboyevning kelib ketganligini aytishi, Tangriberdiga televizor va arava sovg'a qilishi, sovg'alar topshirilayotganda Tangriberdiga qo'shilib suratga tushgan haydovchini eslasak, bu voqealar orqasida rais turganligini bilamiz. Suratga tushgan haydovchi esa o'sha barzangilardan biri bo'lishi mumkin, degan fikr xayolimizdan o'tadi. Raisning haqiqatning oshkor bo'lishiga to'sqinlik qilishlari, sho'rolar tuzumi davrida millatimizning ziyoli vakillari tomonidan millat, erk, haqiqat deya jaranglagan ovozlarni o'chirish uchun olib borilgan qatag'on siyosatini yodga soladi.

Umuman, "Tafakkur" hikoyasi orqali Zulfiya Qurolboy qizi o'zbek xalqining ayanchli tarixi, qora kunlarining Istiqlolgacha bo'lgan davrini Tangriberdi timsolida o'ziga xos ramzlar orqali taqdim qila olgan.

Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Zulfiya Qurolboy qizining Istiqlol davri hikoyalarida insonning shaxs sifatidagi o'rnini, jamiyatdagi mavqeyi ko'rsatiladi. O'z adabiy-estetik idealning shaxs sifatida o'zlarini anglash jarayonlarini tasvirlaydi. Bunday jarayonlar tasviri orqali bugun insonlar ruhiyatida bir vaqtning o'zida turlicha o'zgarishlar sodir bo'layotganini sezish mumkin.

2. Zulfiya Qurolboy qizi Istiqlol davridagi o'z adabiy-estetik ideallari orqali inson, eng avvalo, inson ekanligini unutmasligi shartligi, o'zidagi poklik, soflik, ma'naviy barkamollikni hamisha yuksak darajada tutib turishi kerakligini bildiradi. Unga hech qanday holatda daxl qilib bo'lmaydi. Yuz berayotgan vaqtinchalik bo'hronlar insonning o'z darajasidan quyiga qarab ketishiga sabab bo'lolmaydi. Bunday jarayonlarda inson o'z matonatini yo'qotmasligi kerak degan g'oyalar olg'a suriladi.

3. Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur" nomli hikoyasi Istiqlol davrida yaratilgan asarlari ichida o'zining millat taqdiri, millatning taraqqiyotga intilishi kerak, biz boshqalardan kam emasmiz, millat taqdiri faqat qorinni o'ylaydigan kimsalarga bog'liq bo'lib qolmasligi kerak, degan adabiy-estetik ideallarining tarannumi bilan o'ziga xosdir.

4. “Tafakkur” hikoyasi bir necha ramziy qatlamlardan iborat. Unda Tangriberdi timsolida o‘zbek xalqining tafakkur erkinligi uchun intilishlari tasvirlangan.

3.3. HAMID OLIMJONNING “MUQANNA” DRAMASINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘RGANISH

Ta’lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o’tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta’lim-tarbiya sohasida so‘nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasiga har xil ta’rif berilmoqda va turlicha talqin qilinmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko‘lamli, serqirra tushuncha. Texnologiya grekcha so‘z bo‘lib, texnos- “san’at”, “mahorat”, logos – “ta’limot” degan ma’nolarni bildiradi.

“Pedagogik texnologiyaga hozirgacha 300 dan ortiq ta’riflar berilgani ma’lum. Shularning ichida eng ma’quli deb YUNESKO ta’rifi ekanligi aniqlangan. Chunki berilgan ta’rifda dialektik qonuniyatlar mavjud b‘lib, u quyidagicha: pedagogik texnologiya – butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘z oldiga ta’lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir. Ushbu ta’rifda butun bo‘lak, shakl-mazmun, aloqadorlik qonunlari mavjud bo‘lib, borliqning sistema ekanligi ham ko‘rsatiladi”¹.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta’lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi va o‘zlashtiradi. Bu

¹ Юсупова Ш. Педагогик технологиянинг моҳияти. Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент. 2006, 1-қисм.-Б. 69

faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda pedagogik texnologiya va metodikani deyarli bir xil hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud: metodika- biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalarga ajraladi. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish zarur. Ular orasidagi ayrim farqlar quyidagicha¹:

Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
Ta'riflar	Pedagogik texnologiya-insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat	Metodika- ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning sifatli bo'lishini ta'minlash
Qo'llash maqsadi	Barcha ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alohida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'lim va tarbiya texnologiyasi asosida. Ta'lim menejmenti va marketingi asosida. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Etarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olinishi ta'minlandi.	Ta'lim va tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalarga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bunda natijalar har kimda har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga	Oldindan belgilangan

¹ Ж.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. -Т.:Фан ва технология, 2008.-Б..23-24

	erishish kafolati bor	maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilar yaxshi natijaga erishadilar
Kelib chiqishi	Xususiyl metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiyl masalalarini hal qilish zurrati natijasida kelib chiqqan

Demak "...pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni muayyan badiiy asarda ilgari surilgan g'oyalar mohiyati bo'yicha mustaqil fikr yuritish, sujetlar tizimi asosida muallif tomonidan taklif etilayotgan yechimning mazmunini tahlil etish, badiiy talqinda ifoda etilgan ijtimoiy munosabatlar jarayonida bilvosita ishtirok etish asosida mustaqil hayotga tayyorlanish imkonini beradi"¹. Prezidentimiz ham ta'kidlab o'tganidek, "aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rta qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib, yangilanib boraveradi"². Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti-bu mazkur jarayonga tizimli yondashuv, shu bois bir narsani yoddan chiqarmaslik kerakki, YaPT lardan o'rni bilan foydalanishgina yaxshi samara beradi. Biz quyida Hamid Olimjon adabiy-estetik idealining istiqlol nuqtai nazardan yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rganishga harakat qilamiz. Ma'lumki, akademik litsey talabalariga uchinchi bosqichda Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi o'tiladi.

Darsning ta'limiy maqsadi: Ushbu mavzu orqali talabalarga H.Olimjonning "Muqanna" dramasi haqida bilim berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: H. Olimjon asarlari tahlili orqali yurtparvarlik, erkparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

¹ Эгамбердиева Ф. Чўлпон ижодини янги педагогик технология асосида ўрганиш. "Тил ва адабиёт таълими" журнали. 2005, 3-сон.-Б.15

² Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: H.Olimjon asarlarining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va poetik obraz va badiiy mahorat muammosi yoritiladi

Ta'lim berish usullari: Qanday?" texnikasi, "FSMU" uslubi, "Klaster", "Insert"

Ta'lim berish shakllari: Jamoa bo'lib ishlash

Ta'lim berish vositalari: O'quv qo'llanma, kompyuter, proyektor, tarqatma material, slaydlar

Monitoring va baholash: Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

Biz, avvalo, mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib olamiz.

“Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasi mavzusidagi darsning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1- bosqch. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2.Adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi	Yozib oladi Yozib oladi
2- bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi, ikkinchi, uchinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha “Qanday?” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “Hamid Olimjonning qanday asarlarini bilasiz?”	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining to'rtinchi, beshinchi, oltinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha “Qanday?” usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “Muqanna” dramasi haqida qanday fikrdasiz?”	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Hamid Olimjon hayoti va ijodini yoritish “Kichik guruhlarda ishlash” orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi. Guruhlarda ishlashga yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman – qog'ozlarga tushirib, taqdimotini	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.

	o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	
3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydi.
	3.2. Talabalarining baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi.	Javob yozadi.
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Insert" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

Dars rejasi:

1. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi
2. Shoirlik mahorati: hayotiylik, dalillash, dramatism, xarakter, pozitsiya, detal
3. Hamid Olimjon baxtlar kuychisi nomini olgan shoir
4. Shoirning II jahon urushi yillaridagi ijodi
5. "Muqanna" dramasi badiiy xususiyatlari

Talabalarni faollashtirish uchun savollar:

1. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda shoir mahorati nimalarda ko'rinadi?
2. Ijodkor g'oyasini ochishda badiiy detalning o'rni qanday?
3. Shoirning fosh etish san'ati qaysi asarlarida bo'rtib ko'rinadi?
4. Hamid Olimjon lirikasida inson baxti masalasi qanday talqin etilgan?
5. Hamid Olimjonning qaysi asari dostonchilik sohasidagi eng jiddiy muvaffaqiyati hisoblanadi?
6. Hamid Olimjon dramalarining ijtimoiy ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot


- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				


“Tarmoqlash” metodidan foydalanib “Muqanna” dramasi qahramonlariga tavsif beradilar.



Talaba har bir obrazning individual xususiyatlariga alohida to‘xtaydi.


“Qanday” organayzerini to‘ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



“Qanday” organayzerini to‘ldiring


Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



O‘quv faoliyati natijalari:

1. Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida ma'lumot oladilar.
2. Shoirlik mahorati: hayotiylik, dalillash, drammatizm, xarakter, pozitsiya, detal haqida ma'lumot oladilar.
3. Hamid Olimjon baxtlar kuychisi nomini olgan shoir bo'lganligini tushunib oladilar.
4. Hamid Olimjonning adabiy ertaklari haqida ma'lumot oladilar.
5. Shoirning ulug' II jahon urushi yillaridagi ijodi haqida ma'lumot oladilar.
6. "Muqanna" dramasining badiiy xususiyatlari haqida ma'lumot oladilar.

Talabalar "Muqanna" va "Jaloliddin Manguberdi" dramasining o'xshash va farqli jihatlari e'tibor qaratadilar



Hamid Olimjon, tarix bilan to‘qinashganida u orqali zamonasini va zamonadagi o‘zini “chetdan” mushohada qilayotgan shoirning “Muqanna”ni yaratish jarayonidagi holati”Muqanna”ga qadar kechgan hayoti, o‘zi shohidi yoki ishtirokchisi bo‘lgan voqealarni tarix ko‘zgusiga solib ko‘rayotgan, uning tosh-tarozusida tortib ko‘rayotgan ijodkor holati, ruhiyati Guloyinda ifoda topgandek ko‘rinadi.

Guloyinning “Shuncha yillar otashgohga topindim, va bilmadim ilohim kim, tangrim kim?” degan gapida esa bu e’tirof yanada qat’iyoq, ochiqroq ifoda etiladi. Guloyin, muallif singari, ayrilishda turgan, ongli ravishda o‘z yo‘lini tanlash ehtiyojini tuygan odam. Mavjud yo‘llardan bittasi qizning ko‘ngliga yaqin, erkka tashna qalb shungagina moyil:

Ixtiyorni bersang agar menga san,

Ozodlikka topinardim yolg’iz man.

Guloyinning bu xitobida erksizlikdan zada bo‘lgan, yurti va o‘zining qulligini tamom anglagan muallifning qalb isyoni zuhur qiladi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Hamid Olimjon asarlarining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilang.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Hamid Olimjon lirik asarlari haqida fikrlaringizni bildiring.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Xulosa shuki, adabiyot darslarining muvaffaqiyati o'qituvchining tayyorgarligi, bilim saviyasigagina emas, uning dars jarayonini tashkil qilishga ijodiy munosabatda bo'lishiga ham bog'liq.

Biz bilamizki, adabiyot o'qituvchisining vazifasi "avvalambor" o'quvchiga badiiy asarlar orqali odob-axloqni, vatanga muhabbat, yurtga sadoqatli bo'lish kabi tuyg'ularni shakllantirishdir. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi xuddi shunday vazifani bajaradi. "Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o'quvchi shaxsi kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati asosiy o'rin tutadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar butun dars davomida o'quv faoliyatining ichida bo'lsin, biror daqiqa bo'lsin ijodiy ishlash imkoniyatidan tashqarida qolmasin",¹ -degan fikrga tayangan holda yuqoridagi dars ishlanmasini havola qildik.

¹ Б.Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси.-Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхона, 2010-Б.132

XULOSA

Shaxs va jamiyatni aniq maqsad sari ideallar boshlaydi. Ideallar jamiyatning taraqqiy etishi, barqarorligining bosh omili hisoblanadi. Bir jamiyatning ideali o'sha jamiyatda yashaydigan kishilar uchun birdek ideal darajasiga ko'tarilsa, ana shunday jamiyat taraqqiy topadi. O'sha jamiyatdagi fuqarolar yagona ideal atrofida birlashib unga erishish uchun og'ishmay harakat qiladilar. Bunga tarixdan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, qadimgi Rimni olasizmi, Turk xoqonligi tarixi, o'rta asrlar Sharq mamlakatlari yoki sarbadorlar davlatini va boshqa-boshqalarni aytish mumkin. Ularning har birida o'z davlatini ideal darajada - taraqqiy etgan, barcha teng, boy-badavlat va hokazo darajada yuksak ko'rinishga ega bo'lishini istaganlar. Mana shunday ideallar hamisha millatning oldida yuradigan ziyoli kishilari tafakkurida shakllanadi. O'z navbatida ular bunday tafakkur mevasini turli shakllarda taqdim etadilar. Millatning fidoyi shaxslari uning abadiy yashashi uchun tafakkur birinchi o'rinda turishini qadrlaganlar. Adabiyot millat fidoyilari uchun buyuk minbardir. Unda turib o'z fikrini bayon qilish imkoniyati bor. Lekin bayon qilishning, o'z istaklarini yetkaza olishning o'ziga xos jihatlari mavjud. O'zbek xalqining fidoyilari o'z xalqini yuksak (ideal) darajada ko'rish uchun adabiyot orqali o'z fikrlarini turli ko'rinishlarda, millatni uyg'ota oladigan, hushyor qiladigan usullarda ifoda qilganlar. Vatan ozodligi, uning dunyodagi taraqqiy etgan davlatlardan kam bo'lmasligi, millatimizning dunyo madaniyatini tebratgan mavqeyining tiklanishi, millatimizning hur, erkin bo'lishi, yoshlarning bobolar merosini qadrlaydigan, ilmga, taraqqiyotga intiluvchan bo'lishi bilan bog'liq ideallari hamisha xalqimizning yuragida yashagan. Ulardan millatparvar kishilarimiz boshiga qora kunlar tushgan pallalarda ham, eng peshqadam millatdoshlarimiz nom-u nishonsiz yo'q qilib yuborilayotgan paytlarda ham chekinmaganlar. Shu bois milliy ideal, millatni uyg'otadigan, oldinga boshlaydigan, jipslashtiradigan, shaxs sifatida o'zini anglatadigan ideallar

hamisha adabiyotimizda bo'lgan. Bunday ideallar faqatgina turli ko'rinishlarda, turli g'oyalar, ramzlar qobig'ida taqdim etilgan.

Tadqiqot yuzasidan quyidagicha umumiy xulosalarga kelindi:

1. Ideal biror narsaning eng oliy darajasi, biror ko'rinishning takomiliga yetgan darajasi sanaladi. Adabiy ideal estetik idealning adabiyotdagi tajassumidir. Estetik idealni badiiy adabiyotdagi ifodasi turlicha bo'lishini tasvirlash mumkin. Adabiy-estetik idealni yaratish uchun ijodkor ko'proq ijobiy xislatlarga urg'u bersa, buning aksi bo'lgan salbiy xislatlar orqali ham o'z idealining qiyofasi aslida qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob berib o'tadi. Biror bir davr ideali bo'lgan obraz ma'lum bir muddatdan keyin o'z vazifasini o'tab, uning o'rniga boshqa bir ideal adabiyot maydonida paydo bo'lishi mumkin.

2. Ijodkorlar asarlariga salaflari asarlarining adabiy-estetik ideali yangi davr o'quvchisining didi, saviyasiga mos tarzda boshqacha ko'rinishda kirib kelishi mumkin. Bu holatda salaf ijodkor asaridagi idealning xarakteri, tashqi ko'rinishi, nutqidagi o'ziga xosliklar salaf ijodkor asariga juz'iy o'zgarish yoki qo'shimchalar orqali namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda ana shunday holat adabiy-estetik ideal transformatsiyasi yoki transformatsiyalanish hodisasi deb ataladi.

3. XIX asrning oxiri– XX asrning boshlari o'zbek adabiyotida millatparvarlik, ma'rifatparvarlik bilan bog'liq ideallar shakllangan. Shu bilan birga rus madaniyati, rus xalqining madaniyati va taraqqiyotining ideali, degan qarashlar ham paydo bo'lgan. Bulardan tashqari, ularning bosqinchilik faoliyatini qoralovchi, ularga qarshi kurashga chorlovchi ozodlik ideallarining adabiy ideal darajasiga ko'tarilganligini ko'ramiz. Bunday adabiy-estetik ideallar o'zbek adabiyotining boshqa vakillari bilan uzviy tarzda jizzaxlik ijodkorlar asarlarida ham uchraydi.

4. XIX asr so'nggi choragi – XX asr birinchi choragi jizzaxlik ijodkorlarning komil inson bilan bog'liq estetik ideallari mumtoz o'zbek adabiyoti vakillari ideallari bilan mushtaraklikka ega. Ularda nafs tarbiyasiga bel bog'lagan, o'tkinchi dunyo tashvishlariga berilmagan, komillik darajasiga erishgan kishilar suhbatiga

intiladigan, yomon xulq egasi bo'lgan insonlar jamiyatidan qochadigan kabi sifatlarga ega lirik qahramon adabiy-estetik idealining belgilari sanalgan.

5. Hamid Olimjonning Vatan, ozodlik, adolat, baxt tushunchalari bilan bog'liq adabiy-estetik ideallarining sarchashmalari o'zbek xalq og'zaki va yozma adabiyoti sarchashmalariga borib ulanadi. Shoirning sovetlar tuzumi ideallari targ'ibiga bag'ishlangan bir qator maqolalari davr siyosiy talablari bilan yuzaga kelgan. Ular asosida ijodkorning butun ijodi yuzasidan yaxlit xulosa chiqarib bo'lmaydi.

6. Hamid Olimjon she'riyatida ham davr siyosiy talablari bilan yaratilgan asarlar uchrasa ham "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlarining tahlillariga bag'ishlangan maqolalari zahirida uning adabiy-estetik ideallari o'zbek xalqi epik dostonlari bilan chambarchas ekanligi, u o'z asarlarida o'zbek xalqining yuksak orzulari, ideallaridan chekinmaganligi, ularni yangi ko'rinishlarda taqdim etganligini bilishimiz mumkin.

7. Sharof Rashidovning publitsistik asarlarida garchi siyosiy talablar bilan bog'liq tarzda davr adabiy ideallarini yaratish, adabiy idealning ko'rinishi qanday bo'lishi kerak kabi masalalar yuzasidan fikrlar bayon qilingan bo'lsa ham, ular to'raligicha o'sha tizimga xizmat qilishga qaratilmagan. Sh.Rashidov XX asr boshidagi jadidchilik va ma'rifatparvarlik adabiyoti vakillari asarlarida kuylangan adabiy-estetik ideallardan yaxshi xabardor bo'lgan. Ularning dunyoqarashi va faoliyatini chuqur o'rgangan. Ayni chog'da, publitsistik maqolalarida ularning asarlarini saqlab qolish uchun davr nuqtayi nazardan baho berish yo'lini tutgan.

8. Sh.Rashidov o'z asarlarida o'zbek xalqining asrlar davomida kuylab kelingan taraqqiyot, yuksalish, dunyoning peshqadam millatlari bilan bir safda turish bilan bog'liq ideallarini yangicha talqinlarda taqdim etgan. Buni biz uning "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli", "Dil izhori" singari asarlarida ko'rishimiz mumkin.

9. Vatan mustaqilligi bilan bog'liq ideallar hamisha Sh.Rashidov ijodining markazida turganligini "Kashmir qo'shig'i" qissasi va unga yozilgan "Xotima"

orqali ko‘rish mumkin. Uning dramaturgiya sohasidagi “Ravshan” nomli asarida 1916-yilda Jizzaxda chor hukumatining mardikorlikka olish siyosati sabab yuzaga chiqqan xalqning milliy ozodlik kurashlari tasvirlangan. Unda adibning mustaqillik, ozodlik bilan bog‘liq ideallari o‘z aksini topgan.

10. Sh.Rashidovning nazmiy asarlarida ham ozodlik va mustaqillik bilan bog‘liq adabiy-estetik ideallari o‘z ifodasini topgan. Buning uchun ijodkor turli xil tarixiy mavzular, ramziy timsollarga murojaat qilgan. Sh.Rashidov “Navoiyga”, “Erk istar ko‘ngil” kabi she‘rlarida tarixiy shaxslar timsoliga murojaat qilish zahirida ajdodlar ruhiga, o‘zbek xalqiga murojaat qiladi. “Fontan” she‘ri ramziy obrazlar tizimiga asoslangan ozodlik, erkinlik borasidagi ideallar ifodasining Sh.Rashidov ijodidagi o‘ziga xos namunasidir.

11.Sayyora To‘ychiyevaning Vatan, Istiqlol, uning mustaqilligini mustahkamlash borasidagi adabiy-estetik ideallarini turli pozitsiyadan turib taqdim qiladi. Ularda shoira vatanparvar ona va yurt kelajagi deb qayg‘uradigan shaxs sifatida gavdalanadi.

12. Sayyora To‘ychiyevaning Istiqlol bilan bog‘liq ideallarida xalq birligi, xalqning yakdilligi muhim jihat sifatida qadrlanadi. Mahalliychilik, xalqni bo‘lib yuboradigan salbiy xususiyatlar tanqid qilinadi, qoralanadi.

13.Sayyora To‘ychiyeva yurtimiz yoshlarining o‘z adabiy-estetik idealidagidek ko‘rishni istaydi. Uningcha, tarixdan xabardor, Bobur, Ulug‘bek singari bilimdon yoshlar Vatanimiz kelajagi bo‘la oladi. Ana shunday ma‘rifatli, bilimli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga ahamiyat berish zarur.

14. Sayyora To‘ychiyevaning Istiqlol bilan bog‘lik, Vatan taraqqiyotiga oid adabiy-estetik ideallari XX asr birinchi choragida yashab ijod qilgan vatanparvar, ma‘rifatparvar, millatparvar ijodkorlarning adabiy-estetik ideallari bilan uzviy bog‘liq. Shoira mazkur ijodkorlar ideallarining davr, zamon va tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq tarzda yangi jihatlarini tarannum etgan.

15. Zulfiya Qurolboy qizi Istiqlol davridagi o‘z adabiy-estetik ideallari eng avvalo, insoniy poklik, uning kamoloti bilan bog‘liq ideallarni tarannum etadi.

Buni biz uning “Momo Havo” singari hikoyalari timsolida ko‘ramiz. Shu bilan birga u o‘z adabiy-estetik ideallari orqali qiyin sharoitlarda ham inson o‘zining insonlik darajasini saqlab qolishi shart deb hisoblaydi.

16. Zulfiya Qurolboy qizining “Tafakkur” nomli hikoyasi millatimiz taqdiri, tafakkuri tarixi, undagi evrilishlar, qarama-qarshiliklarni ko‘rsatishning o‘ziga xos namunasidir. Bu asarda bir muallifning jahon adabiyoti tajribalari bilan birga Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari adiblarimiz tajribalariga suyangan holdagi tasvir, ifoda, ramziylikning davomini ko‘ramiz.

17. Tangriberdi “Tafakkur” hikoyasidagi Zulfiya Qurolboy qizining millatni tafakkurdan to‘xtatib bo‘lmasligi, qanchalar qarshiliklar, zo‘ravonliklar bo‘lsa ham, millat yashashi, o‘lmasligi, yana qayta qad rostlanishini ko‘rsatuvchi adabiy idealidir.

18. XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti ijodkorlari asarlarida o‘zbek adabiyotining boshqa ijodkorlari asarlari bilan uzviy tarzda hamisha Vatan ozodligi, uning taraqqiyoti, milliy g‘urur, uning dunyoning boshqa xalqlaridan kam bo‘lmasligi kerak degan ideallar tarannum etilgan. Bunday ideallar ba’zida davr siyosiy talablari bilan murosaga kirishgandek ko‘rinib, turli xil ramzlar va ishoralar orqali transformatsiyalantirilgan. Mazkur davr jizzaxlik ijodkorlarning asarlari tahlili misolida o‘zbek adabiyotida hamisha Istiqlol, milliy ozodligi, erksevarlik, vatan va millat ravnaqi bilan bog‘liq ideallardan voz kechmagan degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
3. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –384 б.
4. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. –31 б.
5. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –344 б.
2. Абдурахмонов А. Туркий халқлар адабиёти. –С.: СамДУ, 2007. – 160 б.
3. Абдусаматов Ҳ. Тарих ва бадиий талқин. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. –184 б.
4. Акопова А. Эстетический идеал и природа образа. –М.: Наука, 1994. – 222 с.
5. Бозоров У.Б. Ҳамза ижодининг ғоявий асослари. –Т.: Фан, 1960. –250 б.
6. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадиличилик. –Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 286 б.
7. Жалолов А. XIX аср охири XX аср бошларида ўзбек адабиёти. –Т.: Фан, 1978. –155 б.
8. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. –Т.: Бадиий адабиёт, 1970. –343 б.
9. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Истиқлол ва тарихий жараён. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –95 б.

10. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Т.: Университет, 2003. – 124
11. Йўлдошев, Ж.Ғ., С.А.Усмонов. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. –Т.: Фан ва технология, 2008.–130 б.
12. Калонхонов М. Истиқлол тонги. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –120 б.
13. Камалова Д. М. Узбекская художественная культура. –Т.: Издательско-полиграфическое объединение, 1995. –150 с.
14. Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Т.: 2004. – 104 б.
15. Каримов Б. Янгиланиш соғинчи. Адабиёт жамғармаси, –Т.: 2004. – 80 б.
16. Каримов Н. Ҳамид Олимжон. –Т.: Ёш гвардия, 1979. –246 б.
17. Каримов Н. Урушдан кейинги давр ўзбек совет адабиёти. –Т.: Фан, 1982. –158 б.
18. Каримов Н. Усмон Носир. –Т.: Шарқ, 1993. – 90 б.
19. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.–536 б.
20. Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. –Т.: Фан, 1975.–146 с.
21. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1993. – 96 б.
22. Касымжанов А.Х. Эстетические взгляды Фараби. –Т.: Фан, 1990. –144 с.
23. Лармин О. Эстетический идеал и современность. – М., 1964. – 155 с.
24. Мамажонов С. Ишонч ва бурч. –Т.: Ёш гвардия, 1982. – 66 б.
25. Мамажонов С. Улуғ ватан уруш идаврида ўзбек адабиёти. –Т.: Фан, 1975. –170 б.
26. Мамажонов С. Лирик олам, эпик кўлам. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 333 б.
27. Мамажонов С. Давр шамолига пешвоз. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984. – 211 б.

28. Мирзоолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – 128 б.
29. Муриан В. Эстетический идеал. –М., 1966. –247 с.
30. Муродов О.М., Полякова Е.А. Трансформация мифологических и легендарных образов в таджикско-персидских хрониках XI-XV вв. – Душанбе: Дониш, 1986. – 220 сах.
31. Мухтаров А. Дилшод и ее место в истории общественной мысли Таджикского народа в XIX - начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1969. –372 с.
32. Муҳаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт.–Т.:Ўзбекистон, 1973.–33 б.
33. Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Фан, 1993. –373 б.
34. Нигматуллина Ю. Национальное своеобразие идеала и искусство. –Казан: Татгосиздат. 1970. –212 с.
35. Норматов У. Гўзаллик билан учрашв. –Т.: Ёш гвардия, 1976. –206 б.
36. Норматов У. Насримизнинг анъаналари. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1978. – 213 б.
37. Норматов У. Етуклик. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1982. –364 б.
38. Носиров Ў. Шароф Рашидов – давр фарзанди. –Т.: Фан, 1992. –Б. 20.
39. Осичнюк Е. Идеал и деятельность. –Киев, 1981. –184 с.
40. Рубцов Н.Н. Символ в искусстве и жизни: философские размышления.– М.: Наука, 1991. –174 с.
41. Султонмурод Олим. Истиклол–бахтим, саодатим. –Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. –116 б.
42. Тўхлиев. Б Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. –168 б.
43. Шодиев Э. Шоираҳои тоинкилобии Хўжанд. –Душанде: Ирфон, 1986. – 62 с.
44. Ганиев И. Фитрат. Ўтиқод. Ижод. –Т.: 1994. –152 б.
45. Ганиев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – 178 б.

46. Қосимов Н. Мустақиллик курашлар даври.—Т.: Ўзбекистон, 1997. —79 б.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

47. Абдурахмонов А. Алп Эр Тўнга (Афросиёб)га оид адабий-тарихий манбалар: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. —Т.: 1997. — 49 б.
48. Амонов Ш. Н. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс. —Т.: 2010. —132 б.
49. Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси (Насрий асарлари мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дис. — Т.: 1998. — 284 б.
50. Қосимов Я. Ўзбек шеърятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни. Фил. фанлари номзоди...дисс. — Т.: 1993. —154 б.
51. Давлатова А. Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол... фан. номз. автореф. —Т.: —25 б.
52. Даниярова Ш.Х.Истиқлол даври ўзбек романларида руҳ ва қаҳрамон муносабати: Филол. фанлари доктори ... дис. — Т.: 2012. —257 б.
53. Джуманиязова Н.А. Истиқлол даври ўзбек лирикасида услубий ўзгаришлар: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. — Т.: 1997. —27 б.
54. Долимов У. Жаҳид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Педаг. фан. док. дис... автореф. — Т.: 2008. —42 б.
55. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. —Т.: 1993. —45 б.
56. Кенжаева П.У. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятининг тасвири (Эркин Аъзам, Хуршид Дўстмуҳаммад, Саломат Вафо ҳикоялари мисолида — XXI аср бошлари): Филол. фанлари номзоди ... дисс. — Т.: 1997. — 109 б.
57. Муравева М. Е. Трансформация гуманистических идеалов свободы и социальной справедливости в истории философской мысли. Автореф дисс. на соиск. учен. степени кандидата философских наук. —Москва: 2005. —25 с.

58. Назарова Р. Эстетический идеал и его вопрошение в искусстве. Дисс. на соиск. канд. философ наук. –Т.: 1970. – 183 с.
59. Нурматова М. К. Развитие эстетической мысли в Узбекистане XVIII-XIX вв.: Автореф. ... канд. филос. наук. –Т.: 1994. – 26 с.
60. Павляк О.Н. Творчество А.А.Делвига: эстетический идеал и жанровое совеобразие. АКД. –Т.: 1995. –21 с.
61. Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари(XIX аср охири - XX аср бошлари). Тарих фан. ном...дисс. – Т.: 2003. –148 б.
62. Рустамова М. Истиқлол даври қиссаларининг тараққиёт тенденциялари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. –Т.: 1997. –133 б.
63. Сайдганиева Г.Ш. Истиқлол даври лирикасида строфика ва ритмнинг поэтик образ яратишдаги ўрни: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. –Т.: 1997. –24 б.
64. Умаров А.И. Культурная жизнь в Ферганской долины во второй половине XIX - начала XX вв.: Автореф. дис.... канд. истор. наук. –Т.: АН инс. Ист., 1985. – 24 б.
65. Хамидов Х. Узбекские переводы «Шах-наме» Фирдоуси: Автореф. дис. ... кандидата филол. наук. – Т.: 1967. – 25 с.
66. Эркабоева Н.Қ. Алишер Навоий ижодида муножот: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т.: 2008. –26 б.

Badiiy adabiyotlar:

67. Зулфия Қуролбой қизи. Қадимий кўшиқ. –Т.: Ўзбекистон, 2012. –357 б.
68. Рашидов Ш. Эрк истар кўнгил. –Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. –Б. 105.
69. Рашидов А. Акам ҳақида. –Т.: Фан, 1992. –36 б.
70. Рашидов Ш. Кашмир кўшиғи. Икки дил достони. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. .
71. Тўйчиева С. Мен сени қизғонаман. –Т.: Фан, 1996. –58 б.
72. Тўйчиева С. Санамгина. –Т.: Фан, 2008. –203 б.

73. Тўйчиева С. Вафо бўлиб уйғонаман –Т.: Фан, 1994. –56 б.
74. Ҳамид Олимжон. Асарлар мажмуаси. Бешинчи том. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. –272 б.
75. Ҳамид Олимжон.Куйчининг хаёли.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.–155 б.
76. Ҳасаний Мажид. Туркистон босқини. –Т.: Нур, 1992. –45 б.
77. Қосимов Б. Излай-излай топганим... –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – 272 б.
78. Қосимов Б. Салом, келажак. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. –280 б.

Maqola va to‘plamlar:

79. Адабиётимизнинг ярим асри. (Мақолалар тўплами) –Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. – 547 б.
80. Ватан ва миллат муқаддасдир (Миллий уйғониш даври ижодкорларининг эътирофлари). –Т.: Маънавият, 2000. –104 б.
81. Баранова И. А. Литература и медицина: трансформация образа врача в русской литературе XIX века // Вестник Самарской гуманитарной академии. Выпуск “Философия. Филология.” 2010. № 2(8), –С.186-194.
82. Бағиров А.Бадий идеал ва тарихий ҳақиқат //ЎТА, 1997, №2,–Б.17- 22.
83. Жалолов А. Жадид адабиётида миллий-озодлик ва истиқлол ғоялари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.:, 1996, №4. –Б. 16-23.
84. Юсупова Ш. Педагогик технологиянинг моҳияти. Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). –Т.: 2006, 1-қисм. –Б. 69
85. Федоров А.В. Трансформации образа России на западном экране: от эпохи идеологической конфронтации (1946–1991) до современного этапа (1992–2010). –М.: Изд-во МОО «Информация для всех», 2010. –202 с.
86. Истиқлол ва маънавият (Мақолалар тўплами). –Наманган, 1997. –211 б.
87. Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йўлида // ЎТА, 1994, № 3.

88. Лутфиддинова Х. Эстетик идеал ва ҳаётий ҳақиқат // Гулистон, 1997, №1.
89. Лутфиддинова Х. Кумушбиби – эстетик идеал намунаси // ЎТА, 1994, 5 – 6-сонлар.
90. Мирҳайдаров Ҳ. Традицион поэтик образлар масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. №1. – Б.30-34.
91. Тарих, мустақиллик, миллий ғоя (Мақолалар тўплами). –Т.: Академия, 2001.–334 б.
92. Тургенев И.С. Гамлет и Дон-Кихот // Сочинения в 12-ти т. Т. 5. –М.: Наука, 1980. –С. 330-350.
93. Тўлаганова С. Прототип ва эстетик идеал // Ўзбек адабиёти. Таъсир ва типология. –Т.: Муҳаррир, 2013. –Б. 175-180.
94. Умаркулов Б. Традицион поэтик сўз ва образ // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. № 2. –Б.15-18.
95. Франк С. Л. Крушение кумиров // Франк С. Л. Сочинения. Мн.: Харвест. –М.: АСТ, 2000. –С. 147-246.
96. Франк С.Л. Политика и идеи // Франк С. Л. Сочинения. –Мн.: Харвест. –М.: АСТ, 2000. –С. 81-96.
97. Фрейд З. Будущее одной иллюзии // Фрейд З. Избранное. книга 2. –М.: Издательство «Московский рабочий» вместе с «Вся Москва», 1990. –С. 99-147.
98. Шоира Муаззамхон. Ҳаёти ва ижодида чизгилар (Мақолалар тўплами). – Т.: Янги аср авлоди, 2005. –57 б.
99. Сувонкулов И. Сангзор садолари. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 150 б.
100. Сувонкулов И., Сайдалиева Н. Шоира Муаззамхон. –Жиззах: Сангзор, 2010. –76 б.
101. Эркинов А. Дукчи Эшон ва 1898 йил Андижон кўзғолони – давр шоирлари баҳосида // Ўзбекистон тарихи. 2004. № 2. – Б.3-17.
102. Қодирова М. Шоира Муаззамхон. –Т.: Фан, 1992. –71 б.

103. Ҳозирги ўзбек адабий жараётининг актуал проблемалари. (Мақолалар тўплами). –Т.: Фан, 1984. –166 б.

Internet manzili:

104. <http://caute.ru>
105. <http://shortstory.zhurnal.ru/node/1622>
106. <http://goprom.ru>
107. <http://magicpedia.ru>
122. <http://wunder.narod.ru>
108. Бартенева Е. Трансформация мифологических мотивов, сюжетов и образов в европейской литературной сказке. <http://pryahi.indeep.ru>
109. Дадажонова Н. Янги ўзбек адабиёти ва Ҳамза шеърляри // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2002. №6. –Б. 45-46.
110. Данина М. Трансформация образов. <http://www.proza.ru>
111. Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари. <http://ijod.uz/?p=7437>.
- Трансформация идей и трансформация образов.  <http://wunder.narod.ru>.
112. Кристенсен Б. Трансформация образа Голлума в “Хоббите”. <http://www.tolkien.spb.ru>.
113. Лепёшкина М.Н. Трансформация образа женщины в рекламе. <http://www.mavriz.ru>.
114. Қозоқбой Йўлдош. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги. <http://ijod.uz/?p=7430>.
115. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида рамз ва метафора. <http://ijod.uz/?p=6864>.

**ISOQOVA PARIZODNING MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI
YUZASIDAN CHOP ETILGAN ILMIY MAQOLA VA TEZISLARI
RO‘YXATI**

1. Sangzor tarixi tahlili va talqini. Антик дунё. Илмий-тарихий, ижтимоий-маърифий журнал. –Тошкент.: 2012, № 5-6. –Б.32
2. Jamiyatda ayolning tutgan o‘rni. “Аёл-маънавият гулшани V Республика илмий-амалий конференцияси материаллари”.–Жиззах.: 2013.–Б.150-152
3. Jizzax vohasi Bobur nigohida. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг адабий-илмий мероси. –Тошкент.: Мухаррир, 2013. –Б.69-71
4. Muazzamxon ijodiga bir nazar. ЎЗР ФАсининг 70 йиллигига бағишланган Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси маъруза тезислари тўплами. –Тошкент.: 2013.–Б.188.
5. Muazzamxon she’riyati manbalariga oid tadqiqotlar. Профессор Ҳамид Сулаймон номидаги Республика ёш манбашунос ва матншуносларнинг илмий анжумани материаллари тўплами. –Тошкент.: 2014. –Б. 83-85.
6. Jizzaxlik ijodkorlar asarlarida 1916- yildagi qo‘zg‘alonlar bilan bog‘liq o‘rinlar. Ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги №11 илмий-амалий конференцияси тезислари. –Тошкент.: ТДШИ, 2014. –Б. 98-100
7. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayollar obrazi talqini. “Аёл маънавият гулшани VI Республика илмий-амалий конференцияси материаллари”, Жиззах, 2013. –Б.131-133
8. Shahlo Ahrorova she’riyatida Vatan talqini. Тафаккур талқинлари: илмий мақолалар тўплами. –Тошкент.: Tamaddun, 2014.–Б. 118-122

Isoqova Parizod Shavkat qizining “Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari (XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida)” mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasiga ilmiy rahbar filologiya fanlari nomzodi, professor Olimjon Jo‘rayevning

XULOSASI

Istiqlol tom ma'noda o'zligimizni anglash imkoniyatini berdi. Natijada, o'tmishimizni chuqur ilmiy asosda xolisona o'rganib, unga baho berila boshlandi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to Istiqlolgacha bo'lgan davr haqiqatda ham xalqimiz boshidan kechirgan eng qora kunlar bo'ldi. Bu davrda tuzumning zulmkor siyosati natijasida ko'plab millatparvar, erkarparvar, taraqqiyparvar millatdoshlarimiz yo'q qilindi. Bosqinchi kuchlar xalqimizni o'zligidan ajratish, o'tmishi, ajdodlari merosidan bexabar manqurt, o'z millatiga qarshi chiqadigan avlodni tarbiyalashga harakat qildi. Buning uchun, shubhasiz, milliy adabiyotga, unda kuylanayotgan mavzularning o'tmish bilan bog'liqligi nazoratga olindi. Hukmron kuchlarning siyosiy maqsadlariga mos kelmaydigan asarlar, ularning mualliflari, ana shunday asarlarni o'qigan o'quvchilar ta'qib ostiga olindi. O'sha davrlarda yaratilgan asarlar, ularning mualliflari davr siyosiy talablariga qarab ish tutishga, hisoblashishga majbur edilar. Lekin bunday jarayonlardan barcha ham to'liq xabardor emas. Shu bois ana shunday omillarni e'tiborga olganda o'sha davrda yaratilgan asarlar va ularning mualliflari taqdiri, dunyoqarashi, asarlari mag'zida yashirilgan ma'no-maqsadlarni bilish, nafaqat biror bir ijodkor shaxsiyatini anglash, balki Istiqlolimizning qadr-qimmatini anglash, yosh avlodga bildirishda ham muhimdir.

Isoqova Parizod Shavkat qizining “Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari” (XIX–XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida) mavzusidagi 5A 111101–O'zbek tili va adabiyotshunoslik doirasidagi magistr akademik darajasini olish uchun bajargan ilmiy taqqiqoti aynan ana shu mavzuga bag'ishlanganligi bilan dolzarb va e'tiborli. Eng avvalo, dissertatsiya mavzusi uchun tanlangan davr qamrovi mudhish tarixiy kunlarni qadam-baqadam ko'z oldimizga keltira olishimizda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur davrdagi ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal muammosini ko'rsatib berish uchun Jizzax vohasi ijodkorlarining tanlanganligi muhim. Bu orqali yosh tadqiqotchi keng ilmiy jamoatchilikning e'tiborini avvalo, jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal masalasining hozirgacha tadqiq etilmagan qirrasiga qaratgan. O'z navbatida jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideallarning o'zbek adabiyoti adabiy-estetik ideallari bilan yaxlitligi, ajralmasligi, uzviyligini ko'rsatgan.

Dissertant mavzuni ochib berish uchun izchil va to'g'ri reja tuzgan. Har bir bob va fasllar bir-birini o'zaro to'ldirib borib, yaxlitlik hosil qilgan. P.Isoqova tadqiqot ishining yutuq jihatlaridan yana biri, ko'plab nazariy adabiyotlarga

murojaat qilganligidir. Adabiy-estetik ideal va transformatsiyaga oid xorijlik va vatanimiz olimlarining tahlilga tortilganligi, o'z navbatida, ular asosida tadqiqotchi o'z mustaqil fikrlarini ham bildirib borganini qayd qilmoq lozim. Shuningdek, u ko'plab internet manbalariga ham murojaat qilgan. Dissertatsiyaning bu jihati P.Isoqova kelgusida o'z o'rniga ega, zamonaviy ilmlardan xabardor adabiyotshunos olim bo'lib yetishishidan dalolat bermoqda.

Jizzax vohasidan ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqan. Lekin P.Isoqova XIX asrdan Istiqloligacha bo'lgan davrni uchga bo'lib, har bir davr uchun o'sha davrlarda yashagan eng peshqadam ijodkorlarning asarlarini tahlilga tortish yo'lidan borgan. Bu yo'l, mening nazarimda, juda ham to'g'ri va oqilona bo'lgan. Ularning barchasi ijodini mavzu doirasida tahlil qilishning imkoni yo'q. Bu dissertatsiya hajmini oshirib, uning og'irlashib ketishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bu ishni P.Isoqova kelgusida amalga oshiradi deb umid qilib qolamiz. Zero, dissertatsiya mavzusi dolzarb va hozirga qadar ishlanmagan. Biz Isoqova ushbu mavzuni doktorlik mavzusi sifatida davom ettirishini istab qolamiz.

P.Isoqovaning dissertatsiya mavzusi bo'yicha bir qator ilmiy maqola va tezislarni respublika ilmiy nashrlarida e'lon qilingan. Ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etgan. Bular asosida uning mavzu yuzasidan olib borayotgan tadqiqotlari natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishdan cho'chimasligi, ular bilan bimalol bahsga kirisha olishini bilishimiz mumkinligini bilamiz.

Umuman olganda, Isoqova Parizod Shavkat qizining "Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari" (XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida) mavzusidagi 5A 111101–O'zbek tili va adabiyotshunoslik doirasidagi magistr akademik darajasini olish uchun bajargan ilmiy dissertatsiyasi yakunlangan tadqiqot holiga kelgan. Tadqiqotda bildirilgan xulosa va umumlashmalar kelgusida adabiy-estetik ideal va adabiy-estetik idealning transformatsiyalanish jarayonlari yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar uchun muhim manba bo'la oladi. Menimcha, tadqiqot natijalarini ozroq tirajda bo'lsa ham nashr qildirish va keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilsa yaxshi bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, Parizod Isoqovaning magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi magistrlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyalarga qo'yilgan barcha talablarga mos keladi. Garchi adabiy-estetik ideal kategoriyasi yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, hozirga qadar mazkur kategoriyaning o'zgarib turishi, transformatsiyalanish jarayonlari yuzasidan biror bir tadqiqot amalga oshirilgan emas. Tadqiqotning ana shu jihati o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy yangilik sifatida baholanishga loyiq. Uni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,
professor Olimjon Jo'rayev

Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти ўзбек тили ва адабиёти ёналиши магистранти Исоқова Паризод Шавкат қизининг “Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёнлари” (XIX–XX аср ва Истиқлол даври Жиззах адабий муҳити мисолида) мавзусидаги магистр академик даражасини олиш учун тақдим этилган диссертациясига

Т А Қ Р И З

Барча даврлар адабиёти учун адабий-эстетик идеал масаласи долзарб бўлган. Шу билан бирга ижодкор ўз асарларида тарғиб этаётган идеал шахс образи, идеал жамиятнинг кўринишлари билан боғлиқ рамз ва ишоралар орқали билдирган қарашлари ҳамиша ҳам оддий китобхон учун тушунарли бўлавермайди. Ижодкор асаридаги бундай рамзийликларни очиб бериш тадқиқотчининг зиммасига тушади. Кўп минг йиллик ўзбек адабиёти бўйича ҳар томонлама тадқиқ этилиши талаб этилаётган, ўз тадқиқотчиларини кутаётган мавзулари кўп. Ана шу сингари тадқиқ этилиши лозим ва зарур бўлган мавзулардан бири мустабид тузум даври ижодкорларининг асарларидаги адабий-эстетик идеал масаласидир. Бу масалага баъзида бир томонлама ёндашишлар ҳам учраб турмоқда. Диссертацияда тўғри кўрсатилганидек, бирор бир қаламкаш ижодиётидаги адабий-эстетик идеал масаласига баҳо беришда бир асар доираси билан чекланиш тўғри бўлмайди. Бунинг учун унинг барча асарлари яхлит тарзда олиниши талаб этилади.

Исоқова Паризод Шавкат қизининг ушбу магистрлик диссертацияси XIX асрдан Истиқлолгача бўлган давр ўзбек адабиёти вакиллари ижодидаги адабий-эстетик идеал масаласи жазоҳлик ижодкорлар асарлари мисолида кўрсатиб беришга бағишланган. Диссертация мавзусининг долзарблиги, муаммонинг ўрганилганлиги даражаси, тадқиқот мақсади, тадқиқот вазибалари, илмий янгилиги, илмий ва амалий аҳамияти, жорийланиши билан алоҳида аҳамият касб этади.

“Кириш”да ишнинг ҳимояга олиб чиқарилган асосий ҳолатлари ҳақида сўз юритилади. Илмий қарашларининг асосий қирраларини баён этган. Биринчи боб “Адабий-эстетик идеал катергориясининг трансформацияланиш ҳодисаси ва XIX асрнинг сўнгги чораги–XX асрнинг бошлари жазоҳлик ижодкорларнинг асарлари” деб номланиб, уч фаслга бўлинади. Аввало, адабий-эстетик идеал ва трансформация ҳодидаси ҳақида назарий ҳулосалари берилади. Шундан кейин ўзбек адабиётхунослигида адабий-эстетик идеал яратишга оид тадқиқотлар тўғрисида, сўнгга XIX асрнинг сўнгги чораги–XX аср бошлари ўзбек адабиёти ва Жиззах адабий муҳити тарихий-адабий манбалар асосида тадқиқ этилади. Таҳлиллар асосида адабий-эстетик идеал ва унинг трансформацияланиш ҳодисаси юзасидан асосли илмий ҳулосаларга эга бўламиз. Мазкур давр ўзбек адабиётининг бошқа вакиллари қаторида

жиззахлик ижодкорлар асарларидаги адабий-эстетик идеал категориясининг ўзгариб борганлиги, трансформацияланганлиги, уларнинг асос ва омиллари бир қанча мисоллар билан кўрсатилган.

Иккинчи боб “XX аср жиззахлик ижодкорлар асарларидаги адабий-эстетик идеал категориясининг хусусиятлари” деб номланиб, у ҳам уч фаслни ташкил этиб, уларда Ҳамид Олимжон асарларида адабий-эстетик идеал категорияси жозибаси, Шароф Рашидовнинг публицистик ва насрий асарларида адабий-эстетик идеал қирралари ва учинчи фаслда Шароф Рашидов драматургияси ва шеъриятида адабий-эстетик идеал талқинлари тўғрисида илмий қарашларини билдиради. Иккинчи боб ҳам ўзининг илмийлиги, қизиқарлилиги, чуқур таҳлилларга бойлиги билан алоҳида таассурот қолдиради.

Магистр учинчи бобни “Истиқлол даври ижодкорлари асарларида давр адабий-эстетик идеали. Академик лицейда адабий-эстетик идеал мавзусини ўрганиш” деб номлаб, илмий қарашларини баён этишга ҳаракат қилади. Бобнинг биринчи фаслида ҳозирги кунда сермахсул ва Республикамизда таниқли бўлган шоиралардан бири Сайёра Тўйчиеванинг шеърияти таҳлилга тортилган. Унинг Истиқлол даврида яратган шеъриятидаги Истиқлол, ватан озодлиги, унинг гуллаб-яшнаши билан боғлиқ адабий-эстетик идеалларнинг ўзига хослиги, тарих ва ҳозирги кун билан боғлиқ жиҳатлари қатор мисоллар асосида далилланган. Ўз навбатида шоира асарларидаги адабий-эстетик идеалларнинг боболаримизнинг Истиқлол, ватан тараққиёти, ватанпарвар шахсларни тарбиялаш, ватан озодлигига барча масул деган идеаллари билан уйғун томонлари муваффақиятли кўрсатилган.

Иккинчи фасл насрнавис ижодкор Зулфия Қуролбой қизи асарларига бағишланган. Айни пайтда Зулфия Қуробой қизи асарлари кўплаб тадқиқотчиларнинг эътиборига тушган. Лекин уларда П.Исоқова таҳлилга тортган мавзу юзасидан фикрлар билдирилмаган. Тадқиқотчи бу орқали Зулфия Қуролбой қизи ижодий маҳоратининг янги бир қиррасини кашф қилган.

Бобнинг учинчи фасли педагогика соҳаси ё‘налиши талабларига мос тарзда “Ҳамид Олимжоннинг “Муқанна” драмасини янги педагогик технологиялар асосида ўрганиш” масаласига бағишланганлиги билан мантикийдир. Бу орқали тадқиқотчи, нафақат тадқиқотчилик салоҳияти, балки педагогик маҳоратини ҳам намоён қила олган. Бирор бир мавзуни янги педагогик технологиялар асосида ўқувчига аниқ ва тушунарли шаклда етказиб бера олишини кўрсатган.

Тадқиқотда XIX – XX аср ва Истиқлол даври Жиззах адабий муҳити ижодкорлари асарларида ўзбек адабиётининг бошқа ижодкорлари асарлари билан узвий тарзда ҳамиша Ватан озодлиги, унинг тараққиёти, миллий ғурур, халқимизнинг дунёнинг бошқа халқларидан кам бўлмаслиги керак, деган идеаллар тараннум этилган. Бундай идеаллар баъзида давр сиёсий талаблари билан муросага киришгандек кўриниб, турли хил рамзлар ва ишоралар

орқали трансформациялантирилган. Мазкур давр жиззахлик ижодкорларнинг асарлари таҳлили мисолида ўзбек адабиётида ҳамиша Истиқлол, миллий озодлиги, эрксеварлик, ватан ва миллат равнақи билан боғлиқ идеаллардан воз кечмаган деган хулосага келиш мумкин, деб билдирган хулоса билан ҳар томонлама асосли яқун ясалган.

Булар билан бирга баъзи мулоҳазалар ҳам мавжуд. Бизнингча, асарлари таҳлилга тортилган ижодкорлардан ташқари бошқа муаллифларнинг асарларини ҳам диссертацияга жалб қилинса яхши бўлар эди, хусусан, Оқилжон Ҳусанов, Комилжон Имомов, Сарвар Азимов, Иброҳим Дониш, Туроб Мақсуд кабиларни. Шунингдек, Ш.Рашидов ижоди хусусида сўз юритилганда И.Каримовнинг Шароф Рашидов ҳақидаги “Халқимизнинг оташқалб фарзанди” асарида, Жиззах халқи ҳақидаги фикрларидан фойдаланилса яхши бўлар эди. Назаримда, Х.Лутфуллаева мақоласи номи икки жойда икки хил кўрсатилган. (20-21 бетлар).

Албатта, билдирилган мулоҳазалар тадқиқотнинг умумий илмий қимматини пасайтирмайди. Булар келгусида эътиборга олиниши лозим бўлган истаклар.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек тили ва адабиёти мутахассислиги бўйича магистр академик илмий даражасига даъвогар Исоқова Паризод Шавкат қизининг “Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёнлари” (XIX–XX аср ва Истиқлол даври Жиззах адабий муҳити мисолида) мавзусидаги 5А 111101–Ўзбек тили ва адабиётхунослик доирасидаги магистр академик даражасини олиш учун бажарган ушбу диссертацияси чуқур илмий тадқиқ ва таҳлиллар асосида яратилган. Мукаммал. Ҳимоя қилишга тайёр. Юқори рейтинг балини кўйишга арзийди.

Taqrizchi:

f.f.nomzodi, dotsent Isomiddin Ikromov

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti Isoqova Parizod Shavkat qizining “Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari” (XIX–XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida) mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ishiga

T A Q R I Z

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov badiiy ijod va adabiy-estetik ideal haqida so‘z yuritar ekan, “Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi”,- deb alohida ta’kidlaydi.

Shundan xulosa chiqarib aytish mumkinki, tarixiy va zamonaviy asarlarda ijodkorlarning estetik ideali hali chuqur talqin etilmayotgani, faqat istiqlol yillaridagina bu jarayon rivojlanish bosqichiga kirganligini quvonarli holdir. Chunki ota-boblarimizning kechmishlari, ming yillardan ortiq tariximizni bizgacha yetib kelgani, avvalo adabiyot tufaylidir.

Isoqova Parizod Shavkat qizining mazkur magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganligi darajasi, tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriylanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

“Kirish”da ishning himoyaga olib chiqarilgan asosiy holatlari haqida so‘z yuritiladi. Ilmiy qarashlarining asosiy qirralarini bayon etishga intiladi.

Magistrlik dissertatsiyasida jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari uch davrga bo‘lingan va uchta bob doirasida jarayonlarning sabablari, ana shu sabablarning ijodkor ongi va

ijodida aks etishi batafsil va asosli dalillar yordamida ko'rsatib borilgan. Har bir fasl o'ziga xos xulosalar bilan yakunlanib borgan. Dissertatsiya yuzasidan bildirilgan yakuniy xulosalar ham diqqatga molik. Ularda muallif har bir faslda bildirilgan xulosalarni yana bir bor umumlashtirgan va mavzu yuzasidan yakuniy ilmiy-nazariy fikrlarini bayon qilgan.

Tadqiqotchi, birinchi bobda o'zbek adabiyotshunosligida adabiy-estetik ideal va transformatsiya hodisasi haqida ilmiy ma'lumot berib, bu jarayonlarni XIX asrning so'nggi choragi–XX asrning boshlarida ijod qilgan jizzaxlik ijodkorlardan Alamkash va Muazzamxon she'riyati misolida ochib berishga harakat qiladi. Ularning she'rlarida ozodlik, istiqlol bilan bog'lik estetik ideallar bilan birgalikda komil inson ideali ham tarannum etilganini tadqiqotchi chiroyli iqtiboslar bilan dalillab bergan.

Ma'lumki, hozirga qadar Hamid Olimjon, Sharof Rashidov kabi ijodkorlarning asarlaridagi adabiy-estetik ideal yuzasidan turli darajadagi tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, P.Isoqova izlanuvchan va tirishqoqligi tufayli ikkala ijodkor asarlarining hali tadqiq etilishi lozim bo'lgan tomonlariga e'tiborini ikkinchi bobda qaratgan. Bu ham dissertantning sinchkovligi va intiluvchanligini belgilaydi. Hamid Olimjonning maqola va she'rlari tahlili xususida to'xtalar ekan, u o'zbek xalqining yuksak orzulari, ideallaridan chekinmaganligi, ularni yangi ko'rinishlarda taqdim etganligini asosli misollar bilan ko'rsatadi. MDda tadqiqotchi Vatan mustaqilligi bilan bog'liq ideallar hamisha Sharof Rashidov ijodining markazida turganligini "Kashmir qo'shig'i" qissasi va unga yozilgan "Xotima" orqali ko'rish mumkin, degan xulosaga keladi.

Uchinchi bobda, Isoqova Parizod, Sayyora To'ychiyevaning Vatan, Istiqlol, uning mustaqilligini mustahkamlash borasidagi adabiy-estetik ideallariga oid she'rlarini o'rganadi, bu ishning ilmiy saviyasini ko'targan. Tadqiqotchi, Zulfiya Qurolboy qizining Istiqlol davri hikoyalarida insonning shaxs sifatidagi o'rni, jamiyatdagi mavqeyini ko'rsatar ekan, adibaning o'z adabiy-estetik idealning shaxs sifatida o'zlarini anglash jarayonlarida namoyon bo'lishini "Tafakkur" nomli hikoyasida ochib bergan.

Ma'lumki, akademik litsey talabalariga uchinchi bosqichda Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi o'tiladi. Tadqiqotchi MDning metodika qismida xuddi shu mavzuni o'tishni tanlagan. Mazkur mavzuni o'tishda oldin "Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi mavzusidagi darsning texnologik xaritasi tuzib olgani dars ishlanmasini to'g'ri berganligidan dalolat. Darsda "Qanday?" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: "Hamid Olimjonning qanday asarlarini bilasiz?", "Muqanna" dramasi haqida qanday fikrdasiz?". Dars jarayonida yani pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olgan. U mavzuni o'tishni "Kichik guruhlarda ishlash" orqali amalga oshirgan. O'rni bilan "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar bergan, "Insert" usulidan, "Tarmoqlash" metodiga murojaat qilganligi maqsadga muvofiq bo'lgan.

Shuningdek, Parizod Isoqovaning dissertatsiya mavzusi bo'yicha bir qator maqola va tezislarini respublika ilmiy nashrlarida e'lon qilinganligi, uni mavzuni chuqur o'rgangani va mavzuning joriylanishiga asos bo'lgan. Ushbu dissertatsiyasi chuqur ilmiy tadqiq va tahlillar asosida yaratilgan, mukammal holga keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha magistrlik akademik ilmiy darajasiga da'vogar Isoqova Parizod Shavkat qizining "Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari" (XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida) mavzusidagi 5A 111101–O'zbek tili va adabiyotshunoslik doirasidagi magistr akademik darajasini olish uchun bajargan taqdim etilgan ushbu dissertatsiyasi yakunlangan tadqiqot holiga kelgan. Tadqiqotning ana shu jihatida o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy yangilik sifatida baholanishga loyiq. Uni a'lo bahoga baholash mumkin.

Taqrizchi:

**JizzPI Xorijiy tillar kafedrası
dotsenti, f.f.nomzodi, D.Soatova**

Isoqova Parizod Shavkat qizining "Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayonlari" (XIX – XX asr va Istiqlol davri Jizzax adabiy muhiti misolida) mavzusidagi 5A 111101–O'zbek tili va adabiyotshunoslik doirasidagi magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ishiga

T A Q R I Z

Ijodkor xalqimizning ma'naviyati va ma'rifati tarixida, xususan, adabiyoti sahifalaridagi xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lganligi, ular mudom o'zgarib, transformatsiyalanish jarayonlarini kechirganligi tarixiy hodisa sifatida o'z izini qoldirganligi tarixiy hodisadir. Shu ma'noda, badiiy adabiyotdagi yuksak adabiy-estetik ideallarning barcha mintaqalardagi ijodkorlar asarlarida muayyan darajada o'z aksini topganligi ham bugungi kunda hech kimga sir emas. Buni birgina Jizzax adabiy muhitida ham kuzatish mumkin.

Taqriz qilinayotgan dissertatsiyada XIX asrdan to hozirgacha bo'lgan davrdagi aynan Jizzax adabiy muhitida o'z izini qoldirgan Alamkash, Koriziy, Muazzamxon, H.Olimjon, Sh.Rashidov, S.To'ychiyeva, Zulfiya Qurolboy qizi kabi ijodkorlarning asarlari asosiy obyekt sifatida o'rganilgan. Ulardagi adabiy-estetik ideallarning ko'rinishlari va transformatsiyalanish jarayonlari, bu jarayonlarning boshlanishiga sabab bo'lgan omillar maxsus tekshirilgan.

Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va

vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy etilishi va sinovdan o'tishi, tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Ishning birinchi bobida mavzuning ilmiy-amaliy asoslari, xususan, adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish hodisasi va XIX asr so'nggi choragi XX asrning boshlaridagi jizzaxlik ijodkorlarning asarlari tahlil etilgan. Unda dissertant o'z e'tiborini adabiy-estetik ideal va ularning transformatsiyalanish hodisasini tavsiflashga, adabiy jarayonda o'z izini qoldirgan olimlarning fikr-mulohazalarini keltirib, ularni sharhlashga, o'zbek adabiyotshunosligida adabiy-estetik ideal yaratishga oid tadqiqotlarni qisqacha tahlil etishga qaratadi. Ayni o'rinda XIX asr va XX asr choragida o'zbek adabiyoti va Jizzax adabiy muhiti kabi o'zak masalalar haqida so'z yuritadi.

Tadqiqotchining tahlil doirasidan shunday xulosa keltirib chiqarish mumkinki, muallif tanlangan mavzu bo'yicha mavjud barcha adabiyotlar, adabiy-badiiy materiallar bilan yaqindan tanishgan va har uchala fasllarda xulosalar asosli va bir-birini to'ldiradi.

Tadqiqotchining ikkinchi bobi XX asr jizzaxlik ijodkorlar asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining xususiyatlari masalasiga bag'ishlangan. Unda muallif o'zbek adabiyoti sahifalaridan munosib o'rin egallagan Hamid Olimjon va Sharof Rashidov asarlaridagi adabiy-estetik ideal talqinlarining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Xususan, H.Olimjonning "Zaynab va Omon", "Bolalik", "Siyob" va "Baxtlar vodiysi", "Baxt to'g'risida", shuningdek, Sh.Rashidovning bir turkum adabiy-publitsistik maqolalari, "G'oliblar", "Kashmir qo'shig'i", "Bo'rondan kuchli", "Dil izhori" kabi qator asarlaridagi adabiy-estetik ideal kategoriyasining xilma-xil talqinlari ochib berilgan.

Taqriz qilinayotgan magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobini avvalgi bobning mantiqiy davomi deyish mumkin. Unda istiqlool davridagi jizzaxlik ijodkorlar, xususan, Sayyora To'ychiyeva, Zulfiya Qurolboy qizining asarlaridagi adabiy-estetik idealning o'ziga xosliklari, aniqrog'i, mazkur ijodkorlarning bu boradagi izlanishlari haqida so'z yuritganki, bu boradagi dissertatsiyaning muayyan ma'nodagi yutug'i deyish mumkin. Chunki dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi fikr-mulohazalarning aksariyat qismi adabiyotshunoslikda aytilgan va asoslanilgan edi. Uchinchi bobdagi mulohazalar esa endigina aytilyapti va o'rganilyapti. Adabiyotimizga endigina dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan ijodkorlardan S.To'ychiyeva, Zulfiya Qurolboy qizining asarlari tahlilidagi dissertant aytgan mulohazalar muayyan ma'noda yangilik hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiya yuzasidan quyidagi mulohazalar va takliflarni aytmoqchimiz:

- Tanlangan mavzu muayyan ma'noda dolzarb, adabiyotshunosligimizda Jizzax adabiy muhiti haqidagi aytilgan barcha fikr-mulohazalarni birmuncha to'ldirishga va umumlashtirishga xizmat qiladi;

- dissertatsiya boblari bir-birini muayyan ma'noda to'ldirishga xizmat qilgan. Biri ikkinchisini mantiqiy jihatdan asoslashga, tanlangan mavzuni ochib berishga

xizmat qilgan. Uchinchi bobdagi uchinchi faslni ikkinchi bobning muayyan tarkibiy qismi sifatida o'z joyidan olish zarur. Yoki to'rtinchi bob sifatida "Umumta'lim maktablari dasturi asosida sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda jizzaxlik ijodkorlar asarlarini o'rganish" deb nomlangan yangi bobni ko'rish zarur va unga uchinchi bobdagi uchinchi faslni berish, qolaversa, Sh.Rashidov, S.To'ychiyeva, Zulfiya Qurolboy qizi asarlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish masalasini kiritish zarur bo'lardi. Shundagina bajarilgan ish ilmiy, amaliy va metodik jihatdan yaxlitlik tashkil etadi. dissertatsiyada tadqiqotchining mustaqil fikr-mulohazalari ko'zga tashlanib turadi. Har bir faslda aytilgan xulosalar aniq va qisqa tarzda berilgan. Bu esa ishning saviyasini yana bir darajada ko'tarishga, aytilgan fikrlarni asoslab to'ldirishga xizmat qilgan.

Aytilgan mulohazalar va takliflar taqriz qilinayotgan dissertatsiyaning mazmuniga jiddiy ta'sir etmaydi, aksincha, uning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Uni tugallangan tadqiqot sifatida baholab, magistrlik dissertatsiyasining hozirgi talablarga to'liq javob bera olishini ta'kidlaymiz. E'lon qilingan barcha maqolalar va ilmiy axborotlar mavzuning mazmun-mundarijasini to'liq qamrab oladi. Magistrlik dissertatsiyasini bemalol ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin, deb hisoblayman.

U.A.Jumanazarov – filologiya fanlari doktori, professor.

20.05.2014.